

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO'MITASI
SOLIQ AKADEMIYASI**

“Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrası

**«SOLIQ NAZORATI»
FANIDAN**

MA'RUZA MATNLARI

Kafedraning 2011 yil __ avgustdagi 1-sonli
majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

**“Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrası
mudiri**

_____ **i.f.d. N.Kuziyeva**

Tuzuvchilar:
i.f.n. J. O'rmonov
o'q. I. Norquziyev

Toshkent-2011

1.Mavzu: “Soliq nazorati” fanining maqsadlari va davlat soliq xizmati mutaxassislarini tayyorlashdagi o’rni va roli

Reja:

1. Soliq nazorati fanining predmeti
2. Soliq nazorati fanining tarkibiy mazmuni
3. Soliq nazorati fanining davlat soliq xizmati organlari uchun mutaxassislar tayyorlashdagi o’rni va roli
4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq nazoratini tashkil etishda soliq siyosatining tutgan orni

Tayanch so’z va iboralar:

- | | |
|--------------------|--------------------------|
| 1. Nazorat | 7. Davlat byudjeti |
| 2. Davlat nazorati | 8. Monitoring |
| 3. Soliq nazorati | 9. Soliq idoralari |
| 4. Soliq | 10. Soliq qonunchiligi |
| 5. Majburiyat | 11. Davlat soliq xizmati |
| 6. Tekshirish | 12. Soliq nazorati |

1. Soliq nazorati fanining predmeti

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida Respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan islohotlar - agrar, mulkiy munosabatlar, tashqi iqtisodiy, moliya-kredit tizimi va ijtimoiy sohalarda tub o’zgarishlarni yuzaga keltirdi. Bu islohatlar orasida moliya-kredit tizimini isloh qilish alohida rol o’ynaydi. Chunki, jamiyatni barcha sohalari faoliyati pulli munosabatlar bilan bevosita bog’liqdir, vaholanki, pulli munosabatlarni samarali ishlash mexanizmi o’z navbatida boshqa sohalarga bevosita ta’sir etadiki, bu moliya-kredit tizimini jamiyat iqtisodiy tizimidagi o’rni naqadar yuqori ekanligini ko’rsatadi. «Qattiq moliyaviy siyosatni amalga oshirish, barqaror pul muomalasini ta’minlash, soliq tizimini takomillashtirish, umumiy qilib aytganda izchil moliya-kredit siyosatini amalga oshirish iqtisodiy islohatlarimizni muvaffaqiyatli ta’minlashga xizmat qilmog’i lozim” - degan edi, - prezidentimiz I.A.Karimov.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida soliqlar davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosatini amalga oshirishning asosiy manbai hisoblanadi. Demak, davlat byudjeti daromadlarini tashkil qiluvchi soliqlarning to’liq va o’z vaqtida undirilishini ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. SHuning uchun barcha davlatlar qatori mavlatimizda ham soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarni to’liq, to’g’ri va o’z vaqtida byudjetga undirilishini nazorat qilish tizimi yaratilgan.

«... Izchillik bilan amalga oshirilayotgan, birinchi navbatda soliq yukini kamaytirishga qaratilgan oqilona soliq siyosati iqtisodiyotdagi tarkibiy o’zgarishlarga, xo’jalik yurituvchi sub’ektlarning ishbilarmonlik faolligi va moliyaviy barqarorligini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Xususan, 2011-yilda soliq yuki, 1991-yil bilan solishtirganda, yalpi ichki mahsulotga nisbatan qariyb 2 barobar kamayib, 41,2 foizdan 22 foizga tushganini qayd etish zarur. 2011-yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to’lovi stavkasining 7 foizdan 6 foizga kamaytirilishi xo’jalik yurituvchi sub’ektlar investitsiya faoliyatining kengayishiga xizmat qildi. Buning natijasida bo’shab qolgan qariyb 80 milliard 300 million so‘m mablag‘ni birinchi navbatda ishlab chiqarishni texnologik yangilash va zamonaviy texnikani joriy etishga yo‘naltirish imkoni paydo bo‘ldi.” - degan edi, - Prezidentimiz I.A.Karimov.¹

Soliq nazorati fani davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to’lovchilarning moliyaviy xo’jalik faoliyatini soliq qonunchiligiga rioya etish nuqtai nazardan nazorat qilishning huquqiy, uslubiy va tashkiliy asoslarini o’rganadi. Ma’lumki soliq to’lovchilar davlat byudjetiga

¹ I.A.Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko’taradigan yil bo’ladi. T.: “O’zbekiston” 2012.

to'laydigan soliqlarini mustaqil ravishda xisoblab belgilangan muddatda va miqdorda amalga oshirishlari lozim. Davlat soliq to'lovchilarga soliqlarning fiskal majburiyatidan kelib chiqqan xolda shunday qat'iy talabni qonun normalari sifatida belgilab qo'ygan.

Soliq nazorati qanchalik qat'iy bo'lsa va tekshiruvlar natijasida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha chora ko'rish muqarrarligi to'liq ta'minlansa davlat byudjeti manfaatlari xar tomonlama muxofaza qilingan va byudjet daromadlarining shakllanishi kafolatlangan bo'ladi.

SHu nuqtai nazardan soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat ishlarining huquqiy masalalari, nazoratni tashkil qilishning uslubiy yo'nalishlari, nazorat natijalarini rasmiylashtirish va soliq qonunchiligiga rioya etishda qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan soliq to'lovchilarga chora ko'rish tartiblarini o'rganish bu fanning izlanish predmeti xisoblanadi.

Soliq akademiyasini bitirgan talaba soliq organlarining funksiyaviy bo'limlarida ya'ni soliq nazorati bilan bog'liq xizmat vazifalarini bajarishga mo'ljallangan. Shuning uchun "Soliq nazorati" fani aynan shu talabga javob beruvchi mutaxassis kadrlar tayyorlashga xizmat qilishga qaratilgan.

O'z navbatida "Soliq nazorati" fani "Soliq tarixi va nazariyasi", "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish", "Jisminiy shaxslarni soliqqa tortish", "Soliq huquqi", "Soliq statistikasi va prognozi" kabi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liq.

2. Soliq nazorati fanining tarkibiy mazmuni

Soliq nazorati fani quyidagi mavzularni o'z ichiga olgan:

- 1) "Soliq nazorati" fanining maqsadlari va davlat soliq xizmati mutaxassislarini tayyorlashdagi o'rni va roli
- 2) Soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishi nazoratining huquqiy asoslari
- 3) Xo'jalik sub'ektlari faoliyati bo'yicha davlat nazoratining tashkil etilishi
- 4) Xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatini xujjatli tekshiruvlarini tashkil qilish va o'tkazish tartiblari
- 5) Yuridik shaxslarning pul mablag'larini taftishdan o'tkazish tartiblari
- 6) Naqd pul bilan muomala qiluvchi xo'jalik sub'ektlari tomonidan savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish tartiblari
- 7) Xo'jalik sub'ektlari faoliyatini tekshirilishi natijasida tayyorlanadigan tekshiruv materiallarini rasmiylashtirish tartiblari
- 8) Tekshiruv materiallarini shakllantirish va ro'yxatdan o'tkazish tartiblari
- 9) Soliq huquqbuzarliklari bo'yicha ma'muriy amaliyot yuritish tartiblari

Soliq nazorati fanining tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi mavzularning qisqacha mazmuniga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, ular quyidagilardan iborat:

Soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishi nazoratining huquqiy asoslari mavzusi doirasida O'zbekiston Respublikasida soliqlar va soliqqa tortish munosabatlariga bevosita daxldor bo'lgan va ushbu munosabatlarni tartibga solib turadigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va ularning mazmun va mohiyati o'rganiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksidan va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar Soliq Kodeksi bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

Soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar Soliq kodeksi qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak. Normativ-huquqiy hujjatlar Soliq kodeksining qoidalariga muvofiq bo'lmagan taqdirda, Soliq kodeksi qoidalari qo'llaniladi.

Xo'jalik sub'ektlari faoliyati bo'yicha davlat nazoratining tashkil etilishi mavzusi doirasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat (davlat tomonidan nazorat qilish vakolati berilgan organlar) tomonidan nazorat qilishning shakllari, turlari, prinsiplari va tartiblari o'rganiladi. Shu bilan birgalikda nazorat vakolatiga ega organlardan biri bo'lgan Davlat soliq

xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq nazorati shakllari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy xo'jalik faoliyati bo'yicha soliq tekshiruvlarini tashkil qilish shakllari va turlari o'rganiladi.

Yuqoridagilardan tashqari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati bo'yicha nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish va tekshirishlar reja-jadvalini shakllantirish tartiblari o'rganiladi.

Xo'jalik sub'ektlari moliya- xo'jalik faoliyatini xujjatli tekshiruvlarini tashkil qilish va o'tkazish tartiblari mavzusida bevosita xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish huquqiga ega organlar, ularning vakolatlari, tekshirish tartiblari, turlari va shakllari haqida bayon qilinadi. Bu mavzuda asosan soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlarining asosiy shakllaridan biri bo'lgan soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi)ni tashkil qilish va o'tkazish tartib qoidalari o'rganiladi.

Yuridik shaxslarning pul mablag'larini taftishdan o'tkazish tartiblari mavzusida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning pul mablag'larini taftishdan o'tkazish tartiblari, jumladan, kassa opretsiyalarini taftish qilish, kassani bank operatsiyalarini taftish qilish tartib qoidalari o'rganiladi.

Naqd pul bilan muomala qiluvchi xo'jalik sub'ektlari tomonidan savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish tartiblari mavzusi doirasida naqd pul bilan muomala qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tarkibi, naqd pulli hisob kitoblarni amalga oshirish, naqd pul mablag'larini inkasatsiya qilish tartib qoidalari, O'zbekiston Respublikasining savdo va xizmat ko'rsatish hamda ulgurji va chakana savdo tartib qoidalariga bog'liq me'yoriy huquqiy xujjatlari, ularda belgilangan normalar, plastik kartochkalar bilan savdo va xizmat ko'rsatish, soliq organlari tomonidan qisqa muddatli tekshirishlarni tashkil qilish va o'tkazish tartiblari, savdo va xizmat ko'rsatish tartib qoidalarini buzgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralari haqida fikrlar bayon etilgan.

Xo'jalik sub'ektlari faoliyatini tekshirilishi natijasida tayyorlanadigan tekshiruv materiallarini rasmiylashtirish tartiblari mavzusida esa soliq organlari tomonidan o'tkazilgan rejali va rejadan tashqari tekshirishlar natijalarini bo'yicha tekshirish dalolatnomalarini tuzish, ularni tegishli tartibda rasmiylashtirish tartib qoidalari haqida fikrlar bayon qilinadi.

Tekshiruv materiallarini shakllantirish va ro'yxatdan o'tkazish tartiblari hamda soliq huquqbuzarliklari bo'yicha ma'muriy amaliyot yuritish tartiblari mavzulari doirasida tekshiruv materiallari (dalolatnomalar)ni soliq organlarida ro'yxatdan o'tkazish, ularni o'rganish, natijalari bo'yicha qaror qilish tartiblarini, tekshiriluvchilarga talabnomalar hamda xo'jalik sudlariga taqdimnomalar kiritish tartiblari, ma'muriy va moliyaviy jarimalarni qo'llash tartib qoidalari yoritilib berilgan.

Yuqorida keltirilgan mavzular akademiya talabalariga soliq to'lovchilar faoliyatini to'liq nazorat qilib davlat byudjeti daromadlarini o'z vaqtida shakllanishini ta'minlashga xizmat qiladigan darajada bilim berilishini ta'minlaydi.

3. Soliq nazorati fanining davlat soliq xizmati organlari uchun mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni va roli

Mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish davrida soliqlar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar davlatning asosiy daromad manbasi hisoblanib, ularning o'z vaqtida to'g'ri hisoblanishi, davlat byudjetiga to'liq hamda o'z vaqtida o'tkazilishi ustidan soliq nazoratini amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Soliqlar va soliqqa tortish ixtisosligi talabalariga soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarning moliyaviy xo'jalik faoliyatini soliq qonunchiligiga rioya etish nuqtai nazardan nazorat qilishning huquqiy, uslubiy va tashkiliy asoslarini o'rganishlari lozim bo'ladi. Buning uchun esa talabalar soliq to'lovchilarga nisbatan soliq majburiyatining yuzaga kelishi, soliq nazorati, uning shakllari, turlari, nazorat qiluvchi vakolatli organlar, ularning huquqlari va majburiyatlari, tekshirish o'tkazish tartiblari, tekshirish natijalarida aniqlangan soliq qonunchiligi buzilish holatlari bo'yicha ma'muriy yoki moliyaviy jazo choralari qo'llash bo'yicha yetarli

darajada malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari lozim. Qolaversa mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlarining tadrijiy rivojlanishi va Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan soliq siyosatidagi ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish ushbu soha mutaxassislaridan chuqur iqtisodiy bilimga ega bo'lishni talab etadi.

Bu fanni to'liq o'zlashtirgan talaba soliq nazoratiga oid quyidagi bilimlarga ega bo'ladi va amaliy ko'nikmalar o'zlashtiradi:

- Soliq qonunchiligiga oid tekshiruvlarning nazariy, huquqiy, uslubiy va tashkiliy asoslarini;
- Xujjatli, nazorat tartibida va tezkor o'tkaziladigan tekshiruvlarning mohiyati va xususiyatlarini;
- Tekshiruv natijalari haqida shakllantiriladigan tekshiruv materiallarining tarkibi, ularni rasmiylashtirish tartiblarini;
- Tekshiruv materiallarini rasmiy ro'yxatdan o'tkazish, aniqlangan huquq buzilish xolatlari bo'yicha ma'muriy yoki jinoiy chora ko'rish va ularni bajarilishini nazorat qilish bilan bog'liq ishlarni yuritishni.
- Ma'muriy amaliyot yuritish bo'yicha soliq organlarining tekshiruv natijalari asosida rasmiylashtiriladigan xujjatlarni yuritish tartiblarini;
- Nazoratchi, taftishchi tekshiruvchi, va davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tushunchalarining amaliy tafsilotini;
- Nazorat qilish vakolati berilgan funksiyaviy bo'limlar va ularning vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini;
- Davlat soliq xizmatining inspektorlik lavozimlarida ishlayotgan xodimlarga mutaxassis sifatida qo'yiladigan talablarni.

4. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq nazoratini tashkil etishda soliq siyosatining tutgan orni

Ma'lumki, mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va tadbirkorlik uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratish hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib kelgan. Bu borada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni jonlantirish, tadbirkorlik sub'ektlarini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarning uzviy davomi sifatida 2011 yilni yurtboshimiz tomonidan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili»² deb e'lon qilinishi ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun zamin yaratdi hamda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbirkorlikka maksimal darajada yanada qulay biznes-muhit yaratish, xususiy mulkning ustuvorligini mustahkamlash, uni ishonchli kafolatlarini ta'minlash hamda tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish va rivojlantirishga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi PQ-1474 sonli Qaroriga muvofiq tasdiqlangan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili»ning Davlat dasturi qabul qilindi.

2011 yilning “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan Davlat dasturi tasdiqlandi, uning doirasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun bir qator imtiyoz va yengilliklar ko'zda tutilgan.

Jumladan:

- tadbirkorlik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatini nazorat qiluvchi organlar soni qisqartirildi;
- davlat boshqaruvi va ruxsat berish me'yorlari funksiyalarini qisqartirish, byurokratik cheklov va to'siqlarni olib tashlash, kichik biznes sub'ektlari tomonidan moliya-kredit va xomashyo resurslaridan, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar uchun davlat buyurtmalarini olishdan keng foydalanishni ta'minlash;
- ro'yxatga olish, qurilish va injener kommunikatsiyalariga ulanish, noturar-joy xonalar va

² Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. . – Toshkent.: Xalq so'zi gazetasi, 2010, 9 dekabr.

zarur yer maydonlarini ajratish masalalarida aniq choralar qabul qilish;

- soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyoz va yengilliklar berish, moliya, soliq va statistika organlari hisob tizimi va ularga hisobot topshirish tizimlarini takomillashtirish va bixillashtirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini axborot bilan ta'minlash, ularga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish masalalarida maslahat yordamini berish.

Davlat dasturi asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 apreldagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4296 sonli Farmonining e'lon qilinishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ushbu hujjatga ko'ra, yangidan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatidan o'tgandan boshlab 3 yil davomida rejali soliq tekshirishlaridan o'tkazilmaydi (ilgari birinchi 2 yil davomida edi)³. Ushbu tartib fermer xo'jaliklari faoliyatiga ham tegishli.

Bundan tashqari, ushbu hujjatga ko'ra, 2011 yilning 1 apreldan 2014 yilning 1 aprelegacha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshirayotgan, shuningdek, barqaror ishlab chiqarish sur'atlari va rentabellikni ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish ta'qiqlangan.

Mazkur Farmonga binoan 2011 yil uchun tasdiqlangan tekshirishlar rejasidan 801 korxonaga yoki kichik biznes sub'ektlarining umumiy sonidan 21 foizi chiqarib tashlandi.

Kichik biznes sub'ektlarini soliq tekshiruvidan o'tkazish muddatlarini aniq belgilash maqsadida, Farmon bilan ular faoliyatini soliq tekshiruvidan o'tkazish muddatlarining cho'zilishiga yo'l qo'ymaslik belgilangan bo'lib, u qonunchilikdagi tekshirishlar uchun ajratilgan maksimal muddat 30 kalendar kunidan oshmasligi qat'iy belgilangan.

Tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish soliq to'lovchi tomonidan topshirilgan hisobotlar orqali faqat kameral usulda amalga oshirilishi mumkinligi belgilangan. Ayni paytda hujjatli tekshiruvlar faqat o'z faoliyatida qonunchilikning buzilishiga yo'l qo'ygan soliq to'lovchilarda amalga oshirilishi lozim.

Shuni aytib o'tish muhimki, tekshirishlarni qisqartirish bo'yicha ishlar 2011 yilga qadar ham olib borilgan. O'tgan 2001-2010 yil davomida kichik biznes sub'ektlarini soliq tekshirishlari soni 68 foizga qisqardi.

1-jadval

Kichik biznes sub'ektlarini soliq tekshirishlari soni

Yillar	Barcha o'tkazilgan tekshirishlar soni	Shu jumladan	
		Rejaga ko'ra tekshirishlar	Rejadan tashqari tekshirishlar
2001	36028	31739	4289
2005	25748	19670	6078
2010	11367	4813	6554
2010 yilda 2001 yilga nisbatan farq	24661	26926	+ 2265
	68 %	85 %	153 %

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 12 maydagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 1529- sonli qarori bilan tadbirkorlik sub'ektlariga qo'shimcha yengilliklar

³ Aksiz soligiga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish, shuningdek byudjet xamda markazlashtirilgan mablaglar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bogliq tekshirishlar bundan mustasno;

berildi. Ushbu qarorga ko'ra, 2011 yilning 1 iyunidan boshlab, plastmassa, lok-bo'yoq mahsulotlari, maishiy kimyo va poyafzal ishlab chiqarish, yuk va yengil avtomobillar, avtobuslarni ta'mir qilish korxonalarida (ro'yxat bo'yicha jami 44 faoliyat turi) xodimlarning yillik o'rtacha eng ko'p miqdori 50tadan 100ga qadar ko'paytirildi.

Ushbu o'zgarish kichik korxonalarda ishlab chiqarish hajmini ishchilar sonini oshirish hisobiga yanada ko'paytirish imkonini beradi. Bundan tashqari, ilgari kichik korxonalar toifasiga kiritilmagan va yirik korxonalar sifatida faoliyat yuritgan xo'jalik sub'ektlariga soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimidan foydalanishni tanlash imkoni berildi.

Umumbelgilangan soliq to'lovchi sifatida har oyda byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha 12 ta hisobot o'rniga kichik biznes sub'ektlari har bir chorak yakuniga ko'ra faqat 4 ta hisobot topshiradigan bo'ldi. Shuningdek, kichik biznes sub'ektiga umumbelgilangan tartibda topshiriladigan 9 ta turli soliq va to'lovlar o'rniga chorakda bir marta yagona soliq to'lovini to'lash imkoniyati berilgan.⁴

Bundan tashqari, 2011 yilning 1 iyunidan boshlab, yangidan tashkil etilayotgan mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar uchun ta'sis jamg'armasi hajmi amaldagi eng kam ish haqining 50 baravaridan 40 baravarigacha pasaytirildi.

Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda ham quyidagi qo'shimcha imtiyozlar belgilangan:

- namunaviy ta'sis hujjatlari asosida ro'yxatdan o'tish;
- davlat boji stavkasini ilgari eng kam ish haqining ikki barobari miqdorida emas, balki bir barobari miqdorida olish;
- ta'sis hujjatlarini notarial tasdiqlangan holda taqdim etish talabi bekor qilingan.

Soliq tizimining shakllanishi va uni rivojlantirish zaruriyati, shuningdek, soliq menejmentini yo'lga qo'yish masalasi - mamlakatimizda erkinlashtirish strategiyasining muhim sharti sanaladi. Shu jihatdan olib qaraganda bugungi kunda, soliqlar va soliq tizimini nazariy jihatdan o'rganish va tahlil qilish, soliqlarni amaliyotda qo'llanilishi, xususan, soliq boshqaruvi, uning vazifalarini o'rganish hamda samarali tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

«... bunday iqtisodiy o'sish ko'p jihatdan iqtisodiyotda soliq yukini pasaytirishga qaratilgan va izchil amalga oshirilayotgan siyosat bilan bog'liq. Jumladan, 2010 yilda yuridik shaxslar uchun foyda solig'i 9 foizgacha, mikrofirmalar va kichik biznes uchun yagona to'lov 7 foizgacha tushirilgani buning amaliy tasdig'idir. Shu borada o'tgan yili Davlat budjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan oshirib, ya'ni 0,3 foiz profitsit bilan bajarilganini ta'kidlash zarur» - degan edi, - Prezidentimiz I.A.Karimov.⁵

Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi bandligini ta'minlash muhim rol o'ynaydi va Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatimizda iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash va tadbirkorlik uchun barcha qulay shart-sharoitlarni yaratish hamisha birinchi darajali ustuvor maqsad va vazifa bo'lib kelgan. Bu borada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni jonlantirish, tadbirkorlik sub'ektlarini yanada qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarning uzviy davomi sifatida 2011 yilni Yurtboshimiz tomonidan «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili»⁶ deb e'lon qilinishi ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun zamin yaratdi hamda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek: "Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini jadal yangilash

⁴ Qaror chiqqandan keyin kichik korxonalar toifasiga o'tganlar.

⁵ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: "O'zbekiston" 2011.

⁶ Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bagishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. - Toshkent.: Xals so'zi gazetasi, 2010, 9 dekabr.

biz uchun eng muhim ustuvor vazifa sifatida izchil davom ettiriladi. Mamlakatimizning barcha mintaqalarida biznesni rivojlantirish uchun yanada qulay ishchan muhit yaratish, tadbirkorlik, kichik va xususiy biznesga yanada keng erkinlik berish, byurokratik to'siq va g'ovlarni bartaraf etish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim".⁷

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda bozor iqtisodiyotining asosi bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini mustahkamlaydigan barqaror qonunchilik bazasi yaratilganini qayd etish zarur. O'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish bo'yicha qulay ishbilarmonlik muhiti hamda ishonchli huquqiy kafolatlar yaratildi.

O'tgan 2010 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish hisobidan 480 mingta yangi ish o'rni, shundan 60 foizdan ortig'i qishloq hududida tashkil etilganligi hamda ish bilan band aholining 74 foizdan ortig'i aynan shu sohada mehnat qilayotgani bu masalaning keng ahamiyatidan dalolat beradi.



So'nggi yillarda yagona soliq to'lovi stavkasini 2005 yildagi 13 foizdan 2011 yilda 6 foizgacha, yoki 2 barobardan ortiq kamaytirilishi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun katta imkoniyatlar berdi. Jumladan, 2000 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi kichik biznes sub'ektlari ulushi 30 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2010 yil yakuni bilan bu ko'rsatkich 52,5 foizga yetdi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha, birinchi navbatda, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, kooperatsiya aloqalarini kengaytirish, mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki talabni rag'batlantirish masalalariga keng e'tibor berilmoqda. Jumladan, mazkur yo'nalishda quyidagilarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilgan:

1. Soliq yukini yengillashtirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish bo'yicha xo'jalik tuzilmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida tegishli choralar ko'rish;
2. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida korxonalarining byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan hamda joriy kreditor qarzdorligini qayta ko'rib chiqish;
3. Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish.

⁷ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T: Uzbekiston. 2011 y.

Respublikamizda soliq yukini pasaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini muayyan sohalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi yillarda qator qo'shimcha soliq imtiyozlari va preferensiyalar berildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni moliyalashtirishning, aholi bandligi va farovonligini oshirishning muhim vositasi sifatida mikromoliyalash sohasini rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1501-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga muvofiq quyidagilar belgilandi:

-Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi resurslari hisobidan kredit berishdan olinadigan tijorat banklarining daromadlari bo'shaydigan mablag'larni mazkur jamg'armaning resurs bazasini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan yuridik shaxslar foydasidan to'lanadigan soliqdan 2011 yil 1 apreldan boshlab 2016 yilning 1 yanvarigacha ozod etildi.

- Tijorat banklarining imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi mablag'lari asosan olis va yetib borish qiyin bo'lgan tumanlarda, shuningdek mehnat resurslari keragidan ortiq bo'lgan tumanlar hamda shaharlardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohalarida, ishlab chiqarish mikrofirmalari, kichik korxonalar, dehqon hamda fermer xo'jaliklarida yuqori texnologik va innovatsion loyihalarni moliyalash uchun ajratilishi belgilab qo'yildi.

"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" Davlat dasturiga muvofiq hamda tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlantirish uchun qo'shimcha qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish va xarajatlarini kamaytirish maqsadida, 2011 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 1529-sonli Qaror qabul qilindi. Ushbu Qarorga ko'ra, 2011 yil 1 iyundan xodimlarining yillik o'rtacha soni 50 kishidan 100 kishigacha ko'paytiriladigan kichik korxonalarining faoliyat turlari belgilab berildi.

Shuningdek, 2011 yil 1 iyundan quyidagicha tartib belgilandi:

-yangi tashkil qilinayotgan mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar ustav fondining eng kam hajmi davlat ro'yxatidan o'tish uchun hujjatlar taqdim etilgan sanada qonunchilikda belgilangan eng kam ish haqi miqdorining qirq baravaridan kam bo'lmasligi kerak;

-tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish ularning arizasiga ko'ra namunaviy ta'sis hujjatlari asosida amalga oshirilishi mumkin;

-tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish bo'yicha tegishli inspeksiyalarda tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun to'lanadigan davlat boji stavkasi eng kam ish haqi miqdorining bir baravariga tengdir;

-tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishda notarial tarzda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarini taqdim etish haqidagi talab bekor qilinadi, xorijiy investitsiyali korxonalar va chet el sarmoyasi ishtirokidagi boshqa korxonalar bundan mustasno.

Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash, bozor islohotlarini liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'lidan jadal harakat qilish, tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi to'siq va g'ovlarni bartaraf etish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ulushini oshirish, eksport salohiyatini rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini ta'minlash maqsadida, 2011 yil 24 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ish bilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-4354-sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu Farmonga ko'ra, Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, idoralar, xo'jalik birlashmalari, tijorat banklari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat, shahar va tumanlar hokimliklarining muhim vazifalari deb quyidagilar belgilandi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lidagi ortiqcha byurokratik to'siq va g'ovlarga barham berish, davlat boshqaruvi funksiyalarini qisqartirish va tadbirkorlikka ko'proq erkinlik berish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish, davlat boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshirilayotgan turli ruxsat berish me'yorlari hamda cheklash tartiblarini keskin qisqartirish;

- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining davlat boshqaruvi idoralari, soliq va nazorat tuzilmalari bilan o'zaro munosabatlarida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, hisobotlar tizimi hamda moliya, soliq va statistika idoralariga hisobotlarni topshirish mexanizmini ularni elektron tizim bo'yicha taqdim etishga bosqichma-bosqich o'tish orqali tubdan soddalashtirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga soliq, bojxona hamda boshqa to'lovlar bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga ko'maklashadigan qo'shimcha imtiyoz hamda preferensiyalar berish;


- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tijorat banklari bilan o'zaro hamkorlik mexanizmini yanada takomillashtirish va soddalashtirish, tadbirkorlik sub'ektlariga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, ularga ajratilayotgan kreditlar, birinchi navbatda, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga, mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga va texnologik yangilashga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlar hajmini ko'paytirish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatda keng ishtirok etishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning mahsulotlarini tashqi bozorlarga olib chiqishga ko'maklashish, eksport shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonini hamda umuman bojxona ma'muriyatchiligini soddalashtirish va liberallashtirish.

Shuningdek, Farmon bilan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi huquqiy me'yorlar va imtiyozlar belgilandi:

-Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining barcha darajadagi davlat boshqaruvi idoralari, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari, tijorat banklari bilan o'zaro munosabatlarida tadbirkorlar huquqlari ustuvorligi prinsipiga amal qilinadi, ya'ni, unga muvofiq, me'yoriy-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha ziddiyatlar va noaniqliklar tadbirkorlar foydasiga talqin etiladi;

-2012 yilning 1 yanvaridan sanoat sohasidagi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasi 6 foizdan 5 foizga kamaytiriladi.



Farmonga ko'ra, 2011 yilning 1 oktabridan quyidagi tartiblar joriy etildi:

- soliqlar, bojxona bojlari va yig'implari, shuningdek, boshqa majburiy to'lovlarni to'lash muddatlarini buzganlik uchun penya miqdori kechiktirilgan har bir kun uchun penyani hisoblash tartibi saqlangan holda, amaldagi miqdoriga nisbatan uchdan bir qismga kamaytiriladi;

- yuridik shaxslar tekshiruvlar natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni, shuningdek, moliyaviy sanksiyalarni undirish to'g'risida qaror qabul qilingan kundan boshlab olti oy mobaynida teng ulushlarda to'lash huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi bilan birgalikda barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini 2014 yilning oxirigacha soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga bosqichma-bosqich o'tkazishni ta'minlash maqsadida:

- 2011 yil 1 sentabrdan kichik biznes sub'ektlaridan tijorat banklarida milliy valyutada hisobraqami ochganlik uchun to'lov undirishni bekor qilindi;

- tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining kelishilgan hajmda kreditlar ajratish haqidagi arizalarini ko'rib chiqish muddatini uch bank kundan oshmaydigan muddat bilan cheklandi;

- xo'jalik sub'ektlari tomonidan savdo va servis sohasida xarid qilinadigan tovar (ish, xizmat)lar uchun korporativ plastik kartalaridan foydalangan holda to'lovlarni amalga oshirishda to'lov terminallari cheklarini birlamchi buxgalterlik hujjatlariga tenglashtirildi;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga bank muassasalariga eng kam ish haqining yigirma barobari miqdorigacha bo'lgan naqd pul tushumini mustaqil topshirish huquqi berildi;

- mikrofirmalar va kichik korxonalar o'zi ishlab chiqargan tovar (ish, xizmat)larni eksport qilishdan tushadigan valyuta tushumining 50 foizini majburiy sotishdan ozod etildi.

“Markazsanoateksport” davlat aksiyadorlik tashqi savdo kompaniyasi qoshida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha “O'ztdabirkoreksport” ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasini tashkil etiladigan va **2011 yilning oxirigacha** respublika hududlarida uning vakolatxonalarini ochiladigan bo'ldi.

Xo'jalik sub'ektlari o'rnatilgan texnologik uskunalarga Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha respublika hududiga olib kelinadigan ehtiyot va butlovchi qismlar uchun **2016 yilning 1 yanvarigacha** bojxona to'lovlarini (bojxona rasmiylashtirish yig'implari bundan mustasno) to'lashdan ozod etildi.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi qonunchilik hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari loyihalarini O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritilishi belgilandi:

- yuridik shaxslar uchun soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblash bilan bog'liq bo'lmagan sanksiyalarni bekor qilish, ayni paytda takroriy qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan xo'jalik sub'ektlarining mansabdor shaxslarining ma'muriy javobgarligini ikki barobarga oshirish;

- bojxona nazorati muddatini uch yil bilan cheklash, shuningdek, tovarlar bojxona nazoratidan o'tkazilgandan bir yil keyin, bojxona to'lovlarini qo'shimcha hisoblashni taqiqlash.

Xususiy mulkchilikni rivojlantirish yo'lida ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda tadbirkorlik faoliyati ko'lamini kengaytirish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni ko'paytirishda kichik biznes sub'ektlarining faol ishtirok etishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 24 avgustdagi “Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-1604-sonli Qaroriga muvofiq quyidagilar belgilandi:

1. Hukumat qarorlari bilan belgilangan tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berishga doir 1-ilovaga muvofiq hujjatlarning amal qilishi 2011 yil 1 sentabrdan boshlab bekor qilindi.

Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan ruxsatnomalar va ruxsat berish tartibotlarini yangi turlarini joriy etish taqiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Adliya vazirligi ishtirokida bir oy muddatda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni puxta xatlovdan o'tkazsin hamda bozor islohatlarini yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni liberallashtirishga doir zamonaviy shart-sharoit va talablarga javob bermaydigan, tadbirkorlik faoliyati erkinligini cheklaydigan ruxsat berish tartibotlarini bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilindi.

2011 yil 1 oktabridan boshlab quyidagi tartiblar belgilandi:

- kichik sanoat ishlab chiqarishlarni joylashtirish uchun yer uchastkalarini ajratishga doir murojatlarni vakolatli organlar tomonidan ko'rib chiqish va kelishish muddati bir oydan oshmasligi cheklab qo'yildi;

-mahalliy davlat hokimiyati organlari O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi bilan birgalikda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining davlat mulki bo'lgach, vaqtincha bo'shab yotgan va ishlatilmaydigan xonalarni ularda ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirish uchun ijaraga berish bo'yicha murojaatlarini 7 kun mobaynida ko'rib chiqilishini ta'minlash majburiyligi;

-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, shu jumladan ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilish uchun zarur bo'lgan ruxsat etuvchi hujjatlarni berish "bir darcha" tamoyili bo'yicha amalga oshiriladi, bunda vakolatli davlat organlari ularni zarur hollarda kelishishni ta'minlash vazifasi yuklatildi;

-ruxsat etuvchi hujjatlarni berish muddati tadbirkorlik sub'ektlari ariza bergan vaqtdan boshlab, 30 ish kunidan oshmagan holda chegaralanadi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan alohida xususiyatli faoliyat turlari bundan mustasno.

Mazkur Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi Iqtisodiyot vazirligi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi, boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tadbirkorlik sub'ektlari uchun ishlab chiqarish ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilishga doir hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan tartibotlarni tubdan soddalashtirish va arzonlashtirish bo'yicha aniq takliflarni 2011 yil 1 oktabrigacha Vazirlar Mahkamasiga kiritish belgilab qo'yildi.

2011 yilning 1 oktabridan boshlab tovarlar, ishlar va xizmatlarni eksport qiluvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun davlat bojxona xizmati organlarida eksport kontraktlarini hisobga qo'yish tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvini jarayonida bevosita bojxona postlarida amalga oshirilishi belgilandi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 10 oktabrdagi PF-1871-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatga muvofiq xom ashyo tovarlari eksportidan tashqari).

2011 yil 1 oktabrdan boshlab tajriba tariqasida, eksportga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan tartibotlarni bojxona rasmiylashtiruvini, deklaratsiya qilish, sertifikatlashtirish, sanitariya-epidemiologiya nazorati va tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvini jarayonida qatnashadigan boshqa tashkilotlar faoliyatini bir vaqtning o'zida amalga oshirilishini ta'minlaydigan "bir darcha" tamoyili asosida bajarish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish belgilandi.

Mazkur Qarorga muvofiq, tovarlarni eksport qilishda to'lanadigan bojxona rasmiylashtiruvini yig'inlarining amaldagiga qaraganda o'rtacha 2 marotabaga kamaytirishni nazarda tutuvchi yangi stavkalari quyidagicha belgilandi:

Bojxona rasmiylashtiruvini uchun:

➤ "eksport" bojxona rejimidagi tovarlar va transport vositalari uchun bojxona qiymatidan 0,1 foiz, biroq eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda;

➤ "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimidagi tovarlar uchun tovarlarni qayta ishlash xizmatlari qiymatidan 0,1 foiz, biroq eng kam ish haqining 50 foizidan kam bo'lmagan miqdorda;

➤ "Eksport" bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarning bojxona rasmiylashtiruvini xodim tomonidan buni rasmiylashtirish joyidan boshqa joyda amalga oshirish (bir xodimning bir soat ishlashi uchun) uchun eng kam ish haqi miqsorining 10 foizi.

Shuningdek, Qarorga muvofiq, 2011 yil 1 sentabrdan boshlab tadbirkorlik faoliyati sohasida ruxsat berishga doir Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilan belgilangan 50 ta hujjatlarning amal qilishi bekor qilindi. Jumladan, yer uchastkalaridan foydalanish sohasida; yer ostidan foydalanish sohasida; tabiatdan foydalanish sohasida; ishlab chiqarish sohasida tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida; avtomobil, temir yo'l, daryo va havo transporti sohasida; savdo va umumiy ovqatlanish sohasida va boshqa sohalarda turli xil ruxsat olish tartibotlari bekor qilindi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tovarlarini eksport qilish bo'yicha «O'z tadbirkoreksport» ixtisoslashtirilgan tashqi savdo kompaniyasining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ularning tovarlarini to'g'ridan-to'g'ri eksport qilish shartnomalari bo'yicha, shuningdek xorijda tashkil etiladigan savdo uylari orqali sotishda ko'maklashish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mahsulotlarini eksport qilishga doir amaldagi shartnomalar garovi asosidan eksportdan oldingi moliyalashtirishni tashkil etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari buyurtmalariga ko'ra respublikada ishlab chiqarilmaydigan texnologik asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, xom ashyo va materiallarni yetkazib berish;

-eksport mahsulotlarini sertifikatlashtirishda kichik biznes korxonalariga ko'maklashish, reklama tadbirlarini o'tkazish, xalqaro yarmarkalar va ko'rgazmalarni tashkil etish va qatnashish, manfaatdor kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini axborot va maslahat xizmatlari bilan ta'minlash.

«O'z tadbirkoreksport» kompaniyasi quyidagilardan ozod etildi:

➤ kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni eksportga sotishdan tushgan xorijiy valyutaning bir qismini majburiy sotishdan, bunda ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari buyurtmalariga ko'ra respublikada ishlab chiqarilmaydigan yangi texnologik asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, xom ashyo va materiallarni xarid qilishga maqsadli yo'naltiriladi;

➤ kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari buyurtmalariga ko'ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kelinadigan yangi texnologik asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, butlovchi buyumlar, xom ashyo va materiallar yuzasidan bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruv yig'imlaridan tashqari) to'lashdan;

➤ «O'z tadbirkoreksport» kompaniyasiga o'z mahsulotini eksport qiluvchi korxonalar uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan soliq imtiyozlari va preferensiyalari ham tadbiiq etiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yuqorida ta'kidlangan Farmon va Qarorlarning qabul qilinishi va ijtimoiy hayotga tatbiq etilishi, o'z navbatida, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yurtimiz iqtisodiyotidagi ulushini yanada ko'payishiga, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga, tadbirkorlik faoliyati erkinligini va ko'lamini yanada oshirishga, tadbirkorlik sub'ektlarida soliq tekshiruvlarini qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish hamda nazorat organlarining tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini yanada kamayishiga, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish va mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni ko'paytirishda kichik biznes sub'ektlarining faol ishtirok etishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari

- 1.Soliq nazoratining ob'ektiv zarurligi nimada?
- 2.Soliq nazoratini qanday turlarga ajratish mumkin?
- 3.Soliq nazoratini amalga oshirishning davlat manfaatlari bilan qanday aloqadorlik tomonlari mavjud?
- 4.Soliq nazoratining qanday ko'rinishlari mavjud?
- 5.Soliq nazoratini amalga oshirish qaysi vakolatli organga yuklatilgan?
- 6.Byudjet barqarorligi bilan jamiyat rivojlanishining qanday o'zaro bog'liqlik tomonlari mavjud?
- 7.Tezkor nazorat bilan davriy nazoratning qanday farqli jihatlari mavjud?
8. Soliq nazorati bilan soliq monitoringining o'xshashlik tomonlari nimada?

2. Soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinish nazoratining huquqiy asoslari.

Reja:

1. O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining qonun xujjatlari va ularning mohiyati.
2. O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar.
3. Soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari.
4. Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari, huquqlari va majburiyatlari.
5. Davlat soliq xizmati organlarining boshqa organlar bilan hamkorlikda soliq nazoratini amalga oshirilishi.

Tayanch so'z va iboralar:

- | | |
|----------------------------------|------------------------|
| 1. Soliq majburiyati | 6. Soliq kodeksi |
| 2. Huquq | 7. Vakolat |
| 3. Soliq qonunchiligi hujjatlari | 8. Soliqlar |
| 4. Soliq | 9. Yig'imlar |
| 5. Majburiyat | 10. Majburiy to'lovlar |

1. O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining qonun xujjatlari va ularning mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi soliq to'g'risidagi qonun xujjatlari O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksidan va boshqa qonun hujjatlaridan iborat.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar Soliq Kodeksi bilan belgilanadi, o'zgartiriladi yoki bekor qilinadi.

Soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar Soliq kodeksi qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak. Normativ-huquqiy hujjatlar Soliq kodeksining qoidalariga muvofiq bo'lmagan taqdirda, Soliq kodeksi qoidalari qo'llaniladi.

Soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjat quyidagi hollarda Soliq kodeksiga muvofiq emas deb topiladi, agar hujjat:

1) Soliq kodeksiga muvofiq bunday hujjatni qabul qilish huquqiga ega bo'lmagan organ tomonidan qabul qilingan bo'lsa yoki normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilishning belgilangan tartibi buzilgan holda qabul qilingan bo'lsa;

2) soliq munosabatlari sub'ektlarining huquqlarini bekor qilsa yoki cheklasa, soliq munosabatlari sub'ektlarining Soliq kodeksida belgilangan majburiyatlarining mazmunini, ular harakatlarining asoslari, shartlari, ketma-ketligi yoki tartibini o'zgartirsa;

3) Soliq kodeksida bilan taqiqlangan harakatlarga ruxsat bersa yoki yo'l qo'ysa;

4) Soliq kodeksida belgilangan tushunchalar mazmunini o'zgartirgan yoki bu tushunchalar Soliq kodeksida qo'llanilganidan boshqacha ma'noda qo'llanilgan bo'lsa.

Soliq kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni qabul qilgan organ yoki uning yuqori turuvchi organlari mazkur hujjatni bekor qilishga yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishga haqli. Bu organlar Soliq kodeksiga muvofiq bo'lmagan normativ-huquqiy hujjatni bekor qilishni yoki unga zarur o'zgartishlar kiritishni rad etgan taqdirda, bu hujjat sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimini tartibga soluvchi yagona xujjat bu O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksidir. O'zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksi 2007 yil 23 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2007 yil 30 noyabrda Senat tomonidan ma'qullangan hamda 2007 yil 25 dekabrda O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksini tasdiqlash to'g'risida»gi №136-sonli qonuni bilan qabul qilingan va ushbu qonunga ko'ra O'zbekiston Respublikasining yangi Soliq kodeksi 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilash, joriy etish, hisoblab chiqarish hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'lash bilan bog'liq munosabatlarni, shuningdek soliq majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi.

O'zbekiston Respublikasining "Me'yoriy-huquqiy xujjatlar to'g'risida"gi qonuniga asosan amalda bo'lgan me'yoriy –huquqiy xujjatlar ketma–ketligi quyidagilardan iborat:


- O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi Qonunlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi hukumati Qarorlari;
- O'zbekiston Respublikasi vazirlik va qo'mitalarining me'yoriy-huquqiy xujjatlari;
- Mahalliy hokimiyat idoralari me'yoriy xujjatlari.

Demak, mazkur qonundan kelib chiqqan holda soliq to'g'risidagi qonun xujjatlari orasida eng yuqori turuvchi xujjat Soliq kodeksi ekanligini anglash mumkin bo'ladi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikni bekor qiladigan yoki yengillashtiradigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni bekor qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar stavkalarini kamaytirish, soliq to'lovchilarning majburiyatlarini bekor qilishni yoki ularning ahvolini boshqacha tarzda yengillashtirishni nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari orqaga qaytish kuchiga ega bo'lishi mumkin.

Soliq solish soliq majburiyatlari yuzaga kelgan paytda amalda bo'lgan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.



Yangi soliqlar yozlar to'liq yoki qisman bekor qilinishini, soliq solinadigan baza oshirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari ular rasmiy e'lon qilingan paytdan e'tiboran kamida uch oy o'tgach, amalga kiritiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari o'zgartirilishini nazarda tutuvchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin e'lon qilinishi kerak va ular rasmiy e'lon qilingan oydan keyingi hisobot davrining birinchi kundan e'tiboran amalga kiritiladi.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.


Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining qoidalari Soliq kodeksida belgilangan prinsiplarga zid bo'lishi mumkin emas.

Soliq solishning majburiyligi prinsipi

Har bir shaxs Soliq kodeksida belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi shart.

Hech kimning zimmasiga Soliq kodeksida nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.



Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq biladigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilashda, agar Soliq kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari aniqlangan bo'lishi kerak.

Soliq solishning adolatlilik prinsipi

Soliq solish umumiydir.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.

Soliq tizimining yagonaligi prinsipi

Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraligi prinsipi

Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart. Barchaning e'tibori uchun rasmiy e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun biron bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.

Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilinadi.

2. O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan soliqlar va yig'implar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliqlar deganda Soliq kodeksida belgilangan, muayyan miqdorlarda undiriladigan, muntazam, qaytarib berilmaydigan va beg'araz xususiyatga ega bo'lgan, byudjetga yo'naltiriladigan majburiy pul to'lovlari tushuniladi.

Boshqa majburiy to'lovlar deganda Soliq kodeksida belgilangan davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy pul to'lovlari, bojxona to'lovlari, shuningdek vakolatli organlar hamda mansabdor shaxslar tomonidan yuridik ahamiyatga molik harakatlarni to'lovchilarga nisbatan amalga oshirish uchun, shu jumladan muayyan huquqlarni yoki litsenziyalar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni berish uchun to'lanishi lozim bo'lgan yig'implar, davlat boji tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi.

Soliqlarga quyidagilar kiradi:

- 1) yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- 2) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 3) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 4) aksiz solig'i;
- 5) yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- 10) jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq.


u uchun olinadigan soliq.

Boshqa majburiy to'lovlarga quyidagilar kiradi:

- 1) ijtimoiy jamg'armalarga majburiy to'lovlar:
yagona ijtimoiy to'lov;
fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- 2) Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy to'lovlar:
Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
Respublika yo'l jamg'armasiga yig'implar;
- 3) davlat boji;
- 4) bojxona to'lovlari;
- 5) ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im.

Soliq kodeksida belgilangan hollarda va tartibda soliq solishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan quyidagi soliqlar qo'llanilishi mumkin:

- yagona soliq to'lovi;
- yagona yer solig'i;
- tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq.



Davlat umummilliy dasturlarini amalga oshirish davrida tegishli jamg'armalar tashkil etilishi mumkin bo'lib, ularga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda majburiy to'lovlar belgilanadi. (SK. 3 bob. 23-modda)

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq to'lovchilar, shuningdek ushbu soliq yoki boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar belgilab qo'yilgan taqdirdagina belgilangan deb hisoblanadi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari quyidagilardir:

- soliq solish ob'ekti;
- soliq solinadigan baza;
- stavka;
- hisoblab chiqarish tartibi;
- soliq davri;
- soliq hisobotini taqdim etish tartibi;

to'lash tartibi.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, soliq yoki boshqa majburiy to'lov belgilanayotganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq imtiyozlari, shuningdek ularning soliq to'lovchi tomonidan qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Soliq to'lovchilar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari har bir soliq yoki boshqa majburiy to'lovga tatbiqan belgilanadi.

Soliq solish ob'ekti

Soliq solish ob'ekti soliq to'lovchida soliq yoki boshqa majburiy to'lov hisoblab chiqarilishi va (yoki) to'lanishi yuzasidan majburiyat keltirib chiqaruvchi mol-mulk, harakat, harakat natijasidir.

Soliq solinadigan baza

Soliq solinadigan baza soliq solish ob'ektining soliq yoki boshqa majburiy to'lovning stavkasi tatbiqan belgilangan ko'rsatkichlardagi qiymat, miqdor, fizik va boshqa tavsiflarini ifodalaydi.

Stavka

Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi.

Hisoblab chiqarish tartibi

Soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish tartibi soliq davri uchun soliq solinadigan bazadan, stavkadan, shuningdek imtiyozlar mavjud bo'lsa, shu imtiyozlardan kelib chiqib, soliq va boshqa majburiy to'lov summasini hisoblash qoidalarini belgilaydi.

Soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda, soliq va boshqa majburiy to'lovni hisoblab chiqarish majburiyati davlat soliq xizmati organi yoki soliq agenti zimmasiga yuklatilishi mumkin.

Soliq davri

Soliq davri u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir.

Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi.

Joriy to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan davr hisobot davri bo'lmaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar

Soliq kodeksida, boshqa qonunlarda va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida nazarda tutilgan, boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan ayrim toifadagi soliq to'lovchilarga beriladigan afzalliklar, shu jumladan soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lov to'lamaslik yoxud ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar deb e'tirof etiladi.

Mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlarni berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Soliq to'lovchi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e'tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar bo'shagan mablag'larni muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan

berilishi mumkin. Bunday mablag'lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda byudjetga undirib olinadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi bosh boshqarmalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muassasalari Soliq kodeksida nazarda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi, yagona ijtimoiy to'lov bundan mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 16 iyuldagi PF-4453-sonli va 18 iyuldagi PF-4455-sonli Farmonlariga oid ma'lumot.

Prezidentimiz tashabbuslari bilan mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik sub'ektlariga yuqori darajada qulay shart-sharoitlarni yaratish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, tadbirkorlik sub'ektlariga ko'maklashish va ularning huquqiy erkinligini oshirish borasida qator choralar ko'rilmogda.

2012 yilning o'zida fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi, ular uchun qulay sharoitlar yaratilishi hamda tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator Qonunlar, Prezidentimizning Farmon va Qarorlari qabul qilindi:

- «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonunning yangi tahriri;
- «Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida»gi Qonun;
- Prezidentimizning 2012 yil 10 apreldagi «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 4434-sonli Farmoni;
- Prezidentimizning 2012 yil 10 maydagi «2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida»gi 1754-sonli Qarori shular jumlasidandir.

Tahlillarga ko'ra, oxirgi 5 yil davomida soliq imtiyozlaridan foydalangan tadbirkorlik sub'ektlari ixtiyorida qoldirilgan mablag'lar miqdori qariyb 2,6 trln.so'mga (2007 y. 1,6 trln.so'm, 2011 y. 4,1 trln. so'm) yoki 2,6 barobarga oshganligi Davlatimiz tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashga jiddiy e'tibor qaratilayotganidan dalolat beradi.

O'tgan 2011 yilda soliq imtiyozlaridan foydalangan korxonalar soni 43,3 mingtani tashkil etib, ularning ixtiyorida 4,1 trln.so'm mablag'lar qoldirilgan bo'lsa, shundan 38 foizi sanoat, 29 foizi transport va aloqa, yaqin 10 foizi xizmat ko'rsatish va 23 foizi boshqa soha korxonalarini hisobiga to'g'ri keladi.

Bugungi uchrashuvimizda Yurtboshimizning yaqinda qabul qilingan 2 ta Farmonlari asosida tadbirkorlik sub'ektlari uchun yaratilgan yangi imkoniyatlarni yaqindan tanishtirib o'tishdan iborat.

2012 yilning 16 iyul kuni Prezidentimizning «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4453-sonli Farmoni qabul qilindi.

Farmon bilan nafaqat kichik biznes, balki barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun yengilliklar joriy etildi.

Bunga asosan, 2012 yilning 3-choragidan boshlab, yirik korxonalar uchun 2 ta moliyaviy hisobot shakllari, ya'ni Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot (3-shakl) hamda Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnoma (2a-shakl), kichik korxonalar uchun 1 ta – Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnoma (2a-shakl) bekor qilindi.

Shuningdek:

- 2012 yil iyul oyidan boshlab, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan doimiy ravishda talab qilib kelinayotgan 50 turdagi, hisobotlar bekor qilindi;

Jumladan, soliq organlariga – 25 ta, Aloqa va axborotlashtirish agentligiga – 10 ta, Iqtisodiyot vazirligiga – 4 ta, Davlat bojxona qo'mitasiga – 3 ta, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat mulkini boshqarish qo'mitasi, Qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish markaziga – 2 tadan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi hamda Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligiga 1 tadan taqdim etib kelingan

hisobotlar bekor qilindi.

- 2012 yil 1 avgustdan 80 turdagi ruxsat beruvchi tartiblar va 11 ta litsenziyalanadigan faoliyat turlari bekor qilindi;

Xususan, ruxsat beruvchi tartiblardan:

- tashqi iqtisodiy faoliyat va bojxona ishi sohasida 14 tasi;
- avtomobil, temir yo‘l, daryo va havo transporti sohasida 12 tasi;
- kapital qurilish sohasida 10 tasi;
- yer qa‘ridan foydalanish sohasida 10 tasi;
- bank ishi, qimmatli qog‘ozlar bozori, birja savdosi va sug‘urta faoliyati sohasida 8 tasi;
- atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasida 6 tasi;
- madaniyat va sport sohasida 5 tasi;
- ishlab chiqarish sohasida 4 tasi;
- savdo sohasida 3 tasi;
- boshqa sohalarda 8 tasi bekor qilindi.

Litsenziyalanadigan faoliyat turlaridan:

- qimmatbaho metallar va toshlardan zargarlik buyumlari tayyorlash;
- tarkibida qimmatbaho va rangli metallar, qimmatbaho toshlar bo‘lgan ikkilamchi resurslar va chiqitlarni tayyorlash hamda qayta ishlash;

- audiovizual asarlar, fonogrammalar va EHM uchun yaratilgan dasturlar uchun moddiy jismlarni ishlab chiqarish;

- mahalliy va xalqaro havo yo‘nalishlari bo‘yicha yo‘lovchilarni hamda yuklarni tashish;
- aviatsiya ishlarini bajarish;

- yagona energetika tizimiga ulanadigan statsionar elektr stansiyalarida elektr energiyasi ishlab chiqarish;

- jangovar zaharlovchi moddalardan himoyalash vositalarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilish;

- yo‘lovchilar va yuklarni daryo transportida tashish;

- shaxsiy radiochaqiruv tarmoqlarini loyihalashtirish, qurish, ulardan foydalanish va ularga xizmat ko‘rsatish;

- o‘lchash vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish va prokatga berish;
- energetika tekshiruvlari va ekspertizalar o‘tkazish.

- 2013 yil 1 yanvardan boshlab, 65 turdagi statistik hisobotlar bekor qilinishi belgilab qo‘yildi.

Muhim yangiliklardan yana biri, 2013 yildan e‘tiboran 12 turdagi soliq hisobotlari, 11 turdagi statistik, shuningdek 2012 yil 3-chorakdan 12 turdagi statistik va 20 turdagi boshqa hisobotlarni taqdim etish davriyligi qisqartirilishi belgilandi.

Taqdim etish davriyligi qisqartirilgan soliq hisobotlari to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak:

- quyidagi 8 ta soliq hisobotlari barcha soliq to‘lovchi yuridik shaxslar tomonidan chorakda bir marotaba taqdim etilishi belgilandi:

- yagona soliq to‘lovi hisob-kitobi;
- yagona soliq to‘lovining hisob-kitob ma‘lumotnomasi;
- qo‘shilgan qiymat solig‘i hisob-kitobi;
- aksiz solig‘i hisob-kitobi;
- yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi;
- yagona ijtimoiy to‘lov va fuqarolarning Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallari hisob-kitobi;

• Pensiya jamg‘armasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi, Ta‘lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta‘mirlash va jihozlash jamg‘armasiga majburiy ajratmalar hisob-kitobi;

• jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq hisob-kitobi.

- quyidagi 4 ta soliq hisobotlari barcha soliq to‘lovchi yuridik shaxslar tomonidan yilda

bir marotaba taqdim etilishi belgilandi:

- jismoniy shaxslarga hisoblangan daromadlar rasshifrovkasi;
- jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari rasshifrovkasi;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobi.

Bundan tashqari, 2013 yil 1 yanvardan boshlab, soliq organlariga taqdim etiladigan 11 turdagi soliq hisobotlari va boshqa ma'lumotlarni birlashtirib, 5 taga tushirilishi belgilandi.

Jumladan, foyda solig'i bilan obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i, yagona ijtimoiy to'lov bilan fuqarolarning byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali, shuningdek byudjetdan tashqari Pensiya, Yo'l hamda Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar bo'yicha hisobot shakllari birlashtirildi.

Shuningdek, 4 ta faoliyat turlari bo'yicha litsenziyalar cheklanmagan muddatga beriladigan bo'ldi va 10 ta litsenziyalanadigan faoliyat turlari birlashtirilib, 6 taga tushirildi.

Masalan, nashriyot faoliyati, qurilish loyihalarini ekspertizadan o'tkazish, arxitektura-shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish faoliyatlari uchun litsenziyalarni cheklanmagan muddatga berilishi shular jumlasidandir.

Yana bir masala, 2013 yil 1 yanvardan boshlab:

- qo'shimcha foyda solig'idan tashqari, barcha soliq turlari va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha oyma-oy soliq hisobotini taqdim etish bekor qilinishi;

- mikrofirmalar yillik statistik hisobot taqdim etishi, bunda statistika organlari har chorakda tegishli faoliyat yo'nalishlari va sohalari bo'yicha tanlanma o'rganishlar o'tkazishi belgilab qo'yildi.

Eng muhim masala, Farmon bilan 2014 yilning oxiriga qadar barcha tadbirkorlik sub'ektlari statistik, soliq va moliyaviy hisobotlarni topshirishning elektron tizimiga to'la hajmda bosqichma-bosqich o'tishi belgilandi.

Raqamlarga murojaat qiladigan bo'lsak, Respublika bo'yicha 2012 yilning 1 avgust holatiga hisobot taqdim etish majburiyatiga ega korxonalarining 88 foizi soliq idoralariga hisobotlarni elektron ko'rinishda taqdim etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 barobarga ko'payishiga erishildi.

O'ylaymizki, qolgan tadbirkorlik sub'ektlari ham 2014 yilning yakunini kutmasdan hisobotlarni elektron ko'rinishda taqdim etishga harakat qiladilar.

Yuqorida e'tirof etilgan Farmondan tashqari, 2012 yil 18 iyulda Prezidentimizning «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4455-sonli Farmonlari qabul qilindi.

Ushbu Farmonda ta'kidlanganidek, mamlakatimizda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiya qilish, ishbilarmonlik muhitini shakllantirish darajasini oshirish evaziga bir qator ko'rsatkichlarga erishilmoqda.

Natija shuni ko'rsatadiki, 2000 yil bilan taqqoslaganda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 31 foizdan 54 foizgacha ko'paydi, ushbu sohada mehnat bilan band bo'lganlar soni shu davr ichida 2 barobardan ko'proq oshdi.

Hozirgi vaqtda yalpi ichki mahsulotning 82,5 foizi, sanoat mahsulotining 91 foizi va qishloq xo'jaligining deyarli barcha mahsuloti nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda.

Shu bilan birga, ishbilarmonlik muhitining hozirgi holati, biznesni yuritish shart-sharoitlari erkin bozor iqtisodiyoti talablari va tamoyillariga, umum qabul qilingan xalqaro me'yor va standartlarga hali to'liq darajada mos kelmayotganligi, byurokratik to'siq va g'ovlarga barham berilmayotganligi Farmonda qayd etildi.

Shuningdek, mazkur Farmonda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida bir qator muhim vazifalar va me'yorlar belgilandi. Ya'ni:

- 2012 yil 1 avgustdan boshlab, tadbirkorlik faoliyati uchun shart-sharoitlarni yanada yaxshilashga yo'naltirilgan aniq 22 ta me'yor va tadbirlar joriy qilindi;

- qonunchilikni takomillashtirish va ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilashga hamda tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berishga yo'naltirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha 2013-2014 yillarda joriy etiladigan kompleks chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi.

Jumladan, 2012 yil 1 avgustdan boshlab:

- Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi tomonidan elektron raqamli imzoni berganlik uchun to'lov eng kam ish haqining 20 foizidan 10 foiziga tushirildi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisob raqamlaridan soliq va boshqa majburiy to'lovlarni undirilishida, sud qarorlari asosida sud ijrochilari tomonidan xuddi shu qarzdorlikni undirish bo'yicha inkasso talabnomalari qo'yilgan bo'lsa, soliq organlari tomonidan qo'yilgan inkasso topshiriqnomalarining ijrosi bekor qilinadigan bo'ldi.

Xalqaro amaliyotda qabul qilinganidek, davlat va nazorat qiluvchi organlar bilan tadbirkorlik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bevosita muloqotsiz elektron shakllarini hamma joyda keng tatbiq etish talab qilinmoqda.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, bugungi kunda, soliq to'lovchilarga qulayliklar yaratish maqsadida Davlat soliq qo'mitasi tomonidan 16 turdagi interaktiv davlat xizmatlari ko'rsatilishi yo'lga qo'yilib, 200 mingdan ortiq korxonalar va tashkilotlar hamda 50 mingga yaqin jismoniy shaxslar ulardan foydalanib kelmoqdalar.

«Elektron soliq hisobotlarini qabul qilish» interaktiv xizmati eng ommalashgan xizmatlardan biri hisoblanib, jami hisobot topshirayotgan korxonalar va tashkilotlarning 85 foizidan ortig'i ushbu xizmatdan foydalanmoqdalar.

Yil boshidan buyon 2,2 mln.dan ortiq soliq va moliyaviy hisobotlar elektron ko'rinishda taqdim etildi va 12,3 mln. varaq qog'oz iqtisod qilindi.

2012 yil yakunigacha Davlat soliq qo'mitasining interaktiv xizmatlari sonini 22 taga yetkazish rejalashtirilgan.

Farmon bilan joriy etilgan yangiliklarga qaytadigan bo'lsak, 2013 yilning 1 yanvaridan boshlab tadbirkorlik sub'ektlari tegishli davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida bir qator tartib-taomillarni o'z xohishlariga ko'ra elektron shaklda amalga oshirish huquqiga ega bo'lishi ko'zda tutildi:

- bank hisobvaraqlariga masofadan turib xizmat ko'rsatish tizimi, shu jumladan "Internet-banking" tizimi orqali soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash;

- yuklarni bojxonada rasmiylashtirishda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan tovarlarni deklaratsiya qilish;

- "bir oyna" tamoyili bo'yicha yuridik shaxslarning ko'chmas mulkka bo'lgan egalik huquqlarini ro'yxatga olish;

- tadbirkorlik sub'ektlarining da'vo arizalari va iltimosnomalarini xo'jalik sudlariga berish shular jumlasidandir.

Tijorat banklariga, to'lovlarni elektron shaklda amalga oshiruvchi kichik tadbirkorlik sub'ektlarining hisobvaraqlariga xizmat ko'rsatganlik uchun undiriladigan to'lov miqdorini kamida 20 foizga kamaytirish tavsiya etildi.

3. Soliq to'lovchilarning huquqlari va majburiyatlari

Soliq to'lovchilar Soliq Kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir.

Soliq agentlari Soliq kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir. (SK. 13- modda)

Soliq solish maqsadida yuridik shaxs deb quyidagilar e'tirof etiladi:

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z

majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, mustaqil balansiga yoki smetasiga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan hamda ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot;

chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan hamda O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquq layoqatiga ega bo'lgan xorijiy va (yoki) xalqaro tashkilot.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet davlatlar fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jismoniy shaxslar deb e'tirof etiladi. (SK.16-modda)

Notijorat tashkilotlari deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushuniladi.

Notijorat tashkilotlariga byudjet tashkilotlari, shu jumladan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari kiradi.

Yakka tartibdagi tadbirkor tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqsiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxsdir.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliq to'lovchilar quyidagi huquqlarga ega:

davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlardan amaldagi soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi o'zgarishlar haqida axborot olish;

o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan davlat soliq xizmati organlari hamda boshqa vakolatli organlardagi mavjud ma'lumotlarni olish;

soliq munosabatlari masalalari yuzasidan o'z manfaatlarini shaxsan yoki o'z vakili orqali ifoda etish;

Soliq kodeksida, boshqa qonunlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlarida belgilab qo'yilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda hamda tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan foydalanish;

soliqlar, boshqa majburiy to'lovlar, penya va jarimalarning ortiqcha to'langan yoki undirilgan summalarini hisobga olish yoki qaytarib olish;

Soliq kodeksida hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan shartlarda va tartibda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash;

soliq solish ob'ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish hamda to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish;

soliq tekshiruvlari materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish;

soliq tekshiruvlarini amalga oshirayotgan davlat soliq xizmati organlariga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini bajarishga doir masalalar yuzasidan tushuntirishlar berish;

davlat soliq xizmati organlarining, boshqa vakolatli organlar va ular mansabdor shaxslarining Soliq kodeksiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo'lmagan hujjatlari hamda talablarini bajarmaslik;

davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qarorlari, ular mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish;

davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning qonunga xilof qarorlari yoki ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof harakatlari tufayli yetkazilgan zararining o'zni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish.

Soliq to'lovchilar qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

Soliq to'lovchining soliq munosabatlarida shaxsan ishtirok etishi uni vakilga ega bo'lish huquqidan mahrum etmaydi, xuddi shuningdek vakilning ishtirok etishi soliq to'lovchini bunday munosabatlarda shaxsan ishtirok etish huquqidan mahrum etmaydi.

Soliq to'lovchi vakillarining mazkur soliq to'lovchining soliq munosabatlaridagi ishtiroki munosabati bilan sodir etilgan harakati (harakatsizligi) soliq to'lovchining harakati (harakatsizligi) deb e'tirof etiladi. (SK. 31-modda)

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq soliq to'lovchilarga quyidagi majburiyatlar yuklatilgan:

o'z soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq hajmda bajarishi;
qonun hujjatlariga muvofiq buxgalteriya hisobini yuritishi, moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi;

davlat soliq xizmati organlariga va boshqa vakolatli organlarga imtiyozlar olish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etishi;

soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan vaqtda davlat soliq xizmati organlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar hamda ma'lumotlarni taqdim etishi;

davlat soliq xizmati organlarining va boshqa vakolatli organlarning hamda ular mansabdor shaxslarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek mazkur organlarning, ular mansabdor shaxslarining qonuniy faoliyatiga to'sqinlik qilmasligi shart.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq soliq agentlariga ham majburiyatlar yuklatilgan bo'lib, bu majburiyatlar soliq to'lovchilar majburiyatlaridan hamda quyidagi majburiyatlardan iborat :

soliq to'lovchilarga to'lanadigan mablag'lardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'g'ri va o'z vaqtida hisoblab chiqarishi, ushlab qolishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazishi;

soliq to'lovchilarga to'langan daromadlarning, ushlab qolingani hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning hisobini yuritishi, shu jumladan har bir soliq to'lovchi bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Qonun hujjatlariga muvofiq soliq to'lovchilar zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin. (SK. 32-modda)

4. Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari, xuquqlari va majburiyatlari.

Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonunga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi. Davlat soliq xizmati organlari o'z faoliyatini davlat boshqaruv organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan mustaqil tarzda qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi⁸.

Davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat⁹:

davlat soliq siyosatini amalga oshirish hamda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni ta'minlash;

soliqlarning soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga, davlatning maqsadli jamg'armalari hamda byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'liq va o'z vaqtida tushishini ta'minlash;

soliqlar yig'ilishini oshirish bo'yicha choralar ko'rish, ma'lumotlar kompyuter bazasining yagona tizimini yuritish asosida soliq to'lovchilarni hisobga qo'yish mexanizmlarini takomillashtirish, ularga ko'rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari sohasini kengaytirish, soliqlarga oid huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

pul mablag'larining g'ayriqonuniy aylanishi manbalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumining to'liq va o'z vaqtida topshirilishi ustidan muntazam nazoratni ta'minlash;

⁸⁸O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni. 3-modda

⁹O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni. 4-modda

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatini rag'batlantirishga, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berishga doir qonun hujjatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

bozorlar va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyati, ular tomonidan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish hamda ularning hududida aniqlangan huquqbuzarliklar bo'yicha surishtiruv o'tkazib, jinoyat ishlarining tergovga tegishliligiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha nazorat qiluvchi organlar faoliyati muvofiqashtirilishini ta'minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlash va suiiste'molliklarga yo'l qo'ymaslik;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta hamda eksport-import operatsiyalari amalga oshirilganda qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish;

davlat soliq xizmati organlarini halol, yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish, korrupsiya va ishga rasmiyatchilik bilan yondashish faktlariga barham berish bo'yicha tizimli ishni amalga oshirish, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni doimiy asosda ta'minlash.

Davlat soliq xizmati organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega¹⁰:

1) soliq to'lovchilarda (shu jumladan, soliq to'lovchi bilan bog'liq bo'lgan sub'ektlardagi muqobil tekshiruvlarda) moliyaviy hujjatlar, shartnomalar (kontraktlar), rejalar, smetalar, daromadlar haqidagi deklaratsiyalar hamda soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lash, fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarini kiritish bilan bog'liq boshqa hujjatlarning, shu jumladan elektron hujjatlarning, shuningdek eksport-import operatsiyalari bilan bog'liq hujjatlarning tekshiruvlarini o'tkazish;

2) soliq tekshiruvi o'tkazayotganda:

daromadlar olish uchun soliq to'lovchilar tomonidan foydalanilayotgan yoxud soliq solish ob'ektlarini saqlab turish bilan bog'liq hududni, ishlab chiqarish binolari, omborxonalar, savdo binolarini va boshqa binolarni, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirish;

mol-mulkni inventarizatsiya qilish va bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar hajmining nazorat o'lchovlarini o'tkazish;

kassalarni hamda tovar-moddiy boyliklar va hujjatlar (shu jumladan elektron tarzidagi) saqlanadigan joylarni muhrlab qo'yish;

soliqlarni hisoblab chiqarish hamda to'lash bilan bog'liq hujjatlarni talab qilib olish;

hujjatlarni (ko'chirma nusxalarni, shuningdek asl nusxalarni), shu jumladan elektron hujjatlarni, shuningdek predmetlarni (tovarlar, buyumlar, xom ashyo, materiallar va yarim tayyor mahsulotlarning namunalari) olib qo'yish, bundan soliq to'lovchining faoliyatini to'xtatib qo'yishga sabab bo'ladigan hujjatlar hamda predmetlar mustasno. Soliq to'lovchining faoliyatini to'xtatib qo'yishga sabab bo'ladigan hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi;

soliq to'lovchidan, shuningdek soliq to'lovchining rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruv vazifalarini amalga oshirayotgan shaxslardan, boshqa moddiy javobgar xodimlaridan tushuntirishlar olish;

tarjimanni, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlash;

soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlari bartaraf etilishini talab qilish;

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish;

3) savdo, tovarlarni berish va pullik xizmatlar ko'rsatish qoidalariga, shuningdek naqd pul tushumining bankka o'z vaqtida topshirilishiga rioya etilishini tekshirish;

¹⁰ O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni. 5-modda

4) soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarida saqlanayotgan ma'lumotlardan foydalanish;

5) soliq to'lovchi tomonidan hisob hujjatlari yo'qotilgan yoki yo'q qilingan taqdirda, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazilishi lozim bo'lgan soliqlar summasini soliq to'lovchi to'g'risidagi, shuningdek unga o'xshash boshqa soliq to'lovchilar haqidagi o'zlarida mavjud bo'lgan ma'lumotlar asosida hisob-kitob qilish orqali mustaqil ravishda aniqlash;

6) soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati mobaynida soliqlarni hisoblash yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqish;

7) soliqlarni undirishga doir vazifalarni amalga oshirayotgan davlat organlari va tashkilotlarini soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, to'liq undirib olinishi hamda byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'z vaqtida o'tkazilishi yuzasidan nazorat qilish;

8) soliq tekshiruvini o'tkazishga soliq to'lovchi tomonidan to'sqinlik qilingan yoxud davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining soliq to'lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalanilayotgan yoxud soliq solish ob'ektini saqlash bilan bog'liq hududlar, binolar, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirish uchun kirishi rad etilgan hollarda soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish yuzasidan sud tartibida choralar ko'rish, bundan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishning aniqlangan hollari mustasno. Soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib turish quyidagi hollarda davlat soliq xizmati organlarining qarorlari asosida ham amalga oshirilishi mumkin:

soliq va (yoki) moliyaviy hisobot uni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o'n besh kun ichida soliq to'lovchi - yuridik shaxs tomonidan taqdim etilmaganda;

soliq to'lovchi - yuridik shaxs ko'rsatilgan manzilda bo'lmaganda;

9) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda:

soliqlarga oid huquqbuzarliklar haqidagi ishlarni ko'rib chiqish hamda yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy jazo choralarini qo'llash. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga nisbatan moliyaviy jazo choralarini sud tartibida qo'llaniladi, ular sodir etilgan huquqbuzarlikdagi aybiga iqror bo'lgan va moliyaviy jazo choralarini summalarini ixtiyoriy ravishda to'lagan hollar bundan mustasno;

ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo choralarini qo'llash;

10) soliqlarga oid huquqbuzarliklarning aniqlangan faktlari bo'yicha tovar-moddiy boyliklarni qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda davlat daromadiga o'tkazish. Soliq to'lovchilar - yuridik shaxslarning, yakka tartibdagi tadbirkorlarning tovar-moddiy boyliklarini davlat daromadiga o'tkazish sud tartibida amalga oshiriladi;

11) soliq to'lovchilarning g'ayriqonuniy ravishda olgan mablag'larini davlat daromadiga undirish haqida ularga nisbatan sudda da'volar qo'zg'atish;

12) soliq to'lovchiga majburiyatini bajarishi zarurligi haqida hamda soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan ko'riladigan choralar to'g'risida talabnoma yuborish;

13) soliq to'lovchi soliq hisoboti taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'n kun ichida yozma ariza bermagan taqdirda, soliqlarning ortiqcha to'langan summalarini boshqa turdagi soliqlar bo'yicha soliq qarzini, penya va jarimalarni uzish hisobiga hisobga olishni amalga oshirish to'g'risida tegishli moliya organlariga mustaqil ravishda xulosa taqdim etish;

14) O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida belgilangan hollarda, agar hujjatlar chet tilida tuzilgan bo'lsa, ularning notarial tartibda tasdiqlangan davlat tilidagi tarjimasini talab qilish;

15) taxmin qilinayotgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasi hisobot davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, joriy to'lovlarni yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib, penya hisoblangan holda qayta hisoblash;

16) bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida bir martalik yig'imlar, ijara haqi to'liq tushishi va ularning topshirilishi hisobga olinishiga, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan, to'lovlarni plastik kartochkalar asosida qabul qilish bo'yicha hisob-kitob terminallaridan foydalanilishiga, shuningdek savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishiga oid qisqa muddatli tekshiruvlar o'tkazish;

17) bozorlar, savdo komplekslari hududlarida va ularga tutash bo'lgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarida aniqlangan moliyaviy-iqtisodiy va soliq sohalarida huquqbuzarliklar sodir etilganligi faktlari yuzasidan tergovga qadar tekshiruvlar o'tkazish, ular bo'yicha jinoyat ishlari qo'zg'atish hamda surishtiruv o'tkazib, jinoyat ishlarini tergovga tegishlilikiga ko'ra huquqni muhofaza qiluvchi organlarga topshirish.

Davlat soliq xizmati organlari¹¹:

1) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi, soliqlarning to'g'ri hisoblab chiqarilishi, byudjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga to'liq hamda o'z vaqtida to'lanishi, shuningdek fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarilishi hamda o'z vaqtida kiritilishi yuzasidan davlat nazoratini amalga oshirishi, "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya etishi;

2) soliq to'lovchilarning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishi;

3) soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar, hisoblab chiqarilgan va to'langan soliqlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini, shuningdek jismoniy shaxslarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish tartibiga rioya etishlari yuzasidan nazoratni ta'minlashi;

4) soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda soliq to'lovchilarga ularning huquqlari va majburiyatlarini ma'lum qilishi, shuningdek tekshirishlarni tartibga solishga doir qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etishi;

5) soliq to'lovchilarga o'tkazilgan tekshiruvlar natijalari to'g'risida ma'lum qilishi;

6) soliq to'lovchilarga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini o'z vaqtida yetkazishi;

7) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi faktlarini yig'ishi, tahlil etishi va baholashi hamda soliqlarga oid huquqbuzarliklarga yo'l ochib berayotgan sabablar va sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida tegishli organlarga takliflar kiritishi;

8) huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birgalikda soliqlarga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashning uzoq muddatli va joriy dasturlarini ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi;

9) soliqlar to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risidagi arizalarni, xabarlar va boshqa axborotni tekshirishi;

10) davlatga yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga meros huquqi bo'yicha o'tgan xazinalar va mol-mulkning hisobini yuritishi, ularni baholashi hamda ularning o'tkazilishini nazorat etishi;

11) davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkning realizatsiya qilinishidan olingan pul mablag'larining davlat daromadiga to'liq va o'z vaqtida tushishi yuzasidan nazorat olib borishi, shuningdek davlat organlariga tekin o'tkazilgan mol-mulk hisobini olib borishi;

12) masalani hal etish davlat soliq xizmati organlarining vakolat doirasidan chiqqan hollarda, qonun hujjatlari buzilganligi faktlariga doir materiallarni prokuratura, ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmati organlariga va sudlarga topshirishi;

13) valyuta hamda eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan tartibiga soliq to'lovchilar - yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismo niy shaxslar tomonidan rioya etilishi yuzasidan o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirishi;

14) soliq to'lovchi to'g'risidagi ma'lumotlar qonun hujjatlariga muvofiq sir tutilishiga rioya etishi;

¹¹ O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi qonuni. 6-modda

- 15) o'z bo'ysunuvidagi bo'linmalar faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishi;
- 16) soliq to'lovchining talabiga binoan soliqlarni to'lash bo'yicha soliq majburiyatlarining ijro etilishiga doir solishtirma dalolatnoma tuzishi;
- 17) soliq to'lovchining debitoriga uning kreditorlik qarzi borligi haqida imzolash uchun soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan o'zaro hisob-kitoblarning solishtirma dalolatnomasini va kreditorlik qarzi mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarning ko'chirma nusxalarini ilova qilgan holda yozma bildirish yuborishi;
- 18) ortiqcha to'langan soliq summasini mazkur soliq turi bo'yicha penya va jarimalarni uzish hisobiga soliq to'lovchining arizasisiz mustaqil ravishda hisobga olishi hamda bu haqda hisobga olish amalga oshirilgan kundan e'tiboran uch kunlik muddatda soliq to'lovchini yozma ravishda xabardor etishi;
- 19) qonun hujjatlariga muvofiq soliq qarzi summasini so'zsiz undirishi;
- 20) undiruvni soliq to'lovchiga uning debitorlaridan o'tkazilishi lozim bo'lgan summaga qaratishi;
- 21) yuridik va jismoniy shaxslarni, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlarini, yakka tartibdagi tadbirkorlarni hisobga qo'yishi, shu jumladan davlat maqsadli jamg'armalariga ijtimoiy sug'urta badallari to'lovchilari sifatida (tegishli davlat maqsadli jamg'armalari to'lovchilari bo'lgan sub'ektlar uchun) hisobga olishi, ularga soliq to'lovchining identifikatsiya raqamini (STIR) berishi hamda bu raqamni statistika va ro'yxatdan o'tkazuvchi organlarga rasman ma'lum qilishi;
- 22) davlat soliq xizmati organlarida hisobda turmagan soliq to'lovchilar aniqlangan taqdirda, ularga belgilangan tartibda hisobga turish to'g'risida talabnoma taqdim etishi;
- 23) jismoniy shaxsning doimiy yashash joyi o'zgargan taqdirda, mazkur soliq to'lovchiga taalluqli barcha materiallarni uning yangi yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga topshirishi;
- 24) soliq to'lovchining talabi bo'yicha mazkur soliq to'lovchining hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi ma'lumotnomani, shu jumladan o'zgarishlar kiritilgan hisob ma'lumotlari ham ko'rsatilgan holdagi ma'lumotnomani berishi;
- 25) shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etiladigan soliq hisobotini qabul qilishda soliq to'lovchining talabiga binoan soliq hisobotining ko'chirma nusxasiga hisobot qabul qilib olingan sana to'g'risida belgi qo'yishi, soliq hisoboti telekommunikatsiya tarmoqlari orqali elektron hujjat tarzida qabul qilib olinganda esa, soliq to'lovchiga elektron tarzidagi hisobot qabul qilib olinganligi to'g'risida tasdiqnoma yuborishi;
- 26) soliq qarzi bo'lgan jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, jismoniy shaxs hisobga qo'yilgan va (yoki) uning mol-mulki turgan joydagi davlat soliq xizmati organi vafot etgan shaxsning merosxo'ri (merosxo'rlari) to'g'risida axborot olingan paytdan e'tiboran o'ttiz kun ichida merosxo'rga (merosxo'rlarga) soliq qarzi borligini ma'lum qilishi shart.

5. Davlat soliq xizmati organlarining boshqa organlar bilan hamkorlikda soliq nazoratini amalga oshirilishi

Davlat soliq xizmati organlari o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalarni davlatning boshqa boshqaruv organlari, davlat hokimiyati mahalliy organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qiluvchi, statistika va moliya organlari, banklar va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar va tashkilotlar soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish va soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga qarshi kurashda davlat soliq xizmati organlariga ko'maklashishlari shart.

Davlat soliq xizmati organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, moliya organlari, banklar o'zaro kelishib belgilangan tartibda soliqlar bo'yicha huquqbuzarliklarga oid mavjud materiallar va huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar, o'tkazilayotgan tekshiruvlar to'g'risida bir-birlarini xabardor qiladilar, shuningdek zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarish maqsadida boshqa axborotlarni almashib turadilar.

Davlatning
boshqaruv
organlari

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq soliq solish masalalariga daxldor normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Soliq to'lovchilarning hisobga olinishini va soliq haqidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni ta'minlash maqsadida banklar:

1) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar davlat soliq xizmati organlarida ro'yxatga olinganliklarini tasdiqlovchi hujjat taqdim etgan taqdirdagina ular uchun hisob-kitob va boshqa hisobvaraqlar ochishlari mumkin va bu hisobvaraqlar ochilganligi haqida ular ochilgan kunning ertasidan kechiktirmay mazkur organga xabar beradilar;

2) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar byudjet oldidagi o'z majburiyatlarini bajarmagan taqdirda, bunday sub'ektlarning hisob-kitob raqamlari va boshqa hisobvaraqlarini sudning qaroriga binoan yopadilar;

3) davlat soliq xizmati organlarining soliq to'lovchi mijozlardan belgilangan muddatda to'lanmagan soliqlar va jarimalarni so'zsiz undirish to'g'risidagi farmoyishlarini (inkasso topshiriqlarini) mehnatga doir huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan, alimentlar undirish haqidagi, mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lashga doir, shuningdek hayot va sog'liqqa yetkazilgan zararining o'rnini qoplash haqidagi talablarni qondirish uchun hisobvaraqdan pul mablag'lari o'tkazilishi yoki berilishini nazarda tutadigan ijro hujjatlari bo'yicha mutanosib ravishda bajaradilar;

4) soliq to'lovchi mijozning mablag'lari bo'lsa, uning hisob-kitob yoki boshqa hisobvarag'idan mablag'larni hisobdan chiqarish operatsiyasi amalga oshirilgan kuni soliqlar va jarima summalarini byudjet daromadiga o'tkazadilar;

5) soliq to'lovchi - mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan pul mablag'lari berish, o'tkazish yoki ularni hisobdan chiqarishga doir operatsiyalarni davlat soliq xizmati organlarining yozma talabi bo'yicha to'xtatib qo'yadi.

6) davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslariga:

yuridik shaxslarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlari;

jismoniy shaxslarning depozit va boshqa hisobvaraqlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalarni tekshirish uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo'l qo'yadilar;

7) davlat soliq xizmati organlarining so'rovnomasiga ko'ra ularga so'ralayotgan davr mobaynida soliq to'lovchi mijozlarning hisob-kitob yoki boshqa hisobvaraqlaridan amalga oshirilgan operatsiyalar va ana shu hisobvaraqlarda pul mablag'larining bor-yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etadilar;


8) davlat soliq xizmati organlarining so'rovnomasiga ko'ra eksport-import kontraktlarining ijrosiga doir ma'lumotlarni va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa axborotni taqdim etadilar.

9) olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik korxonalari esa - uch oy mobaynida) bank hisobvaraqlari bo'yicha pul operatsiyalari o'tkazish bilan bog'liq moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmaganligi munosabati bilan korxonalarining hisobvaraqlari yopilgan sanadan e'tiboran ularning faoliyatni davom ettirishi maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi masalalarni belgilangan tartibda ishlab chiqish uchun axborotni ularni hisobga olgan joydagi davlat soliq xizmati organiga uch ish kuni mobaynida taqdim etadilar;

10) qonunda nazarda tutilgan hollarda davlat soliq xizmati organlariga boshqa axborotni ham taqdim etadilar.

Banklar soliq to'lovchi mijozlarning soliqlar, shuningdek jarima summalarini o'tkazish haqidagi topshiriqlarini bajarishni kechiktirishi taqiqlanadi. Bank aybi bilan soliq to'lovchi mijozning yoki davlat soliq xizmati organining soliqlarni o'tkazish haqidagi topshirig'i bajarilmagan (bajarish kechiktirilgan) taqdirda bankdan har bir kechiktirilgan kun uchun o'tkazilmagan soliqlar summasining 0,5 foizi miqdorida belgilangan tartibda penya undiriladi.

Yuqoridagilardan tashqari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq to'lovchilarning majburiyatlari yuzaga kelganligi to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar hamda ularning majburiyatlari keltirib o'tilgan bo'lib, jumladan:



Yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga ushbu yuridik shaxslar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay tegishli yuridik shaxslarning davlat reestridan ko'chirma topshirishi shart. Mazkur organlar davlat soliq xizmati organiga tegishli yuridik shaxslarga taalluqli davlat reestriga kiritilgan har qanday o'zgartishlar to'g'risida ham bunday o'zgartishlar kiritilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay ma'lum qilishi shart.

Litsenziya va (yoki) boshqa ruxsat etuvchi hujjatlar beradigan organlar bunday hujjatlar berilgan shaxslar joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga shunday hujjatlar berilganligi hollari haqida ma'lum qilishi, shuningdek mazkur hujjatlar bekor qilinganligi, ularning amal qilishi to'xtatib turilganligi yoki tugatilganligi to'g'risida ma'lumot berishi shart.

Ichki ishlar organlari o'zlari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga pasportlar berilganligi, shu jumladan yo'qotilgan yoki amal qilish muddati o'tgan pasportlar o'rniga pasportlar berilganligi faktlari haqida, bekor qilingan pasportlar to'g'risida har oyda ma'lum qilishi shart.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar o'zlari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga tegishli hududda joylashgan ko'chmas mulk va uning mulkdorlari (egallari) to'g'risida mazkur ko'chmas mulkka bo'lgan huquq davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Suv resurslarini hisobga oluvchi organlar suvdan foydalanish yoki suv iste'moli joyidagi davlat soliq xizmati organlariga 1 fevraldan kechiktirmasdan o'tgan yil yakunlari bo'yicha o'lchov asboblari foydalanilgan suv hajmlari to'g'risida xabar qilishi shart.

Davlat notarial idoralari tegishincha ko'chmas mulk ijarasi shartnomasi tasdiqlanganligi va ijara haqi miqdori, shuningdek meros qilib olish yoki hadya tarzida fuqarolarning mulkiga o'tayotgan mol-mulk qiymati to'g'risida ko'rsatilgan notarial harakatlar amalga oshirilgan kundan e'tiboran o'n kundan kechiktirmay o'zlari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shart.

Yer resurslarini hisobga oluvchi va (yoki) baholovchi organlar yer uchastkasiga nisbatan huquqi yuzaga kelgan (tugatilgan) shaxslarni ko'rsatgan holda yer uchastkasiga nisbatan huquq berilganligi (tugatilganligi) hamda qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymati to'g'risida yer uchastkasi joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shart.

Foydalanishga berilgan yer qa'ri uchastkalarining davlat hisobi yuritilishini amalga oshiruvchi va (yoki) yer qa'ri uchastkalaridan foydalanish huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlar o'zlari joylashgan yerdagi davlat soliq xizmati organlariga yer qa'ri uchastkasi joylashgan yer hamda mazkur yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi berilgan shaxs to'g'risidagi axborotni yer qa'ri uchastkasidan foydalanish huquqi ro'yxatdan o'tkazilgan (hisobga olingan) kundan e'tiboran o'n kun ichida ma'lum qilishi shart.

Banklar yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga faqat ular davlat soliq xizmatining tegishli organida hisobga qo'yilganligini tasdiqlovchi hujjatni ko'rsatgan taqdirda bank hisobvaraqlari ochishi mumkin va hisobvaraqlar ochilganligi to'g'risida o'sha organga keyingi kundan kechiktirmay ma'lum qilishi shart. Qonunda nazarda tutilgan hollarda banklar davlat soliq xizmati organlariga boshqa ma'lumotlarni ham taqdim etadi.

Bojxona organlari har oyda eksport-import operatsiyalari, shuningdek tovarlar harakati haqidagi ma'lumotni davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shart.

Nazorat savollari

1. Soliq majburiyati deganda nimani tushunasiz?
2. Soliq qonunchiligi hujjatlariga nimalar kiradi?
3. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi qanday huquqiy munosabatlarni tartibga soladi?
4. Soliq to'lovchilar qanday huquqlar bilan muhofaza qilingan?
5. Davlat soliq xizmati organlariga qanday vazifalar yuklatilgan?

6. Davlat soliq xizmati organlari qanday huquqlarga ega?
7. Davlat soliq xizmati organlarining boshqa davlat organ va tashkilotlari bilan hamkorlik qiladi?

3.Mavzu: Xo'jalik sub'ektlari faoliyati bo'yicha davlat nazoratining tashkil etilishi

Reja:

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini nazorat qilish to'g'risidagi qonun xujjatlari.
2. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini nazorat qilish shakllari va tekshiruv turlari.
3. Nazorat qilishning asosiy prinsiplari va tekshiruvchi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talablar.
4. Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ular tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi
5. Tekshirishlarni o'tkazish uchun asos. Tekshiruv muddatlari va davriyligi
6. Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlari
7. Yaponiya davlati soliq tizimida soliq tekshiruvlari tajribasi

Tayanch so'z va iboralar

- | | |
|------------------------------------|----------------------------------|
| 1. Nazorat | 6. Rejali tekshirishlar |
| 2. Soliq nazorati | 7. Nazorat qiluvchi organlar |
| 3. Tekshiruv turlari | 8.Rejadan tashqari tekshirishlar |
| 4. Tekshiruvchi mansabdor shaxslar | 9. Tekshirishlarni o'tkazish |
| 5. Tekshiruvlarning davriyligi | 10. Monitoring qilish |

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini nazorat qilish to'g'risidagi qonun xujjatlari.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini nazorat qilishining huquqiy munosabatlari va tartib qoidalari quyidagi qonun xujjatlariga asosan amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi (2007 yil 25 dekabr);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida»gi Farmoni (1998 yil 19 noyabr, PF-2114-sonli);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni (2005 yil 14 iyun, PF-3619-sonli);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni (2005 yil 5 oktabr, PF-3665-sonli)
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida» 1998 yil 19 noyabrda PF-2114-sonli Farmoniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Farmoni (2005 yil 28 noyabr, PF-3694-sonli);
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»Farmoni. (PF-4296-sonli. 4 aprel 2011 y.)
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni (PF-4354-sonli, 24 avgust 2011 y.)
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qarori. (PQ-1604-sonli. 25 avgust 2011 y.)

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida» Qarori (1998 yil 27 noyabr 496-sonli);

- «Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi to'g'risida» Nizom (Adliya vazirligida 2006 yil 5 mayda 1573-son bilan ro'yxatga olingan);

- «Nazorat qiluvchi organlar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyatini tekshirishlarni tashkillashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizom Adliya vazirligida 2007 yil 3 sentabrda 1712-son bilan ro'yxatga olingan);

- «Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobining shakli va uni to'ldirish tartibini tasdiqlash haqida»gi buyrug'i (Adliya vazirligida 7 noyabr 2011 yil 2208-son bilan ro'yxatga olingan).

«Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonunning maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdir. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan muassasalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Prokuror nazorati tartibida amalga oshiriladigan davlat nazorati tegishli Qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, halqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2010 yil 8 yanvardagi PQ-1257-son qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining asosiy vazifalari va funksiyalari etib quyidagilar belgilandi:

-pul mablag'larining noqonuniy muomalada bo'lishi manbalarini bartaraf etish, aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd tushumning o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni ta'minlash;

-dehqon bozorlari va savdo komplekslarining moliya-xo'jalik faoliyatini, ular tomonidan soliq qonunchiligiga rioya qilinishini qattiq nazorat qilish hamda jinoiy ishlarni huquqni muhofaza qilish organlariga topshirgan holda ularning hududlarida aniqlangan huquq buzilishlari bo'yicha surishtiruvlar o'tkazish;

-respublika nazorat qiluvchi organlarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha ishlari muvofiqlashtirilishini ta'minlash, ushbu ishni amalga oshirishda bir-birini takrorlashga va suiiste'molchiliklarga yo'l qo'ymaslik;

-yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan valyuta va eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga qat'iy rioya etilishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni o'z vakolatlari doirasida amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida» 2010 yil 8 yanvardagi PQ-1257-son qaroriga asosan Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasida Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi tashkil etildi va bozorlar, savdo komplekslari, ularga tutash avtomobil to'xtash joylari, shuningdek ular hududida faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish huquqi faqat davlat soliq xizmati organlariga beriladi.

davlat soliq xizmati organlari, keyinchalik Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtirish respublika kengashini yoki uning hududiy komissiyalarini xabardor qilgan holda, Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi boshlig'ining buyruqlari asosida bozorlar, savdo komplekslari va ularga tutash avtomobil to'xtash joylarida bir martalik yig'imlar topshirilishini, ijara to'lovi tushumi va hisobi to'liq yuritilishini, nazorat-kassa mashinalaridan,

hisob-kitob terminallaridan foydalanilishini, shuningdek savdo va xizmatlar ko'rsatish qoidalariga rioya qilinishini har kuni tekshirish huquqiga egaligi ko'rsatilgana;

bozorlar va savdo komplekslarida sanitariya norma va qoidalariga, shuningdek standartlarga, yong'in xavfsizligi normalari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya-epidemiologiya xizmati organlariga va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yong'in xavfsizligi xizmatiga yuklangan.

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, tegishli vazirliklar va idoralar o'z xodimlari va mutaxassislarining bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini tartibga solish bo'yicha qonun hujjatlari talablari bajarilishini ta'minlash uchun davlat soliq xizmati organlari tomonidan tashkil etiladigan guruhlar tarkibida qatnashishini ta'minlash belgilangan

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 maydagi "Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 98-sonli Qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi to'g'risidagi Nizom 1-ilovaga muvofiq xamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi to'g'risidagi Nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlandi. Ushbu qarorda Davlat soliq qo'mitasining vazifalari, xuquqlari va vakolatlari belgilangan.

«Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi qonunning maqsadi ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdir. Davlat byudjeti va byudjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan muassasalar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishda qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Prokuror nazorati tartibida amalga oshiriladigan davlat nazorati tegishli Qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.


Agar O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomasida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, halqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

2. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini nazorat qilish shakllari va tekshiruv turlari

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- tekshirish, shu jumladan taftish, muqobil tekshirish, nazorat tartibida tekshirish;
- statistika axborotlarini va boshqa axborotlarni tahlil qilish;
- idora qaramog'idagi organlarni tekshirishdan o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliq nazorati quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:



Bojxona organlari tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan olib o'tilishi munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bo'yicha soliq nazoratini o'z vakolatlari doirasida Soliq Kodeksiga va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Soliq nazorati amalga oshirilayotganda Soliq Kodeksi va boshqa qonun hujjatlarining qoidalarini buzgan holda soliq to'lovchi to'g'risida axborot to'plash, saqlash, undan foydalanish va uni tarqatishga, shuningdek soliq sirini oshkor qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Qonun hujjatlarining talablarini buzgan holda olingan soliq to'lovchi to'g'risidagi hujjatlar yoki boshqa axborot soliq to'lovchini soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlikka tortishga asos bo'la olmaydi. (SK. 12 bob. 67-modda)

Kameral nazorat

Kameral nazorat soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotini, shuningdek soliq to'lovchining faoliyati to'g'risida davlat soliq xizmati organidagi mavjud boshqa hujjatlarni o'rganish hamda tahlil etish asosida amalga oshiriladigan nazoratdir.

Kameral nazorat soliq to'lovchining huzuriga bormasdan davlat soliq xizmati organi joylashgan yerda amalga oshiriladi.

Agar davlat soliq xizmati organi tomonidan kameral nazorat jarayonida soliq hisobotini to'ldirishda xatoliklarga yo'l qo'yilganligi yoki taqdim etilgan soliq hisobotidagi va davlat soliq xizmati organlaridagi ma'lumotlar o'rtasida ziddiyatlar borligi aniqlansa, bu haqda soliq to'lovchiga tegishli tuzatishlar kiritish talab qilingan holda yozma shaklda xabar qilinadi.

Soliq to'lovchi aniqlashtirilgan soliq hisobotini taqdim etish uchun nazarda tutilgan tartibda tegishli soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha tuzatilgan soliq hisobotini yoxud aniqlangan tafovutlarning asosini talabnoma olingan kundan e'tiboran o'n kunlik muddatda taqdim etishi shart.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji

Soliq to'lovchining naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji xronometraj o'tkazilgan davrda haqiqatda kelib tushgan naqd pul tushumini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji naqd hisob-kitob asosida tovarlar realizatsiya qiladigan yoki xizmatlar ko'rsatadigan soliq to'lovchi huzurida bevosita tovarlar realizatsiya qilinadigan, xizmatlar ko'rsatiladigan joyda davlat soliq xizmati organi tomonidan o'tkaziladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruq soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olish jarayonida soliq to'lovchi tomonidan tushum miqdori kamaytirilganligini taxmin qilish imkonini beradigan tafovutlar aniqlangan taqdirda, davlat soliq xizmati organining rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan qabul qilinadi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish to'g'risidagi buyruqda xronometraj o'tkaziladigan soliq to'lovchi, xronometrajni o'tkazish joyi va muddati, xronometraj o'tkaziladigan davr, xronometraj o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinishiga sabab bo'lgan tafovut, shuningdek davlat soliq xizmati organining xronometraj o'tkazadigan mansabdor shaxslari albatta ko'rsatiladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji kelib tushayotgan pul tushumini davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari tomonidan kuzatish va qayd etish orqali o'tkaziladi. Xronometrajni o'tkazishga boshqa shaxslarni, shu jumladan ekspertlarni jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini amalga oshirish jarayonida tekshiruv o'tkazishga, soliq to'lovchidan biron bir axborot yoki tushuntirishlar talab qilishga, soliq to'lovchiga nisbatan talablar taqdim etishga yoki uning faoliyatiga boshqacha tarzda aralashishga yo'l qo'yilmaydi, bundan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasida saqlanayotgan xronometraj o'tkazilayotgan vaqtga doir ma'lumotlarni olish mustasno.

Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji natijalari yuzasidan ma'lumotnoma tuzadi. Ma'lumotnomaning ko'chirma nusxasi soliq to'lovchiga topshiriladi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometraji natijalaridan faqat taqdim etilayotgan soliq hisoboti to'g'riligini tahlil etish uchun, shuningdek soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlar to'g'risidagi ma'lumotlar bazasini yuritish uchun foydalaniladi. Xronometraj natijasi soliq to'lovchini javobgarlikka tortish uchun asos bo'la olmaydi.

Naqd pul tushumi kelib tushishining xronometrajini o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining qo'llanilishi

O'zbekiston Respublikasi hududida naqd pulda hisob-kitob qilish bilan tovarlarni realizatsiya qilish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish Nazorat-kassa mashinalarining davlat reestriga kiritilgan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari majburiy qo'llanilgan holda amalga oshiriladi, bundan naqd pul bilan hisob-kitob qilishni, faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirishi mumkin bo'lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslar mustasno.

Faoliyatining o'ziga xos xususiyati sababli naqd pul bilan hisob-kitob qilishni nazorat-kassa mashinalarini qo'llamasdan amalga oshirish huquqiga ega bo'lgan ayrim toifadagi yuridik va jismoniy shaxslarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini nazorat qilish shakllari ichida tekshirish samaradorlik jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tekshirish bu – xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qonunlar hamda o'z faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari qanday bajarilayotganligini nazorat qiluvchi organlarning bir marta nazorat qilishidir.


Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish quyidagi turlarga bo'linadi:

- taftish;
- muqobil tekshirish;

- nazorat tartibida tekshirish.


O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organlari tomonidan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa, prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining bajarilishini tekshirishdir.

Soliq tekshiruvi soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) va qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi.



Soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftishi) soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish maqsadida soliq to'lovchining buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlari hamda boshqa hujjatlarini o'rganish va taqqoslashdir.

Qisqa muddatli tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvdir. (SK. 14 bob. 85-modda)



Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvi (taftishi) – tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan muvofiqlashtirish rejasi asosida o'tkaziladigan tekshiruvdir.

Soliq to'lovchi moliya-xo'jalik faoliyatining rejadan tashqari soliq tekshiruvi (taftishi) quyidagi hollarda o'tkaziladigan tekshiruvdir:
yuridik shaxs tugatilayotganda;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiquvchi tekshiruvlarni o'tkazish zarur bo'lganda;

davlat soliq xizmati organiga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchi tomonidan buzilganligi hollari haqida qo'shimcha ma'lumotlar tushganda.


Muqobil tekshiruv – operatsiyalar birligi tufayli o'zaro bog'langan va turli soliq to'lovchilarda bo'lgan hujjatlarni taqqoslashdan iborat tekshiruvdir.

Muqobil tekshiruv uchinchi shaxslarga nisbatan, agar soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organida mazkur shaxslar bilan bog'liq bo'lgan, soliq to'lovchi o'tkazgan operatsiyalar soliq bo'yicha hisobga olishda to'g'ri aks ettirilganligi haqida qo'shimcha ma'lumot olish zaruriyati kelib chiqsa, o'tkaziladi.

Qisqa muddatli tekshiruvlar rejadan tashqari soliq tekshiruvi tarzida o'tkaziladi. (SK. 86-modda)

3. **Nazorat qilishning asosiy prinsiplari va tekshiruvchi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talablar.**

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:



Tekshiruvchi mansabdor shaxslarga qo'yiladigan talablar. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari qonun xujjatlarida belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2010 yil 20 yanvarda 2070-son bilan ro'yxatga olingan "Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarini xo'jalik yurituvchi subyektlarda tekshirish o'tkazish huquqini berish bo'yicha attestatsiyadan o'tkazishtartibi to'g'risida" Nizom asosida nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirishga ruxsat belgilangan namunadagi maxsus guvoohnoma bilan tasdiqlanadi.

Tekshiruvga auditorlik tashkilotlari va (yoki) ekspertlar jalb etilgani taqdirda, nazorat qiluvchi organning mansabdor shaxsi tomonidan nazorat qiluvchi organ va auditorlik tashkiloti va (yoki) ekspert o'rtasidagi shartnomaning ko'chirma nusxasi albatta taqdim etiladi. SHartnomada auditor va (yoki) ekspertning familiyasi, ismi, otasining ismi, ish joyi va lavozimi ko'rsatilgan bo'lishi kerak. Auditor va (yoki) ekspert xulosasining to'g'riligi va uning qonun hujjatlariga muvofiqligi uchun auditorlik tashkiloti va (yoki) ekspertning javobgarligi tuziladigan

shartnomaning zaruriy sharti hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvlari va ekspertizalarni o'tkazish xarajatlari nazorat qiluvchi organlar hisobiga amalga oshiriladi.

4. Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ular tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi

Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish maxsus vakolatli organ tomonidan amalga oshiriladi va u chiqargan qarorlarning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirishga doir qismi nazorat qiluvchi organlar uchun majburiy hisoblanadi.

Maxsus vakolatli organning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish masalalari bo'yicha nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirishning, shu jumladan kompleks tekshiruvlar hamda taftishlarning nazorat qiluvchi organlar bir – birining ishini takrorlashiga yo'l qo'ymaydigan muvofiqlashtiruvchi rejalarini ishlab chiqish;
- nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvlar o'tkazishning muvofiqlashtiruvchi rejalariga rioya qilinishi nazorat qilish hamda rejadan tashqari tekshiruvlar maxsus vakolatli organ bilan kelishmay o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik.

Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi, Kengashning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy komissiyalari, tuman va shaharlar hududiy komissiyalari, nazorat qiluvchi organlar va ularning hududiy bo'linmalari tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarni tashkil etishda "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida"gi, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 8 avgustdagi "Tekshirishlarni tartibga solish va nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirishni takomillashtirish to'g'risida"gi PF-1503-son, 1998 yil 19 noyabrdagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida"gi PF-2114-son, 2005 yil 14 iyundagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3619-son, 2005 yil 5 oktabrdagi "Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3665-son farmonlariga hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirishni tartibga solish masalalariga doir boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi respublika kengashi tomonidan 2006 yil 11 marda tasdiqlangan «Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizomga amal qiladilar.

«Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish tartibi to'g'risida»gi Nizom nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik sub'ektlari - yuridik shaxslar faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirishni tartibga soladi. Ammo bu Nizom "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida"gi, "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda kredit bitimlarida nazarda tutilgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarga tatbiq etilmaydi.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarni o'tkazish, ularni o'tkazish muddatini ko'chirish, ularga boshqa nazorat qiluvchi organlarni qo'shish va tekshirishlarni amalga oshirish hamda muvofiqlashtirish bilan bog'liq boshqa masalalar yuzasidan qarorlar qaror yoki xat shaklida rasmiylashtirilib, tegishincha Kengash raisi (uning o'rinbosarlari) yoki viloyat va tuman komissiyalari rahbarlari tomonidan imzolanadi.

Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishni o'tkazish muddati 30 kalendar kundan oshmasligi kerak. Istisno tariqasidagi hollarda, Kengash qarori bilan bu muddat ko'pi bilan 30 kunga uzaytirilishi mumkin.

Tegishli asoslar (tadbirkorlik sub'ektlari rahbarlari, bosh buxgalterlarining yo'qligi, boshqa asosli sabablar) bo'lganda tekshirishlar o'tkazish muddatini o'zgartirishga Kengash qarori bilan, rejali tekshirishlarni ularni o'tkazish imkoni bo'lmaganligi yoki ularda ayrim nazorat qiluvchi organlar hududiy bo'linmalari ishtirok etishi mumkin bo'lmaganligi sababli birmuncha keyinroq muddatlarga ko'chirishga esa viloyat komissiyalarining qarori bilan yo'l qo'yilishi mumkin.

Tekshirishlarni muvofiqlashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi rahbarlar, mas'ul xodimlar tayyorlanayotgan tekshirishlar reja-jadvalidagi axborotlarning maxfiyligi va ishlab chiqilayotgan axborotdan faqat xizmat maqsadlarida foydalanilishi uchun shaxsan javob beradilar.

Tadbirkorlik sub'ekti faoliyatini tekshirishga Kengash yoki viloyat komissiyasi tomonidan belgilangan tartibda ruxsat berilgan nazorat qiluvchi organlarning tarkibiy tuzilmalariga ana shu nazorat qiluvchi organlar boshqa tarkibiy bo'linmalarining tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish huquqiga ega bo'lgan xodimlari tegishli nazorat qiluvchi organ yuqori bo'linmasi rahbarining mazkur masala bo'yicha maxsus qarori (buyrug'i) asosidagina qo'shilishi mumkin.

Tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarga belgilangan tartibda ruxsat berilgan bitta nazorat qiluvchi organga boshqa nazorat qiluvchi organlar, rejadan tashqari tekshirish o'tkazish uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan asoslar bo'lgan taqdirda, ular tomonidan berilgan buyurtmanoma asosida, Kengash qarori bilan qo'shilishi mumkin.

Kengash yoki uning hududiy bo'linmalari qarorlari bilan ruxsat berilgan tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni amalga oshirishni nazorat qiluvchi organlar o'zlarining quyi hududiy bo'linmalariga topshirishga haqli.

O'tkazilgan tekshirish natijalariga rozi bo'lmagan tadbirkorlik sub'ektlari nizoli masalalarga aniqlik kiritish uchun nazorat qiluvchi organlarning yuqori bo'linmalariga yozma murojaat qilish huquqiga ega. Nizoli masalalarga nazorat qiluvchi organlarning yuqori bo'linmalari Kengash yoki uning viloyat komissiyalari bilan qo'shimcha ravishda kelishmasdan turib, faqat tadbirkorlik sub'ektlarining murojaatlarida ko'rsatilgan masalalar yuzasidagina aniqlik kiritadilar.

Tadbirkorlik sub'ektlari ularda o'tkazish mo'ljallanayotgan yoki o'tkazilayotgan rejali yoki boshlab yuborilgan rejadan tashqari tekshirish haqidagi va ular faoliyatini tekshirishni amalga oshirishga ruxsat olgan nazorat organlarining nomi to'g'risidagi axborotni Kengash yoki viloyat komissiyasining ishchi organlaridan bepul olishga haqlidirlar. Tegishli axborotni olish rejasi tekshirishlar to'g'risidagi axborotni matbuotda chop etish yo'li bilan ham ta'minlanishi mumkin.

5. Tekshirishlarni o'tkazish uchun asos. Tekshiruv muddatlari va davriyligi

Yuridik shaxs bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rejali tekshirish, shu jumladan taftishdan o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bulinmasi tomonidan berilgan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirishning muvofiqlashtirish rejasidan ko'chirma;

- nazorat qiluvchi organning muvofiqlashtiruvchi reja asosida chiqargan buyrugi yoxud maxsus vakolatli organning tekshirish, shu jumladan taftish o'tkazish to'g'risidagi hamda tekshirish maqsadi, uni o'tkazish sanasi va tekshirishni amalga oshirish topshirilagan mansabdor shaxslarning tarkibi ko'rsatilgan qarorlari.

Prokuratura, ichki ishlar va milliy xavfsizlik xizmati organlari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya – xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya - xo'jalik faoliyatini tekshirish uchun qo'zg'atilgan jinoiy ish mavjudligi asos bo'ladi.

Rejali soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasidan olingan, nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ yoki uning tegishli hududiy bo'linmasi tomonidan berilgan ko'chirma. Bunda ko'chirma uning asliga to'g'ri ekanligi ko'rsatilgan holda tegishli imzo va muhr bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim;

tekshiruvlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasi asosida davlat soliq xizmati organining tekshiruvni maqsadlari, tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr va tekshiruv o'tkazish muddatlari ko'rsatilgan buyrug'i.

Rejadan tashqari soliq tekshiruvini o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiriladigan ob'ektning nomi, tekshiruvning maqsadlari, tekshiriladigan davr (taftish uchun), tekshiruv o'tkazish muddatlari va uni asoslovchi sabablar ko'rsatilgan tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori;

davlat soliq xizmati organining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ qarori asosida chiqargan tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi, tekshiriladigan davr ko'rsatilgan holdagi buyrug'i.

Muqobil tekshiruv o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning tekshiriladigan ob'ektning nomi, tekshiruv o'tkazish maqsadlari, muddatlari, shuningdek o'zaro munosabatlarning tekshirilishi lozim bo'lgan predmeti ko'rsatilgan holdagi muqobil tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori;

davlat soliq xizmati organining nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ qarori asosida chiqargan tekshiruvni o'tkazish maqsadlari, muddatlari va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan holdagi buyrug'i.

Tugatilayotgan yuridik shaxsni rejadan tashqari soliq tekshiruvidan o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

tugatilayotgan yuridik shaxsning arizasi yoki yuridik shaxslarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yuridik shaxsning tugatilishi to'g'risidagi bildirishi;

davlat soliq xizmati organining tekshiruv maqsadlari, tekshiruv o'tkaziladigan muddatlar va tekshiruvchi mansabdor shaxslar tarkibi ko'rsatilgan buyrug'i. (SK. 88-modda.)

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish muddatlari o'ttiz kalendar kunidan oshmasligi lozim. Alohida xollarda maxsus vakolatli organning qaroriga binoan bu muddat uzaytirilishi mumkin.

Soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kunidan oshmasligi kerak. Jumladan, kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq sohasida tekshirish muddatlarini qonun hujjatlarida ularni utkazish ko'zda tutilgan maksimal muddatdan, ya'ni 30 kalendar kunidan ortiq muddatga uzaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi¹². Alohida hollarda bu muddat nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning qarori bilan uzaytirilishi mumkin.

Soliq tekshiruvni muddatlarini uzaytirish davlat soliq xizmati organining qo'shimcha buyrug'i bilan rasmiylashtirilib, unda oldingi buyruqning ro'yxatdan o'tkazish raqami hamda sanasi, tekshiruv o'tkazishga ilgari jalb qilingan mansabdor shaxslarning familiyasi, ismi, otasining ismi ko'rsatiladi.

Qisqa muddatli tekshiruv o'tkazish muddati bir ish kunidan oshmasligi kerak.

Qisqa muddatli tekshiruv o'tkazish muddatini uzaytirishga yo'l qo'yilmaydi. (SK. 89-modda)

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rejali tarzda tekshirishlar maxsus vakolatli organning qaroriga binoan yiliga ko'pi bilan bir marta amalga oshirilishi mumkin.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'la miqdorda to'lovchi, boshqa tartib va qoidalarga rioya qiluvchi, auditorlarning har yilgi tegishli xulosalariga ega

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida». PF-4296-son. 4 aprel 2011 y.

bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish nazorat qiluvchi organlar tomonidan, qoida tariqasida, ko'pi bilan ikki yilda bir marta amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) bir yilda ko'pi bilan bir marta, belgilangan normalar va qoidalarga o'z vaqtida hamda to'liq hajmda rioya etayotgan soliq to'lovchilar moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari esa, ikki yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi, ushbu moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Mikrofirmalar, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) to'rt yilda ko'pi bilan bir marta, boshqa tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvlari (taftishlari) esa, uch yilda ko'pi bilan bir marta amalga oshiriladi.

«Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» davlat dasturiga muvofiq hamda davlat va nazorat organlarining korxonalar moliya-xo'jalik faoliyatiga aralashuvini tubdan qisqartirish, tekshirishlarni tashkil qilish tizimini yanada takomillashtirish va mansabdor shaxslarning ular faoliyatiga asossiz aralashuvi uchun javobgarligini kuchaytirish, shu asosda tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishni ta'minlash maqsadida, kuni-kecha Prezidentimizning «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4296-son Farmoni qabul qilindi.

Mazkur Farmonga binoan shunday tartib o'rnatildiki, unga asosan:

- yangi tashkil qilingan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyati ular davlat ro'yxatiga olingan paytdan boshlab, dastlabki 3 yil mobaynida rejali soliq tekshiruvlaridan o'tkazilmaydi (*aksiz solig'iga tortiladigan tovarlar ishlab chiqaruvchi kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish, shuningdek byudjet hamda markashlashtirilgan mablag'lar va resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq tekshirishlar bundan mustasno*);

-2011 yilning 1 aprelidan to 2014 yilning 1 apreligacha bo'lgan davrda soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lab kelayotgan, shuningdek ishlab chiqarish sur'atlarini barqaror o'sishi va rentabelligini ta'minlayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini soliq sohasida tekshirish taqiqlanadi (*yuridik shaxslarni tugatish chog'ida, qo'zg'atilgan jinoyat ishlari doirasida, shuningdek byudjet hamda markashlashtirilgan mablag'lar hamda resurslardan maqsadli foydalanish bilan bog'liq rejadan tashqari tekshirishlar bundan mustasno*);

- kichik tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini soliq sohasida tekshirish muddatlarini qonun hujjatlarida ularni utkazish ko'zda tutilgan maksimal muddatdan, ya'ni 30 kalendar kunidan ortiq muddatga uzaytirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashiga nazorat organlari bilan birgalikda 1 oy muddatda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirish tartib-qoidalarini takomillashtirish va soddalashtirish borasida aniq chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish va tasdiqlash topshirildi.

Unda quyidagilarni nazarda tutish belgilandi:

- tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini (soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladigan moliya va soliq hisobotini tahlil etish asosida) kameral nazorat qilish hamda dastlabki tarzda o'tkazilgan kameral nazorat natijalari byuo'yicha soliq qonunchiligi buzilishi aniqlangan hollarda tekshirishlar (taftishlar)ni tashkil qilishni keng joriy etish;

- soliq qonunchiligi buzilishlarning tizimli sabablarini aniqlash, keyinchalik ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish uchun tekshirishlardan keyingi tahlil mexanizmini tatbiq qilish;

- tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tekshirishlarni o'tkazishda unifikatsiyalashtirilgan nazorat savolnomasini ishlab chiqish va majburiy qo'llashni tatbiq etish.

Tekshirishlarni boshlash va o'tkazish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini, shuningdek bank hisob raqamlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish va boshqa xuddi

shunday xatti-harakatlar to'g'risidagi qarorlar, buning uchun O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni tekshirishni tashkil qilishni tartibga solish to'g'risida»gi 1998 yil 19 noyabrdagi PF-2114-sonli hamda «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2005 yil 14 iyundagi PF-3619-sonli farmonlarida belgilangan vakolatlarga ega bo'lmagan mansabdor shaxslar tomonidan qabul qilinayotganiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi, deb hisoblandi.

Vazirlar Mahkamasiga 1 oy muddatda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga ushbu masala bo'yicha Jinoyat kodeksi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida taklif kiritish topshirildi.

Bosh prokuraturaga tekshirishlarni tayinlash va o'tkazish, tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida o'rnatilgan tartibga so'zsiz rioya etishga yo'naltirilgan nazorat va huquqni muhofaza qilish idoralari faoliyati ustidan ta'sirchan nazoratni ta'minlash bo'yicha zarur choralarni ko'rish yuklatildi.

Davlat soliq qo'mitasiga Adliya vazirligi, Matbuot va axborot agentligi, Milliy axborot agentligi, Milliy teleradiokompaniya bilan hamkorlikda;

- mazkur farmon qoidalarining maqsadi, mazmuni va amaliy ahamiyatini ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish;

- davlat idoralari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga noqonuniy aralashish hollarini ochib beradigan, shuningdek aybdor mansabdor shaxslarga nisbatan ko'rilgan javobgarlik choralari to'g'risida radio eshittirish va teleko'rsatuvlarni, respublika hamda mahalliy matbuotda maqolalarni chop etishni muntazam ravishda tashkil etish topshirildi.

Respublika kengashiga Davlat soliq qo'mitasi, boshqa nazorat idoralari bilan birgalikda 2 hafta muddatda ushbu farmonning qoidalari taalluqli bo'lgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishni qayta ko'rib chiqish va 2011 yilgi tekshirishlar reja-jadvalidan chiqarib tashlash yuklandi.

Davlat soliq qo'mitasiga Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda 1 oy muddatda:

- qonun hujjatlariga ushbu farmondan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritish;

- idoraviy normativ hujjatlarni ushbu farmonga muvofiq holga keltirish topshirildi.

Soliq tekshiruvlari faqat yuqorida ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

Soliq tekshiruvi o'tkazilishi soliq to'lovchining faoliyatini to'xtatib qo'ymasligi kerak, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan boshqa tumanlarda (shaharlarda) davlat ro'yxatidan o'tgan tadbirkorlik sub'ektlarida soliq tekshiruvlari o'tkazish, ularning ishlab chiqarish binolari, savdo nuqtalari va xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) joyi qayerda joylashganligidan qat'i nazar, takrorlashga yo'l qo'yilmagan holda, tadbirkorlik sub'ekti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydagi tegishli davlat soliq xizmati organlari bilan bir vaqtda amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvi davlat soliq xizmati organi rahbari yoki rahbar o'rinbosari tomonidan tasdiqlangan soliq tekshiruvi o'tkazish dasturiga muvofiq amalga oshiriladi.

Soliq tekshiruvini o'tkazish dasturida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- soliq tekshiruvi o'tkazilayotganda o'rganiladigan masala yoki masalalar doirasi;

- soliq tekshiruvi soliq to'g'risidagi qaysi qonun hujjatlariga rioya etilishini o'rganish uchun o'tkaziladigan bo'lsa, shu qonun hujjatlarining ro'yxati;

- tekshiruv turidan kelib chiqqan holda boshqa ma'lumotlar.

Soliq tekshiruvini o'tkazish dasturini tuzish qoidalari nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Muqobil tekshiruv tekshirilayotgan soliq to'lovchi bilan faqat o'zaro munosabatlarga taalluqli qism yuzasidan amalga oshirilishi mumkin.

Muqobil tekshiruvlar o'tkazilayotganda soliq to'lovchilarning huzuriga kirish va ulardan tekshiruv predmetiga taalluqli bo'lmagan moliya-buxgalteriya hujjatlarini yoki boshqa hujjatlarni talab qilib olish taqiqlanadi.

Soliq tekshiruvi soliq to'lovchining tekshiruv o'tkazilayotgan yildan bevosita oldingi ko'pi bilan besh kalendar yildagi faoliyatini qamrab olishi mumkin.

Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotganda davlat soliq xizmati organlari Soliq Kodeksida belgilangan tartibda soliq to'lovchining hududi va joylarini tekshirishga, mol-mulkni inventarizatsiya qilishga, hujjatlarni talab qilib olishga, hujjatlar va predmetlarni olib qo'yishga, soliq to'lovchidan, shuningdek soliq to'lovchining rahbarlik vazifalarini yoki buxgalteriya hisobi va moliyaviy boshqaruvini amalga oshirayotgan shaxslardan, boshqa moddiy javobgar xodimlaridan tushuntirishlar olishga, bankdagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish choralarini ko'rishga, ekspertni jalb etish va ekspertiza tayinlashga, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining aniqlangan buzilishlari bartaraf etilishini talab qilishga, Soliq Kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirishga haqlidir.

Soliq tekshiruvlari o'tkazilayotgan davrda tekshirilayotgan davrning soliq hisobotiga soliq to'lovchi tomonidan o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. (SK. 91-modda)

6. Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining huquqlari va majburiyatlari

Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar quyidagi huquqlarga ega:

- o'z faoliyatlari tekshirilishi to'g'risidagi tegishli axborotga ega bo'lish;
- nazorat qiluvchi organning tekshiruvchi mansabdor shaxslaridan maxsus vakolatli organ yoki uning hududiy bo'linmalari qarorini, tekshirish o'tkazish uchun asos hisoblanuvchi boshqa hujjatlarni talab qilish, tekshiruvchilarning shaxsini tasdiqlovchi hujjatlar bilan tanishish;
- tekshirish o'tkazish uchun tegishli xujjatga ega bo'lmagan shaxslarni tekshirish o'tkazishga yo'l qo'ymaslik;
- nazorat qiluvchi organlarning vakolatiga kirmaydigan masalalarga oid talablarni bajarmaslik va tekshirish predmetiga ta'luqli bo'lmagan materiallar bilan ularni tanishtirmaslik;
- nazorat qiluvchi organlarning tekshiruvchi mansabdor shaxslaridan tekshirish tugaganidan so'ng o'n kun muddat ichida tekshirish natijalarini aks ettiruvchi hujjatlarining bir nusxasini olish;
- qonunda belgilangan tartibda tekshirish natijalari bo'yicha shikoyat qilish.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tekshiruvchilarning qonuniy talabiga binoan tekshirish o'tkazish uchun zarur bo'lgan materiallar va xujjatlarni taqdim etishga, ularni tekshirish ob'ektlariga kiritishga, tekshiruvchilarga o'z vazifalarini bajarishlari uchun ko'maklashishga majburdirlar.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish chog'ida o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan tekshirish o'tkazish bilan bevosita bog'liq bo'lgan zaruriy hujjatlar va boshqa axborotlarni talab qilish;
- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga aniqlangan qonunbuzarliklarni bartaraf etish to'g'risida bajarilishi majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;
- tegishli davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulkdorlari oldiga aybdor shaxslarning javobgarligi to'g'risidagi masalani qo'yish;
- tekshiruvga vazirliklar va idoralar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mutaxassislarini belgilangan tartibda shartnoma asosida jalb etish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda moliyaviy va ma'muriy jazo choralari qo'llash.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslarning qonuniy talablari tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan bajarish uchun majburiydir.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini teshirish chog'ida o'z vakolatlari doirasida quyidagilarni bajarishga majburdirlar:

- tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi su'ektlarga tekshirish o'tkazish huquqini beruvchi zarur hujjatlarni ko'rsatish;
- davlat siri, tijorat yoki boshqa sirlar saqlanishini ta'minlash;
- tekshiruv natijalarini dalolatnoma (ma'lumotnoma) bilan rasmiylashtirib, uning bir nusxasini tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt ixtiyorida qoldirish;
- huquqbuzarlik hollari aniqlangan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarni ko'rish.

Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qonuniy hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan faoliyatga aralashishga haqli emas.

Agar nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning faoliyatida qonun hujjatlari buzilganligi aniqlasalar, ular o'zlariga berilgan vakolat doirasida va muayan qonunbuzarlikni bartaraf etish bilan bevosita bog'liq chora-tadbirlar ko'rishlari mumkin. Nazorat qiluvchi organlarning mansabdor shaxslari qoidabuzarlik holati mavjudligidan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning boshqa qonuniy faoliyatiga aralashish yoki uni cheklash uchun asos sifatida foydalanishga haqli emas.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining noqonuniy qarorlari yoki boshqa xarajatlari natijasida xo'jalik yurituvchi sub'ektga yetkazilgan zararlar, shu jumladan boy berilgan foyda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qoplanadi.

7. Yaponiya davlati soliq tizimida soliq tekshiruvlari tajribasi

7.1.Soliq tekshiruvlari turlari va shakllari

O'z navbatida Yaponiya mamlakatida soliq tekshiruvlarini tashkil qilinishining asosiy sabablaridan biri taqdim etilgan deklaratsiyalar bo'yicha soliq to'lovlaridan qarzdorlikning aniqlanishidir. Ya'ni Soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan deklaratsiya bo'yicha qarzdorlikning to'langan yoki to'lanmaganligi aniqlashtirilishi natijasida qarzdorlik to'lanmagan yoki to'liq to'lanmaganligi aniqlansa u holda soliq organi qarz majburiyatni qayta ko'rib chiqish uchun soliq tekshiruvini amalga oshiradi.

Yaponiya davlatida soliq to'lovlari deklaratsiya taqdim etish orqali amalga oshiriladi va shu tizimga muvofiq yuqorida aytilganidek, har bir soliq to'lovchi qonundan kelib chiqqan holda o'rtacha soliqqa tortish bazasini va soliq summasini hisoblab chiqadi. Ushbu mamlakatda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi soliq to'lovchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda deklaratsiya taqdim etish orqali soliq to'lash usuli qo'llaniladi. Ushbu usulga muvofiq, soliq to'lovchi har bir soliq va majburiy to'lovlarni o'zi hisoblab chiqadi hamda shu asosda to'lov summasini belgilab deklaratsiya topshiradi. Deklaratsiya taqdim etish huquqiy xarakterga ega yoki xabar beruvchi hujjatmi degan savol ustida hozirgacha muhokama ketyapti. Haqiqatda deklaratsiya taqdim etish soliq to'lovchi uchun soliq bo'yicha qarzdorlikni belgilaydi, o'z-o'zidan uning summasi belgilanib, qarzdorlikni to'lash majburiyatini keltirib chiqaradi, bu esa soliq organi uchun ushbu qarzdorlikni undirish huquqini beradi.

Qonun hujjatlariga ko'ra deklaratsiya taqdim etilgan vaqtda qarzdorlikning to'langan yoki to'lanmaganligi aniqlashtiriladi. Agar aniqlashtirish natijasida qarzdorlik to'lanmagan yoki to'liq to'lanmaganligi aniqlansa u holda soliq organi qarz majburiyatni qayta ko'rib chiqish uchun soliq tekshiruvini amalga oshiradi.

Aytaylik, qonun doirasida o'z soliq majburiyatini aniq hisoblamagan soliq to'lovchi mavjud. Bu holda, soliq tekshiruv orqali yetishmovchilikni to'g'rilab, soliq to'lovchiga aniq soliq summasini hisoblash va soliq deklaratsiyasi to'ldirishni chuqurroq tushuntirishga erishiladi.

Yaponiya davlati soliq tizimida soliq tekshiruvlari asosan quyilagi turlarga bo'linadi:

- majburiy tekshiruv
- ixtiyoriy tekshiruv.

Majburiy tekshiruv (taftish). Ushbu tekshiruv Yaponiya davlatining "Davlat soliqlari bilan bogliq jinoyatlarga qarshi kurashish to'grisida"gi qonuniga asosan tashkil qilinadigan hamda suddan tekshiruv uchun order olinib soliq to'lovchining roziligisiz mol-mulkini qidiruv va hibsga olish ishlari amalga oshirilishi mumkin bo'lgan tekshiruvdir.

Ixtiyoriy tekshiruv. Ixtiyoriy tekshiruv majburiy bo'lgan taftishdan farqli o'laroq alohida soliqlar to'grisidagi qonunlarda belgilangan "savol-javob orqali tekshirish (so'roq qilish) vakolati" asosida olib boriladigan tekshiruvdir.

Majburiy tekshiruv (taftish)ni faqatgina mamlakatning 12 ta soliq boshqarmasi tarkibidagi "soliqdan qochish ishlari bilan ishlash departamenti" o'tkazgani uchun "taftish" deb nomlanib soliq to'lovchilar uchun eng qo'rqinchli tekshiruvdir. Mazkur tekshiruvda asosan katta miqdordagi daromadni soliqdan yashirishda gumon qilinayotgan soliq to'lovchilar tekshirilib, soliqdan qochish fakti aniqlanganda to'lanmagan soliq summasini undirish bilan birgalikda soliqdan qochuvchi jinoiy javobgarlikka tortilib to'lanmagan soliq miqdorida jarima to'laydi va 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi mumkin. Soliqdan qochishga jinoiy javobgarlik 20 yilcha oldin kuchaytirilgan. Oxirgi yillarda Yaponiyada xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan "jamiyat oldidagi ma'suliyat" va "koxona morali"ga amal qilishni talab qilib kelinmoqda. Shuning uchun soliqdan qochish kabi hatti-harakat inson joinga qasd qilish va talonchilik kabi jinoiy ishlar qatorida jamiyat manfaatlariga zid deb hisoblanib fuqarolar orasida ham bu jamiyat tomonidan kechirilmaydigan hatti-harakat degan fikr yoyilib bormoqda. Mana shunday ijtimoiy fikrga asosan oxirgi yillarda sud hukmlarida soliqdan qochish bo'yicha ishlarda ham jinoiy ishlardagidek jamiyat oldidagi ma'suliyatga juda katta ahamiyat berilmoqda. Natijada mazkur taftishlar soliq to'lovchilarning hadigiga sabab bo'lib soliqdan qochish kabi hatti-harakatlarning oldini olishga xizmat qilmoqda.

Jismoniy va yuridik shaxslarning katta miqdordagi daromadini soliqqa tortishdan yashirish ishlari bilan birgalikda spirtli ichimliklar soligi kabi bilvosita soliqlar to'grisidagi qonunlarning buzish kabi ishlar ham "Davlat soliqlari bilan bogliq jinoyatlarga qarshi kurashish to'grisidagi qonun"ga asosan mazkur taftish ob'ektlari hisoblanadi.

"Savol-javob orqali tekshirish (so'roq qilish) vakolati" haqidagi qonun normasida qisqacha qilib aytganda "tegishli xodim zarurat tugilganda soliq to'lovchiga savol berish va buxgalteriya va boshqa hujjatlarni tekshirish vakolatiga ega" deb belgilangan.

7.2. Soliq tekshiruvlari o'tkazish tartibi Yaponiya tajribasi:

Soliq tekshiruvini o'tkazish yoki o'tkazmaslik tekshiruvchi inspektorning "ratsional qarori"ga asoslanadi va soliq to'lovchiga tekshiruv o'tkazish sabablarini ko'rsatish tekshiruvning majburiy sharti hisoblanmaydi. Mabodo sababi ko'rsatilsa ham asosiy sababni ko'rsatishga ehtiyoj bo'lmay, masalan "deklaratsiyada ko'rsatilgan daromad summasini to'griligini tekshirish" yoki "deklaratsiyada xato yo'qligi tekshirish" kabi sabablar bilan chegaralaniladi.

Amalda tekshiruv o'tkazishda ham "tekshiruv o'tkazish sababi" bilan bogliq muammo deyarli tugilmay, odatda "tekshirish uchun keldik" kabi so'zlar yetarli. Buning sababi, Yaponiyada yalpi deklaratsiya tizimi joriy qilinganidan keyingi 60 yildan ortiq tajriba bo'lib, soliq to'lovchilarning soliq tekshiruviga bo'lgan munosabati va tushunish darajasi yuqoriligi deb aytish mumkin.

Yuqorida Yaponiyadagi soliq tekshiruv uchun vakolatga oid qonunchilik normalari haqida ma'lumot berdik. Unda asosan tekshiruv uchun ma'sul shaxsning harakat erkinligi keng ta'minlangan.

Yaponiya davlatida odatda tekshirilishi kerak bo'lgan davr o'tgan 3 yil bo'lsada, undan oldingi va keyingi davr hujjatlarini ham tekshirish mumkin. Ya'ni soliq tekshiruv paytida o'tgan 3 yilning hujjatlari tekshirilsada soliqqa tortish mumkin bo'lgan muddat o'tgan 5 yilgacha deb belgilangan. Hujjatlarni soxtalashtirish va yashirish kabi noqonuniy hatti-harakatlar

aniqlanganda esa istisno tariqasida o'tgan 7 yil mobaynidagi daromadni soliqqa tortish mumkin bo'lgani uchun bunday holatlarda davlat soliq boshqarmasi yoki inspeksiya boshligining qarori bilan o'tgan 7 yil davomidagi hujjatlarni tekshirish mumkin. Yuqoridagilardan tashqari Yaponiya davlatida hali deklaratsiya vaqti kelmagan bo'lsada tekshiruv o'tkazilayotgan yilning hujjatlarini ham tekshirish mumkin.

Yaponiya davlatida soliq organlari tomonidan amalga oshiriladigan soliq tekshiruv asosan 5 kungacha davom etadi. Lekin ushbu muddat ishning holatiga qarab o'zgarib turishi ham mumkin.

Yaponiya davlatida soliq idorsining bir nafar soliq tekshiruvini o'tkazuvchi inspektor yil davomida o'rtacha 30-40 ta yuridik shaxs yoki 30 tagacha (asosan yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shugullanayotgan) jismoniy shaxslarni tekshirishi mumkin.

Mazkur mamlakatda yil davomida yuridik shaxslarning 10 foizi, jismoniy shaxslarning esa 4 foizi soliq tekshiruvda qamrab olinadi.

Soliq to'lovchi tekshiruv natijasida belgilangan soliq summasidan norozi bo'lib qayta (to'grilangan) deklaratsiya topshirmay yuqoridagi soliqni to'gri belgilash haqida buyruqni olsa, davlat soliq boshqarmasi va inspeksiyasidan alohida instansiya bo'lgan soliqqa oid shikoyatlarni ko'rib chiquvchi arbitrajga yozma shikoyat xati bilan murojaat qilib ishni tekshirishni talab qilishi mumkin.

Arbitraj tomonidan o'tkazilgan tekshiruvdan ham norozi bo'lsa sudga da'vo arizasi bilan chiqishi mumkin. Lekin arbitrajga yozma shikoyat qilmasdan to'ppa-to'gri sudga da'vo arizasi bilan chiqishi mumkin emas. Aytib o'tish kerakki, Yaponiyada xo'jalik sudlari mavjud emas.

Soliq to'lovchi tekshiruvga yordam berishi uchun tekshiruvdan bosh tortgan soliq to'lovchilarga javobgarlik belgilangan. Buning sababi, soliq tekshiruv to'gri soliqqa tortishni ta'minlash uchun zarur ma'muriy tamoyil (protsedura) deb topilib, mazkur tekshiruv faqatgina soliq to'lovchining tushunish darajasi va hamkorligiga suyanadigan bo'lsa amalda savol berish va tekshiruv o'tkazish mumkin bo'lmay qolishi, va bu holatda tekshiruvning samarali bo'lishiga umid qilib bo'lmaydi. Bundan tashqari har bir soliq to'lovchi tekshiruvga bir xil darajada yordam beradi deb aytib ham bo'lmaydi.

Shuning uchun har bir soliq turi bo'yicha qonunlarda, agar tekshiruv paytida soliq to'lovchi tekshiruvdan bosh tortsa, savollarga javob bermasa, yoki yolg'on javob bersa 200 ming yen (2200 AQSh dollari atrofida) gacha jarima va 1 yilgacha ozodlikdan mahrum qilinishi belgilangan.

Natijada mazkur tekshiruv bevosita majburiy tekshiruv bo'lmasada oddiy qilib aytganda "ixtiyoriy" emas. Javobgarlik belgilangan uchun soliq to'lovchilardan hamkorlik qilishni talab qilish orqali "bilvosita majburiy" tekshiruv deb atash mumkin. Lekin amaliyotda ushbu javobgarlik normalari deyarli qo'llanilmay, soliq to'lovchi tekshiruv paytida tekshiruvchiga hamkorlik qilmagan taqdirda ham boshqa taxminiy usullar bilan soliqlar hisoblanib (soliqqa tortilib), adolatli soliqqa tortish ta'minlanadi.

Yaponiyada soliqlarni taxminiy hisoblab soliqqa tortish holatlari soni yuridik va jismoniy shaxslarni qo'shganda 1 yilda 1000 dan ortiqni tashkil etadi.

7.3. Yaponiya umumiy tekshiruv o'tkazish metodikasi

Yaponiya davlatida tekshiruv o'tkazishning aniq (asosiy) metodikasi qonunchilikda chegaralanmagan bo'lib tekshiruvchi inspektorning ixtiyorida bo'lgani uchun, tekshiruv ob'ektining faoliyat turi, oldingi tekshiruv natijalari, tekshiruvchi inspektorning tajribasi va qobiliyatini hisobga olgan holda rahbar asosiy tekshiruv usullarini ko'rsatib beradi.

Umumiy tekshiruv o'tkazish metodikasi quyidagicha:

A) Oldindan xabar berish. Soliq tekshiruv asosan soliq to'lovchining oldiga borib o'tkazilgani uchun tekshiruvga boriladigan kun, vaqt va tayyorlab qo'yilishi lozim bo'lgan hujjatlar soni soliq to'lovchiga oldindan xabar qilinadi. Bu xabar asosan telefon orqali yetkazilib yozma xabarnoma berilmaydi.

B) Tekshiruv o'tkazish joyi. Tekshiruv birinchi kundan boshlab iloji boricha soliq to'lovchining joyi (korxonasi, idorasi, do'kon, zavod va hokazo) ga borib o'tkaziladi. Buning sababi, soliq tekshiruvining maqsadi topshirilgan deklaratsiya va hisobotlarning haqqoniy va ishonchligini tekshirish bo'lib, uning uchun esa soliq to'lovchining haqiqiy faoliyati va buxgalteriya hujjatlari bilan bevosita tanishish zarur deb hisoblanadi.

Soliq to'lovchi noqonuniy hatti-harakatlarni amalga oshirayotgan bo'lsada uning amalga oshirish usuli va ushbu hatti-harakatni aniqlash uchun kalavanning uchi nima va qayerdaligini bilib bo'lmaydi.

Bundan tashqari boshidan buxgalteriya hujjatlarini tekshirib xatolarni topilsada, soliqqa oid huquqbuzarlikni aniqlab olish qiyin.

Shuning uchun, oldin soliq to'lovchi olib borayotgan faoliyatning haqiqiy ahvoli bilan tanishib keyin buxgalteriya hujjatlari tekshiriladi.

V) Soliq tekshiruvi yakuni bo'yicha bayonnoma tuzish. Tekshiruv yakunlangach, tekshirilgan davr, tekshiruv o'tkazilgan muddat, tekshiruv jarayoni (suhbatlashilgan shaxs, tekshirilgan hujjatlar va hokazo) haqidagi ma'lumotlardan tashqari huquqbuzarlik va xatolar bor-yo'qligi, usuli va summasi kabi tekshiruv natijalari tushirilgan tekshiruv yakuni bo'yicha protokol tuzilib davlat soliq boshqarmasi yoki inspeksiyasi rahbari tomonidan ma'qullanadi. Lekin soliq to'lovchining imzosi talab qilinmaydi.

G) Qayta (to'grilangan) deklaratsiya topshirish va soliqni to'gri belgilash haqida buyruq. Tekshiruv yakuni bo'yicha tuzilgan protokol ma'qullangach, oldin topshirilgan deklaratsiyada xato va kamchiliklar aniqlangan bo'lsa ularni tuzatilgan deklaratsiya (to'grilangan deklaratsiya) topshirtiriladi.

Soliq to'lovchi tekshiruv natijasidan norozi bo'lib qayta (to'grilangan) deklaratsiya topshirmasa davlat soliq boshqarmasi yoki inspeksiyasi rahbari nomidan tekshiruv natijalariga binoan hisoblangan daromad summasi, soliqqa tortish bazasi va unga to'gri keladigan soliq summasi yozma ravishda belgilanib (soliqni to'gri belgilash haqida buyruq sifatida) soliq to'lovchiga yuboriladi.

Nazorat savollari

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilishning mohiyati nimada?
2. Tekshiruvlar qanday turlarga bo'linadi?
3. Nazoratning qanday shakllari mavjud?
4. Tekshiruv qanday turlarga bo'linadi?
5. Davlat nazoratining prinsiplari nimadan iborat?
6. Tekshiruvni o'tkazishga asos bo'luvchi hujjatlar?
7. Rejadan tashqari tekshiruv o'tkazish tartiblari nimalardan iborat?
8. Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni huquqlari nimadan iborat?
9. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarning huquqlari va majburiyatlarini tariflang?
10. Qisqa muddatli tekshirishlar nima maqsadda o'tkaziladi?
11. Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining joylardagi komissiyalari nima ishlarni amalga oshiradi?
12. Nazorat qiluvchi organlar tomonidan o'tkaziladigan, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish qay tartibda amalga oshiriladi?
13. Rejali tekshirishlar deganda qanday tekshirishlarni tushunasiz?
14. Qisqa muddatli tekshirishlar ham rejali bo'lishi mumkinmi?

4.Mavzu: Xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatining xujjatli tekshiruvlarini tashkil qilish va o'tkazish tartiblari

Reja:

1. Xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatining xujjatli tekshiruvlarini tashkil qilish
- 2.Hududlar va joylarni ko'zdan kechirish. Mol-mulkni inventarizatsiyadan o'tkazish
3. Hujjatlarni va predmetlarni talab qilib olish va olib qo'yish
- 4.Soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish

Tayanch so'z va iboralar

- | | |
|---------------------------------|------------------------------|
| 1. Tekshirish | 6. Qisqa muddatli tekshirish |
| 2. Muqobil tekshirish | 7. Tekshiruvchi |
| 3. Kompleks tekshirish | 8. Mansabdor shaxslar |
| 4. Nazorat tartibida tekshirish | 9. Huquq |
| 5. Qarama-qarshi tekshirish | 10. Majburiyat |

1. Xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatining xujjatli tekshiruvlarini tashkil qilish

Xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatining xujjatli tekshiruvlari rejali va rejadan tashqari amalga oshirilishi mumkin.

Xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatining rejali soliq tekshiruvi (taftishi) – tekshiruvlarni amalga oshirishning nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan muvofiqlashtirish rejasi asosida o'tkaziladi.

Xo'jalik sub'ektlari moliya-xo'jalik faoliyatining rejadan tashqari soliq tekshiruvi (taftishi) quyidagi hollarda o'tkaziladi:

yuridik shaxs tugatilayotganda;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlaridan kelib chiquvchi tekshiruvlarni o'tkazish zarur bo'lganda;

davlat soliq xizmati organiga soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq to'lovchi tomonidan buzilganligi hollari haqida qo'shimcha ma'lumotlar tushganda.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga (taftishga), O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq xizmati organlari rahbariyati tomonidan tasdiqlangan nizom asosida maxsus shahodat sinovidan o'tgan davlat soliq xizmati mansabdor shaxslari qatnashish huquqiga ega bo'ladilar.

Soliq to'lovchilarning moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha tekshirishlarni amalga oshirishning dastlabki bosqichlaridan biri bu-tekshirishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rishdir. Biz quyida dastlab, soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan rejali soliq tekshiruvi, ya'ni soliq

tekshiruvlarining asosiy shakllaridan biri bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftish)ga tayyorgarlik ko'rish jarayonini yoritishga harakat qilamiz.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliya-xo'jalik faoliyati tekshiruvi (taftish)ni o'tkazishga tayyorgarlik soliq xizmati organlarida tekshirishlar rejasini Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi tasdiqlaganidan so'ng darhol amalga oshiriladi. Tezkor axborot mavjudligi munosabati bilan tekshirish rejasiga kiritish uchun taqdim etilgan korxonalarini tekshirish bo'yicha tayyorgarlik mazkur korxonaga doir axborot olinishi bilan darhol boshlanadi.

Tekshirish o'tkazishdan oldin soliq organlarida xo'jalik yurituvchi sub'ekt haqida bor ma'lumotlarni o'rganib chiqilib, tekshirishga puxta tayyorgarlik ishlari o'tkazilishi va quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

- tekshirish o'tkaziladigan davr uchun soliq inspeksiyasiga soliq to'lovchilar tomonidan taqdim etilgan moliyaviy va soliq hisobotlari, o'rganish, soliq va majburiy to'lovlar va boqimandalar holatini tahlil qilish;

- tegishli organ va tashkilotlardan tekshirilishi lozim bo'lgan soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatiga doir ma'lumotlarni to'plash, ularni tahlil qilish va mavjud kamchiliklarni aniqlash;

- soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha avval o'tkazilgan tekshirishlar natijalari (tekshirish dalolatnomasi, tekshirish natijasi bo'yicha soliq organining qarori, soliq to'lovchiga nisbatan qo'llanilgan javobgarlik choralari va ularni soliq to'lovchilar tomonidan bajarilish holatlarini o'rganish;

- soliq tekshiruvi qatnashchilari (uni amalga oshiruvchilar) tarkibi va sonini aniqlash, ularning majburiyat hamda vazifalarini taqsimlab berish;

- soliq tekshiruvi turi va muddatidan kelib chiqqan holda boshqa nazorat organlaridan mutaxassislarni jalb qilishni tashkil qilish;

- soliq turlarini tekshirishda savollar tayyorlash va ularning ro'yxatini tuzish;

- tekshirilishi rejalashtirilgan soliq to'lovchining faoliyatini tekshirish yuzasidan "soliq tekshiruvi dasturi"ni tayyorlash va tasdiqdan o'tkazish;

- soliq to'lovchining faoliyatini tekshirish yuzasidan tekshiruvchilar, tekshirish muddati va maqsadi ko'rsatilgan soliq organining buyrug'ini tayyorlash va uni ro'yxatdan o'tkazish kabi tadbirlar amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi soliq tekshiruvini o'tkazishni boshlashdan oldin, naqd pul tushumlariga taalluqli masalalar yuzasidan qisqa muddatli tekshiruv o'tkazilayotganda esa soliq tekshiruvi tugallaniguna qadar:

- soliq to'lovchini soliq tekshiruvining maqsadi bilan tanishtirishi;

- o'z xizmat guvohnomasini ko'rsatishi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tekshirishlarni qayd etish daftarini to'ldirishi;

- soliq to'lovchiga xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirishlarni amalga oshirishning muvofiqlashtirish rejasidan ko'chirma nusxasini yoki nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi maxsus vakolatli organning rejadan tashqari soliq tekshiruvi yoki muqobil tekshiruv o'tkazish to'g'risidagi qarori ko'chirma nusxasini, shuningdek davlat soliq xizmati organining tegishli soliq tekshiruvi tayinlanganligi to'g'risidagi buyrug'ining hamda soliq tekshiruvini o'tkazish dasturining ko'chirma nusxalarini topshirib, tilxat olishi shart.

Yuqoridagi hujjatlar soliq to'lovchiga topshirilgan payt soliq tekshiruvini o'tkazish boshlangan payt deb hisoblanadi. Soliq to'lovchining mazkur hujjatlarni olishdan bosh tortganligi soliq tekshiruvini bekor qilish uchun asos bo'lmaydi. Soliq to'lovchi mazkur hujjatlarni olishdan bosh tortgan taqdirda, davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxsi tomonidan uning o'zi va soliq to'lovchi imzolaydigan dalolatnoma tuziladi. Soliq to'lovchi ushbu dalolatnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bu haqda dalolatnomaga tegishli yozuv kiritiladi. Bunday holda dalolatnoma imzolangan payt soliq tekshiruvini o'tkazishning boshlanishi hisoblanadi.

O'z faoliyatlari
tekshirilishi
to'g'risidagi tegishli
axborotga ega bo'lish

Soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxslarini soliq tekshiruvini o'tkazish uchun hududga va joylarga qo'yishi shart.


Soliq to'lovchi davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslarini quyidagi hollarda soliq tekshiruvini o'tkazish uchun hududga va joylarga qo'ymaslikka haqli, agar:

tekshiruvchi mansabdor shaxs tekshiruvni tayinlash to'g'risidagi buyruqda ko'rsatilmagan bo'lsa va (yoki) o'z xizmat guvohnomasini ko'rsatmagan bo'lsa;

soliq tekshiruvini o'tkazishning buyruqda ko'rsatilgan muddatlari boshlanmagan yoki o'tib ketgan bo'lsa;


tekshiruvchi mansabdor shaxs tekshiruvlarni qayd etish daftarini to'ldirishdan bosh tortsa.

Soliq tekshiruvini o'tkazuvchi davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsiga soliq tekshiruvini o'tkazish uchun hududga va joylarga kirishiga to'sqinlik qilinganda, uning o'zi va soliq to'lovchi tomonidan imzolanadigan dalolatnoma tuziladi. Soliq to'lovchi mazkur dalolatnomani imzolashdan bosh tortganda dalolatnomaga tegishli yozuv kiritiladi.




Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxslariga soliq to'lovchining hududiga va joyiga (turar joy binolari bundan mustasno) kirishiga to'sqinlik qilganlik, xuddi shuningdek davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik qonunda nazarda tutilgan javobgarlikka sabab bo'ladi.

Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslarining huquqlari



Davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qilganlik uchun javobgarlikka tortilganlik soliq tekshiruvini bekor qilish uchun asos bo'lmaydi.



Soliq tekshiruvini o'tkazayotgan davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining qonunda belgilangan hollardan yoki sud qarori asosida amalga oshiriladigan hollardan boshqa hollarda turar joylarga ularda yashovchi jismoniy shaxslarning xohish-irodasidan tashqari yoki unga qarshi tarzda kirishiga yo'l qo'yilmaydi. (SK. 92-modda)

2. Hududlar va joylarni ko'zdan kechirish. Mol-mulknı inventarizatsiyadan o'tkazish

Soliq tekshiruvini o'tkazayotgan davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxslari, zarurat bo'lganda, soliq to'lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalanilayotgan yoki soliq solish ob'ektlari bilan bog'liq hududlarni, ishlab chiqarish, omborxonalar, savdo binolarini hamda boshqa binolar, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirishi, shuningdek soliq to'lovchining mol-mulkini inventarizatsiyadan o'tkazishi mumkin. Ko'zdan kechirish o'tkazilayotganda soliq tekshiruvi qaysi shaxsга nisbatan amalga oshirilayotgan bo'lsa, o'sha shaxs yoki uning vakili qatnashishga haqli. Ko'zdan kechirish o'tkazilayotganda zarur hollarda foto va kinosuratga olinishi, videoyozuvga tushirilishi, hujjatlardan ko'chirma nusxalar olinishi mumkin, bu haqda bayonnomada ko'rsatiladi. Ko'zdan kechirish natijalari bo'yicha Soliq kodeksining 100-moddasida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda bayonnoma tuziladi.

Soliq tekshiruvlarini o'tkazish vaqtida mol-mulkni inventarizatsiyadan o'tkazish O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi, «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni (1996 yil 30 avgutdagi №279-I sonli), 4-son Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) («Tovar-moddiy zaxiralari», Adliya vazirligi tomonidan 2006 yil 17 iyulda 1595-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan), 5-son BHMS («Asosiy vositalar», Adliya vazirligi tomonidan 2004 yil 20 yanvarda 1299-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) va 19-son BHMS («Inventarizatsiyani tashkil qilish va o'tkazish», Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 2 noyabrda 833-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan)ga muvofiq tarzda amalga oshiriladi.

Inventarizatsiyani, soliq tekshiruvini o'tkazish, soliq to'lovchilar to'g'risida boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar tahlili va (yoki) ularning hududlari va joylarini ko'zdan kechirish jarayonida buxgalteriya va soliq hisobida aks ettirilmagan tovar-moddiy boyliklar, asosiy vositalar yoki boshqa mol-mulk mavjud yoxud buxgalteriya va soliq hisobi hujjatlarida tegishli ma'lumotlar bo'lgani holda ushbu mol-mulk va qimmatliklar mavjud emas deb taxmin qilishga asos bo'lganda, shuningdek boshqa zarur hollarda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Qayerda bo'lishidan qat'i nazar, tashkilotga tegishli bo'lgan, shuningdek unga tegishli bo'lmagan, biroq buxgalteriya hisobida qayd etilgan (mas'ul saqlashda turgan, shartnomaga ko'ra ijaraga olingan, qayta ishlashga olingan, komissiyaga qabul qilingan) mol-mulk, shuningdek muayyan sabablarga ko'ra hisobga olinmagan mol-mulk va majburiyatlarning barcha turlari inventarizatsiyadan o'tkazilishi mumkin.

Inventarlashning asosiy maqsadlari mol-mulkning haqiqatda mavjudligini aniqlash, haqiqatda mavjud mol-mulkni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bilan qiyoslash, majburiyatlar hisobda to'g'ri aks ettirilganligini tekshirishdan iboratdir. Joylashgan yeri va barcha turdagi moliyaviy majburiyatlaridan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi sub'ektning barcha mol-mulki inventarlanishi kerak. Bundan tashqari, ishlab chiqarish zaxiralari va xo'jalik yurituvchi sub'ektga qarashli bo'lmagan, lekin buxgalteriya hisobida qayd etilgan (mas'uliyatli saqlanishda bo'lgan, ijaraga olingan, qayta ishlash uchun olingan) boshqa turdagi mol-mulklar, shuningdek, biror-bir sababga ko'ra hisobga olinmagan mol-mulk inventarlanishi kerak.

Mol-mulkni inventarlash uning joylashgan yeri va moddiy javobgar shaxs bo'yicha o'tkaziladi. Inventarlashni o'tkazish uchun xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tarkibida:

xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari yoki uning o'rinbosari (komissiya raisi);

bosh buxgalter;

boshqa mutaxassislar (muhandislar, iqtisodchilar, texniklar va hokozolar) bo'lgan doimiy ishlaydigan inventarlash komissiyalari tuziladi.

Inventarlash komissiyasi tarkibiga xo'jalik yurituvchi sub'ektning ichki audit vakillari kiritilishi mumkin. Komissiya tarkibiga inventarlanayotgan boyliklar, narxlar va birlamchi hisobni yaxshi biladigan tajribali xodimlar kiritilishi kerak. Birgina moddiy javobgar shaxslarda xuddi shu xodimni ketma-ket ikki marta ishchi inventarlash komissiyasining raisi qilib tayinlash taqiqlanadi.

Inventarlash komissiyalari a'zolari tovarlar, materiallar va boshqa boyliklar kamomadi va ishlatib yuborgani yoki ortiqcha chiqqanini yashirish maqsadida ro'yxatga boyliklarning haqiqatdagi qoldiqlari to'g'risida ataylab noto'g'ri ma'lumotlarni kiritganlik uchun belgilangan tartibga muvofiq javobgarlikka tortiladilar. Mol-mulkning haqiqatdagi mavjudligini tekshirishni

boshlashdan oldin inventarlash komissiyasi inventarlash paytidagi eng so'nggi kirim-chiqim hujjatlarini yoki moddiy vositalar va pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotlarni olishi kerak.

Inventarlash komissiyasining raisi hisobotlarga ilova qilingan barcha kirim-chiqim hujjatlariga "inventarlashgacha ...da (sana)" deb ko'rsatgan holda viza qo'yadi, bu esa buxgalteriyaga hisob ma'lumotlari bo'yicha inventarlashni boshlash paytida mol-mulk qoldiqlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Moddiy javobgar shaxslar inventarlash boshlanishiga qadar mol-mulkka doir barcha kirim-chiqim hujjatlari buxgalteriya yoki komissiyaga topshirilgani va ular javobgarligiga kelib tushgan barcha boyliklar kirim qilingani, chiqib ketganlari esa chiqimga hisobdan o'chirilgani to'g'risida tilxat beradilar. Mol-mulkni sotib olishga hisobot beriladigan summalari yoki uni olish uchun ishonchnomalari bo'lgan shaxslar ham shunday tilxat beradilar.

Inventarlashni o'tkazish oldidan ishchi inventarlash komissiyalari a'zolariga buyruq, komissiya raislariga esa plombir topshiriladi (inventarlash komissiyasi ishlaydigan butun ish vaqtida plombir komissiya raisida saqlanadi). Buyruqda inventarlashni o'tkazishga doir ishni boshlash va tugatish muddatlari belgilanadi.

Soliq to'lovchining mol-mulkini inventarizatsiyadan o'tkazish asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish zaxiralari, pul mablag'lari va boshqa moliyaviy aktivlarni inventarizatsiyadan o'tkazishni o'z ichiga oladi.

Asosiy vositalarni inventarizatsiyadan o'tkazishni boshlashdan avval quyidagilar tekshiriladi:

asosiy vositalarni hisobga olish bo'yicha inventarlash kartochkalari, inventarlash xatlovi va ro'yxatlari mavjudligi va holatini;

texnik pasportlar yoki boshqa texnik hujjatlar mavjudligi va holatini;

sub'ekt ijaraga, mas'ul saqlashga topshirgan yoki qabul qilgan asosiy vositalarning hujjatlari mavjudligini. Hujjatlar bo'lmaganda ular olinishi yoki rasmiylashtirilishini ta'minlash zarur.

Nomoddiy aktivlar inventarizatsiyadan o'tkazilganda quyidagilarni tekshirish tavsiya etiladi:

a) nomoddiy aktivlar hisobda to'g'ri va o'z vaqtida aks ettirilganligini;

b) tashkilotning undan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlarning (patentlar, litsenziya bitimlari, tovar belgilari va b.) mavjudligini.

Mol-mulk, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari moddiy javobgar va mansabdor shaxs (soliq to'lovchi) hozirligida olinadi. Agar mol-mulk bir necha kun davomida inventarizatsiyadan o'tkazilsa, inventarizatsiyalanayotgan mol-mulk saqlanadigan xona har kuni moddiy javobgar shaxs hozirligida muhrlanadi. Inventarizatsiyadan o'tkaziladigan asosiy vositalar, tovar-moddiy boyliklar ro'yxati tuzilib, uni soliq xizmati organi xodimi, soliq to'lovchining moddiy javobgar va mansabdor shaxslari imzolaydilar.

Asosiy vositalar ob'ektning asosiy maqsadiga ko'ra nomlanishi bo'yicha ro'yxatga kiritiladi. Agar ob'ekt tiklangan, rekonstruksiya qilingan, kengaytirilgan yoki qayta jihozlangan va buning natijasida uning asosiy maqsadi o'zgargan bo'lsa, u yangi maqsadiga muvofiq nomlanishda ro'yxatga kiritiladi. Bir xil qiymatli, bitta sex yoki bo'limga bir vaqtda kelib tushgan va bitta namunaviy inventarlash kartochkasida hisobga olinadigan xo'jalik anjomlari, asbob-uskunalar, dastgohlar va boshqalarning bir turdagi predmetlari inventarlash ro'yxatlarida ushbu predmetlar miqdorini ko'rsatgan holda nomlanishi bo'yicha qayd etiladi. Hisobga qabul qilinmagan ob'ektlar, shuningdek hisob registrilarida ularni tavsiflovchi ma'lumotlar keltirilmagan yoki noto'g'ri ma'lumotlar keltirilgan ob'ektlar aniqlanganda tekshiruvchi inventarlash ro'yxatiga ushbu ob'ektlar bo'yicha yetishmayotgan, to'g'ri ma'lumotlarni va texnik ko'rsatkichlarni kiritadi. Inventarizatsiyalashda aniqlangan hisobga olinmagan ob'ektlar (asosiy vositalar) joriy qiymatiga ko'ra baholanadi. Tugallanmagan kapital qurilish inventarizatsiyadan o'tkazilganda konservatsiyalangan ob'ektlar va qurilishi vaqtincha to'xtatilgan ob'ektlar holati tekshiriladi.

Tovar-moddiy zaxiralar inventarlash ro'yxatlarida har bir alohida nomlanishi bo'yicha nomenklatura raqami, turi, guruhi, artikuli, navi va miqdori ko'rsatilgan holda aks ettiriladi. Tovar-moddiy zaxiralar qoldiqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni moddiy javobgar shaxsning og'zaki tushuntirishlariga tayanib yoki ularning haqiqatda mavjudligini tekshirmay turib, hisob ma'lumotlariga ko'ra ro'yxatlarga kiritish taqiqlanadi. Boshqa tashkilotlar omborlarida saqlanayotgan tovar-moddiy zaxiralar ushbu tovar-moddiy zaxiralar mas'ul saqlashga topshirilganligini tasdiqlovchi hujjatlar asosida, ularning nomi, miqdori, navi, haqiqiy qiymati (hisob ma'lumotlariga ko'ra), yuk saqlashga topshirilgan sana, saqlash joyi, hujjatlar raqami va tuzilgan sanasi ko'rsatilgan holda inventarlash ro'yxatlariga kiritiladi. Kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralar kirim qilinmagani dalillari aniqlanganda ularni qabul qilgan shaxslarning tushuntirish berishi talab qilinishi mumkin.

Inventarlash paytida hisob ma'lumotlarida tafovutlar aniqlangan boyliklar bo'yicha colishtirish qaydnomalari tuziladi. Mazkur qaydnomalarda inventarlash natijalari, ya'ni buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bo'yicha ko'rsatkichlar va inventarlash ro'yxatlari (dalolatnomalari) ma'lumotlari o'rtasidagi tafovutlar aks ettiriladi. Tovar-moddiy boyliklar ortiqcha yoki kam chiqqan hollarda ularning qiymati solishtirish qaydnomalarida buxgalteriya hisobidagi bahosiga muvofiq keltiriladi. Inventarlash natijalarini rasmiylashtirish uchun yagona registrlar qo'llaniladi.

Korxonaga tegishli bo'lmagan, lekin buxgalteriya hisobida qayd etilgan (mas'uliyatli saqlanishda bo'lgan, ijaraga olingan, qayta ishlash uchun olingan) boyliklarga alohida solishtirish qaydnomalari tuziladi.

Tekshirishlar paytida aniqlangan boyliklarning haqiqatda mavjudligi buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan farqlari quyidagicha tartibga solinadi:

- ortiqcha chiqqan asosiy vositalar, moddiy boyliklar, pul mablag'lari va boshqa mol-mulk kirim qilinishi va tegishli xo'jalik yurituvchi sub'ektning moliyaviy natijalariga yoki byudjet tashkilotini moliyalashni (fondlarni) ko'paytirishga qayd etilishi, keyinchalik ortiqcha chiqish sabablari va aybdor shaxslar aniqlanishi kerak;

- belgilangan me'yorlar doirasida boyliklarning yo'qolishi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rahbarlarining farmoyishiga ko'ra ishlab chiqarish va muomala chiqimlariga yoki byudjet tashkilotini moliyalashni (fondlarni) kamaytirishga hisobdan o'chiriladi. Yo'qolish me'yorlari haqiqatda kamomad aniqlangan taqdirdagina qo'llanishi mumkin.

Bunda belgilangan me'yorlar doirasida boyliklarning yo'qolishi boyliklar kamomadi qayta navlarga ajratishdagi ortiqcha mol bilan hisobga olgach belgilanishiga e'tibor beriladi. Agar belgilangan tartibda o'tkazilgan qayta navlarga ajratish bo'yicha hisobga olingandan keyin ham boyliklar kamomadi mavjud bo'lsa, tabiiy yo'qolish me'yorlari kamomad aniqlangan boyliklar nomi bo'yichagina qo'llanishi mumkin.

Tasdiqlangan me'yorlar bo'lmagan taqdirda yo'qolish me'yorlardan ortiqcha kamomad sifatida qaraladi;

- yo'qolish me'yorlaridan ortiqcha boyliklar kamomadi, shuningdek, boyliklar buzilishidan ko'rilgan talafotlar aybdor shaxslarga yuklanadi.

Suiiste'molliklar oqibati bo'lgan kamomad va talafotlar aniqlanganda tegishli materiallar kamomad va talafotlar aniqlangandan so'ng 5 kun davomida tergov organlariga berilishi kerak, aniqlangan kamomad va talafotlar summasiga esa fuqarolik da'vosi taqdim etiladi;

- boyliklarning yo'qolish va boyliklar buzilishi tufayli talafotlar me'yorlaridan ortiqcha kamomadi, kamomad va buzilishlarning aniq aybdorlari aniqlanmagan hollarda, Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi to'g'risidagi nizomga muvofiq xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ishlab chiqarish va muomala chiqimlariga hisobdan chiqarilishi yoki byudjet tashkilotida moliyalashni (fondlarni) kamaytirishga qayd etilishi mumkin.

Bunda boyliklarning yo'qolish va boyliklar buzilishi tufayli talafotlar me'yorlaridan ortiqcha kamomadini hisobdan o'chirishni rasmiylashtirish uchun taqdim etiladigan hujjatlarda

ana shunday kamomad va talafotlarning oldini olish bo'yicha qabul qilingan choralar ko'rsatilishi kerak.

Boyliklar buzilishi fakti to'g'risidagi xulosalar texnik nazorat bo'limi yoki sifat bo'yicha tegishli inspeksiyalardan olinishi kerak. Tabiiy yo'qolish me'yorlaridan ortiqcha boyliklar kamomadi va buzilishini hisobdan o'chirishni rasmiylashtirish uchun taqdim etiladigan hujjatlarda tergov yoki sud organlarining aybdor shaxslar yo'qligini tasdiqlaydigan yoki aybdor shaxslardan zarar undirilishi rad etilgan qarorlari yoki texnik nazorat bo'limi yoki tegishli ixtisoslashtirilgan tashkilotlardan (sifat bo'yicha inspeksiyalar va hokazolardan) olingan boyliklar buzilishi fakti to'g'risida xulosa bo'lishi kerak.

Qayta navlarga ajratish natijasida ortiqcha chiqish va kamomadlarning o'zaro hisobga olinishiga birgina tekshirilayotgan davr uchun, birgina tekshirilayotgan shaxsda, birgina nomdagi tovar-moddiy boyliklarga nisbatan va ishonchli shaxs ruxsatiga ko'ra aynan bir xil miqdorlarda istisno tarzida yo'l qo'yilishi mumkin. Yo'l qo'yilgan qayta navlarga ajratish to'g'risida moddiy javobgar shaxslar ishonchli shaxsga batafsil tushuntirish taqdim etadilar. Moddiy javobgar shaxslar aybi bo'lmagan holda qayta navlarga ajratishda hosil bo'lgan qiymatdagi kamomad farqiga inventarlash bayonnomalarida bunday farq aybdor shaxslarga kiritilmasligi xususida mufassal tushuntirish berilishi kerak.

3. Hujjatlarni va predmetlarni talab qilib olish va olib qo'yish

Davlat soliq xizmati organining soliq tekshiruvini o'tkazayotgan mansabdor shaxslari tekshirilayotgan soliq to'lovchidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish hamda to'lash bilan bog'liq hujjatlarni talab qilib olishga haqli.

Soliq to'lovchining faoliyatini to'xtatib qo'yishga olib keladigan hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi.

Hujjatlar va predmetlarni tungi vaqtda – soat 23-00 dan 6-00 gacha – olib qo'yish man etiladi.

Soliq tekshiruviga taalluqli bo'lmagan hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish man etiladi.

Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish boshlanguniga qadar olib qo'yish amalga oshirilayotgan shaxsga hujjatlarni va predmetlarni olib qo'yish to'g'risidagi qarorni taqdim etadi hamda ishtirok etayotgan shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi.

Davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi hujjatlari va predmetlari olib qo'yilayotgan shaxsga ularni ixtiyoriy ravishda topshirishni taklif etadi, u bosh tortgan taqdirda esa majburan olib qo'yish choralari ko'radi.

Hujjatlarni va predmetlarni olib qo'yish soliq to'lovchi ishtirokida amalga oshiriladi.

Hujjatlarni va predmetlarni majburan olib qo'yish xolislar hamda soliq to'lovchi ishtirokida amalga oshiriladi. Bunda olib qo'yilayotgan barcha hujjatlar va predmetlar xolislariga hamda olib qo'yishda ishtirok etayotgan boshqa shaxslarga ko'rsatiladi.

Hujjatlar asl nusxa yoki soliq to'lovchining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan ko'chirma nusxalar ko'rinishida olib qo'yiladi.

Soliq to'lovchi hujjatlari ko'chirma nusxalarining olib qo'yilishi soliq nazoratini amalga oshirish uchun yetarli bo'lmagan hollarda hamda davlat soliq xizmati organlarida hujjatlarning asl nusxalari yo'q qilinishi, yashirilishi, tuzatilishi yoki almashtirilishiga yetarli asoslar bo'lgan hollarda davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi hujjatlarning asl nusxasini olib qo'yishga haqli. Hujjatlarning asl nusxalari olib qo'yilayotganda ulardan ko'chirma nusxalar tayyorlanadi, bu nusxalar davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi tomonidan imzolanadi va kimdan olib qo'yilgan bo'lsa, o'sha shaxsga beriladi. Hujjatlarni olib qo'yish bilan bir vaqtning o'zida ulardan ko'chirma nusxa tayyorlash yoki tayyorlangan ko'chirma nusxalarni berish imkoniyati bo'lmagan taqdirda, davlat soliq xizmati organi ularni hujjatlari olib qo'yilgan shaxsga olib qo'yilgan kundan e'tiboran besh kun ichida beradi. Qolgan hollarda soliq to'lovchining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan hujjatlarning ko'chirma nusxalari olib qo'yiladi.

Hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish Soliq Kodeksida nazarda tutilgan talablarga rioya etilgan holda bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi. Bayonnomada yoki unga ilova qilinadigan ro'yxatlarda hujjatlar va predmetlarning nomi, miqdori hamda alohida belgilari, imkoni bo'lganda esa predmetlarning qiymati ko'rsatilgan holda sanab o'tilishi va tavsiflanishi lozim.

Hujjatlar va predmetlarni olib qo'yish to'g'risidagi bayonnoma ikki nusxada tuziladi, ulardan biri hujjatlar va predmetlar kimdan olib qo'yilgan bo'lsa, o'sha shaxsga topshirilib, tilxat olinadi. Bayonnomani qabul qilishdan bosh tortilgan taqdirda, davlat soliq xizmati organining mansabdor shaxsi bu haqda baynomaga tegishli yozuv kiritadi. Bunday holda baynomaning bir nusxasi hujjatlari va predmetlari olib qo'yilgan shaxsga pochta orqali buyurtma xat bilan yuboriladi hamda u jo'natilgan kundan e'tiboran uch kun o'tganidan so'ng topshirilgan hisoblanadi.

4. Soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish

Soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish faqat sud qarori asosida amalga oshiriladi, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish aniqlangan hollar bundan mustasno. Soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini to'xtatib turish quyidagi hollarda davlat soliq xizmati organlarining qarorlari asosida ham amalga oshirilishi mumkin:

soliq va (yoki) moliyaviy hisobot uni taqdim etishning belgilangan muddati tugaganidan keyin o'n besh kun ichida soliq to'lovchi - yuridik shaxs tomonidan taqdim etilmaganda;

soliq to'lovchi - yuridik shaxs ko'rsatilgan manzilda bo'lmaganda.

Soliq tekshiruvini o'tkazishga soliq to'lovchi tomonidan to'sqinlik qilingan yoxud davlat soliq xizmati organi mansabdor shaxslarining soliq to'lovchi tomonidan daromadlar olish uchun foydalanilayotgan yoki soliq solish ob'ektini saqlash bilan bog'liq hududlar, binolar, shu jumladan joylarni ko'zdan kechirish uchun kirishi rad etilgan hollarda davlat soliq xizmati organi soliq to'lovchining banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli.

Nazorat savollari

1. Hujjatli tekshiruvlarning qanday tashkiliy tadbirlari mavjud?
2. Tekshiruv o'tkazish dasturi qanday hujjat?
3. Hujjatli tekshiruvning mohiyati nimalardan iborat?
4. Buxgalteriya hujjatlari qanday hollarda ekspertizaga topshiriladi?
5. Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qanday huquqlari mavjud?
6. Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning qanday majburiyatlari mavjud?
7. Nazorat qiluvchi organlar mansabdor shaxslari tekshiruv chog'ida qanday huquqlarga ega?

5.Mavzu: Yuridik shaxslarning pul mablag'larini taftishdan o'tkazish tartiblari

Reja:

- 1.Yuridik shaxslar pul mablag'larini taftishdan o'tkazishning asosiy maqsadi va vazifalari.
- 2.Kassani taftishdan o'tkazish.
- 3.Kassa operatsiyalarini taftishdan o'tkazish.
- 4.Tegishli banklardagi xisob raqamidagi operatsiyalarni taftishdan o'tkazish.

Tayanch so'z va iboralar

1. Pul mablag'lari

6. Qaydnoma

2. Taftish
3. Kassa
4. Kassa daftari
5. Chek

7. Kassa operatsiyalari
8. Kassa kitobi
9. Kirim va chiqim orderlari
10. Bank operatsiyalari

1. Yuridik shaxslar pul mablag'larini taftishdan o'tkazishning asosiy maqsadi va vazifalari

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning kassa va kassa operatsiyalarini taftish qilishning asosiy maqsadi, ularning O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1998 yil 17 dekabrda №565 son bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvi tomonidan 1998 yil 24 yanvarda 1/16-son bayonnoma bilan tasdiqlangan 376-sonli «Yuridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish qoidalari»ga qanday tartibda amal qilayotganligini nazorat qilishdan iborat.

Soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan yuridik shaxslarning hujjatli tekshiruvlari korxonada kassa hisob-kitoblari tekshirishdan boshlanadi. Kassa faoliyatini to'satdan tekshirish natijasida soliq inspektorlari tomonidan xazinachi (kassir) ning ishida va uni nazorat qiluvchi mansabdor shaxslarning faoliyatidagi kamchiliklarning, aniqlanishi korxonaning pul mablag'larini, kassa va bank operatsiyalarini hamda shu bilan bog'liq korxonaning boshqa faoliyatlarini taftishdan o'tkazishda ma'lum darajada aniq maqsadga yo'naltiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Korxonaning kassa va bank operatsiyalarini o'rganib chiqish, pul mablag'larining saqlanishini tekshirilishi soliq organlari hujjatli tekshiruvlarining eng muhim qismi hisoblanadi.

Soliqchi mansabdor shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan tekshiruv tajribalari shuni ko'satmoqdaki, ayrim korxonalarda aynan pul operatsiyalarini bajarishda kassa intizomining buzilishi oqibatida talon-tarojlik va suiqaqat kabi jiddiy huquqbuzarliklar sodir etilmoqda.

Pul mablag'larini taftishdan o'tkazishning muhim vazifalari shundan iboratki, hujjatli tekshiruv kassa va bank operatsiyalarining to'g'ri bajarilishini to'liq asoslab berilishini talab qiladi. Bundan tashqari qator kirim va chiqim operatsiyalari bo'yicha korxonaning boshqa uchastkalaridagi hujjatlar bilan taqqoslama muqobil tekshiruvlar ham o'tkazilishi mumkin. Masalan, naqd pul tushumlarining kassaga kirim qilinishi tegishli bankdagi xisob raqamlaridagi chiqim, tovar moddiy qiymatliklar realizatsiyasi va xisob-kitob operatsiyalariga oid ma'lumotlar bilan solishtirib ko'riladi.

Korxonaning kassa va bank operatsiyalarini tekshirish natijasida soliq inspektori tomonidan quyidagilarni aniqlash asosiy maqsad xisoblanadi:

- kassada bo'lishi lozim bo'lgan naqd pul va boshqa qimmatli qog'ozlarning mavjudligini;
- kassada saqlanayotgan pul va boshqa mablag'larni to'liq kirim qilib rasmiylashtirilganligini;
- pul mablag'larini mo'ljallangan maqsadga sarflanganligini;
- kassadagi pul mablag'larining saqlanishi va sarflanishi bo'yicha qat'iy nazorat yuritilganligini;
- amalga oshirilgan kassa va bank operatsiyalarning haqiqiylikligini;
- pul bilan bog'liq hisob-kitob hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirilganligini;
- kassadagi pul mablag'lari harakatining tegishli bank xisob-kitob raqamlaridagi o'zaro bog'liq ma'lumotlarga to'g'ri kelishini;
- chiqim qilingan pul mablag'lari harajatlarining to'g'ri va asoslangan holda rasmiylashtirilganligini. Bunda ayniqsa harajatlar schyotlari, ish haqi fondi va boshqa maxsus manba'lardan qilingan harajatlarga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Pul mablag'lari, kassa va bank operatsiyalarining taftishi korxonaning xisob-kredit operatsiyalarining xisob-kitobini yurituvchi xizmatlarning faoliyatini, ishchi-xizmatchilar bilan ish haqi bo'yicha xisob-kitoblar, tovar moddiy qiymatliklarning realizatsiyasi, bajarilgan ishlar

xajmi, harajatlar smetasi va boshqa sohalarning tekshiruvlari bilan uzviy bog'liqlikda o'tkazilishi kerak.

2. Kassani taftishdan o'tkazish

Korxonada kassani taftish qilinishning muhim shartlaridan biri bu taftishni to'satdan o'tkazishdir.

Soliq inspektorlari korxonaga kelib korxonaning rahbariga hujjatli tekshiruv o'tkazilishi to'g'risidagi hujjatlarni, ya'ni Davlat soliq organining buyrug'i, mazkur tekshiruvni muvofiqlashtiruv bo'limi tomonidan rejalashtirilganligi va soliqchi inspektorlarning shaxsini tasdiqlovchi guvohnomalar ko'rsatilib tekshiruv o'tkazishga ijozat berilishi bilan korxonada kassadagi naqd pul va qimmatli qog'ozlar sanoqdan o'tkazilishi kerak. Agar ba'zi uzurli sabablarga ko'ra tekshiruvni boshlash imkoniyati bo'lmasa kassa darhol muhrlanishi lozim. Kassaning muhrlanishi kassir tomonidan yoki boshqa manfaatdor mansabdor shaxslarning noqonuniy harakati natijasida kassadagi ortiqcha pul mablag'larini yashirish, kamomadni to'ldirib qo'yish, qalbaki hujjatlarni rasmiylashtirib qo'yish va shu kabi suistemolchiliklarni sodir etilishini oldini oladi. Agar taftish o'tkazilayotgan vaqtda pul mablag'lari faqat kassada emas balki bir necha kassirlarda bo'ladigan bo'lsa bir vaqtning o'zida ularning naqd pullari ham to'satdan sanoqdan o'tkaziladi. Bunday taftish o'tkazish imkoniyati bo'lmasa naqd pul saqlanadigan hamma joylar muhrlanadi va birin-ketin tekshiruv o'tkaziladi.

Tekshiruv soliq inspektorlari tomonidan korxonaning bosh hisobchisi va kassirning bevosita ishtirokida o'tkaziladi. Tekshiruv boshlanishi oldidan soliq inspektorlari kassirdan uning kassadagi naqd pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarning harakat to'g'risidagi oxirgi hisobotni va hamma rasmiylashtirilgan hujjatlarni talab qilib olishlari lozim. Soliq inspektori unga taqdim etilgan har – bir hujjatni qonuniyligi, bajarilgan xo'jalik operatsiyalarining haqiqiyliigi, ayniqsa kassadan berilgan pullar, hujjatlarning to'g'ri rasmiylashtirilganligi, rahbar va bosh hisobchi kabi mansabdor shaxslar tomonidan berilgan ruxsatnomalarda imzolarining mavjudligi va pul olgan shaxslar haqida ma'lumotlar to'liq yozilganligi, ularning ham aniq qo'yilgan imzolari borligi nuqtai nazardan sinchkovlik bilan tekshirib ko'rishi kerak. Tekshiruv jarayonida korxonada kassir tomonidan soliq inspektorlariga taqdim etilgan xomaki ya'ni kassirni o'zi uchun tayyorlangan hisob-kitoblar, yuritilgan daftarlar va umuman to'liq rasmiylashtirilmagan (norasmiy) hujjatlar va tilxatlar moddiy javobgar sifatida kassirning tasarrufidagi naqd pul mablag'lari va boshqa qimmatli qog'ozlar qolidig'ini aniqlashda inobatga olinmaydi.

Bunday xolatlarning mavjudligi taftish dalolatnomasida kassa intizomining buzulishi sifatida pullarni olgan shaxslarni, pul qiymatini va nima maqsadda berilganligini ko'rsatilgan holda qayd etilishi lozim.

Soliqchi inspektor kassaning kassir va chiqim hujjatlari nomerlarining ketma-ketligiga, shu jumladan kassirning oxirgi hisobotidagi hujjatlarning nomerlariga e'tibor qaratishi lozim. Hujjatlardagi nomerlarda tafovut bo'lishi kassa hujjatlaridan ayrimlarini qastdan olinganligidan darak berishi mumkin.

Taftishchi tomonidan hamma hujjatlar ko'rib chiqilgandan so'ng tekshiruv o'tkazilgan kundagi kassirning hisoboti tuziladi.

Korxonada kassir o'zgargan bo'lsa yoki kassani boshqa moddiy javobgar shaxsga berilishida pul to'lashga tuzilgan hamma vedemostlar yopilgan bo'lishi lozim.

Kassa taftishida ko'pincha uchrab turadigan hujjatlarni rasmiylashtirish bilan bog'liq qonun buzulishlari quyidagilardan iborat:

- bir martalik avans, ta'til pullari, nafaqa va shunga o'xshash to'lovlar vedomostlarining yopilmasdan qolganligi;

- sarflar bo'yicha kassa hujjatlarida kassadan pul berilishiga ruxsatnoma sifatida korxonada rahbari va bosh hisobchining imzolarining mavjud emasligi;

- kassa kitobida qayd etilmagan kirim va chiqim orderlarining mavjudligi va ularda tartib raqamlarining yo'qligi;

- olingan pullarni o'z vaqtida kirim qilinmaganligi;

- yozilmagan chek kitobchalarini (knijkalarida) korxonah rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolangan holda saqlanishi va boshqalar.

Kassa intizomida yuqorida qayd etilgan kamchiliklarning mavjudligi kassir tomonidan jinoyat sodir etilishiga imkoniyat yaratilganligini anglatadi. Chunonchi, kassa daftarida ro'yxatga olinmagan va nomerlari ko'rsatilmagan kirim kassa orderlari aniqlanishi albatta tekshirilayotgan faoliyat davridagi barcha xo'jalik operatsiyalari bo'yicha korxonah kassasiga tushgan pullarning to'liq va to'g'ri kirim qilinganligini tekshirilib ko'rilishini talab qiladi.

Kassa kitobchasini tekshirish chog'ida inspektor quyidagilarga alohida e'tiborini qaratishi lozim:

- kassir tomonidan hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirilib borishiga;

- kassa kitobchasining hamma varaqlarining ketma-ket raqamlanganligiga va bog'ichlanib, surg'uchlanib muhrlanganligiga hamda korxonah rahbari va bosh hisobchisining imzolari mavjudligiga.

Tekshiruv vaqtida kassir soliq inspektorlari nazoratida kassadagi hamma naqd pullarini kupyurlarga ajratgan holda to'liq sanoqdan o'tkazadi. Sanoq natijalari bo'yicha tomonlarda e'tiroz paydo bo'lsa pul mablag'lari qaytadan sanaladi. Xuddi shu tarzda qimmatli qog'ozlar ham sanoqdan o'tkaziladi. Lozim bo'lgan hollarda sex, laboratoriya va shunga o'xshash bo'lim moddiy javobgar shaxslari mas'ulligida bo'lgan qimmatbaho toshlar va metallar ham aniqlanadi. Bunday xolatlarda tekshiruv natijasida aniqlangan qimmatbaho toshlar va metallarning hisob-kitobining yuritilishi, ularning saqlanishi va sraflanishi hamda ulardan foydalanib buyumlar ishlab chiqarilishi bo'yicha dalolatnoma tuziladi.

Kassada korxonahga tegishli bo'lmagan moddiy qiymatliklarning saqlanishi qat'iy man etiladi. Agar belgilangan tartiblarga zid holda kassada kasaba uyushmasiga, o'zaro yordam kassasiga yoki boshqa shaxslarga tegishli bo'lgan pul mablag'lar va shuningdek boshqa moddiy qiymatliklar mavjudligi aniqlansa inspektor tekshiruv o'tkazishdan oldin tegishli moddiy javobgar shaxslardan pul mablag'lari qoldig'i to'g'risida ma'lumotnoma talab qilishi kerak.

Kassadagi naqd pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qoldig'ini aniqlashda soliqchi inspektor naqd pullar saqlanadigan seyfning hamma yacheykalarini tekshirib ko'radi. Bu bilan pullarni yashirilishini yoki ularni sanoqdan qolib ketishini oldini oladi.

Tekshiruv davomida inspektor qat'iy hisobda turuvchi blankalarning saqlanishini, hisob-kitobining yuritilishini va haqiqiy qoldiqlarini sanoqdan o'tkazib tekshiradi.

Qat'iy hisobda turuvchi blankalardan foydalanish nazoratining yo'qligi shu bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalarini amalga oshiruvchi moddiy javobgar shaxslar tomonidan shaxsiy manfaatlarda suistemol qilinishiga olib kelishi mumkin.

Naqd pul va qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qoldig'i buxgalteriya hisobidagi rasmiy qoldiq ko'rsatkichlari bilan solishtirilib kassa taftishining natijasi chiqariladi.

Tekshiruv natijasi bo'yicha naqd pullar va qimmatli qog'ozlar sanog'ida ortiqcha yoki kamomad qayd etilsa, inspektor buning sabablarini aniqlash maqsadida kassirdan yozma ravishda tushuntirish xati berilishini talab qiladi.

Korxonah kassasida ortiqcha yoki kamomad sodir bo'lishiga quyidagilar sabab bo'ladi:

- kassir tomonidan pullarni o'zlashtirilishi;

- naqd pul tushumlarini to'liq kirim qilinmasligi;

- qalbaki hujjatlar rasmiylashtirish yo'li bilan haqiqiy harajat qilinmagan pullarni hisobdan chiqarish;

- kassa hujjatlarini va xisobotlarini yuritishda xatoga yo'l qo'yish;

- har kungi pul aylanmasi bo'yicha yakuniy natijani xisoblashda yangilishish;

- kun oxiridagi qoldiqni noto'g'ri hisoblash.

Kassani yuritishda ortiqcha yoki kamomadga yo'l qo'yilishi kassa operatsiyalarini yuritishda jiddiy kamchiliklar borligidan va kassir tomonidan suiste'mol qilinishidan darak beradi.

Kassani taftishdan o'tkazish yakunida tekshiruv natijasida pul mablag'lari bo'yicha kamomad aniqlansa uni undirish chorasi ko'riladi. Agar ortiqcha pullar mavjudligi qayd etilsa ular to'liqligicha kassaga kiritilib davlat byudjetiga o'tkaziladi.

Tekshiruv o'tkazishda korxonada buxgalteriyasi tomonidan har oyda tekshiruv o'tkazilganligi va ularning natijalari o'rganilib chiqiladi.

Kassa tekshiruvida kassir bilan korxonada rahbari o'rtasida moddiy javobgarlik majburiyati maxsus shartnoma bilan rasmiylashtirilganligi va bu hujjatning to'g'ri tuzilganligi ko'rib chiqiladi.

Bundan tashqari korxonada rahbariyati tomonidan kassirni ish yuritishi uchun tegishli sharoit yaratilganligi va pul mablag'larining kafolatli saqlanishi, pul saqlanadigan xona va temir sandiqlarning muhofazalanganligi tekshirilib xulosa chiqariladi.

3. Kassa operatsiyalarini taftishdan o'tkazish

Soliq inspektorlari tomonidan kassa operatsiyalarining tekshirilishi natijasida korxonaning bir-biri bilan o'zaro bog'liq uchastkalari o'rtasidagi ishlab chiqarish va xo'jalik faoliyatida ruy berishi mumkin bo'lgan soliqqa tortiladigan ob'ektlar bo'yicha suiste'molchiliklar tekshirilib ko'riladi.

Kassa operatsiyalarini tekshirishni boshlanishida quyidagi xolatlar aniqlanib olinishi lozim:

- kassa kitoblarida va ro'yxatga olish jurnalida kiritim va chiqim kassa orderlarining qayd qilinishining to'g'riligi;

- kassa daftaridagi ma'lumotlarning kassir hisobotida to'g'ri aks ettirilganligi;

- yozuvlarda o'zgartirishlar kiritilmaganligi;

- kassa daftaridagi sahifa raqamlarining ketma-ketligi;

- kassa hujjatlaridagi raqamlarning to'g'riligi;

- har kungi pul tushumlarining kiritim va chiqim aylanmasi hisob-kitoblarining to'g'ri hisoblanib borilganligi;

- har kungi pul qoldiqlarining to'g'riligi va ularni keyingi kuninig boshlanishiga to'g'ri o'tkazilganligi;

- taftish o'tkazilayotgan faoliyat davrida kassada qolishi mumkin bo'lgan naqd pul limitiga rioya etilishi.

Yuqoridagi holatlar aniqlanib bo'lingach kassa operatsiyalarini tekshirishga kirishiladi.

Kassa operatsiyalari tushunchasi tarkibiga quyidagi tekshiruv ob'ektlari kiradi:

Kiritim bo'yicha:

- bankdan olingan naqd pullarni to'liq kiritim qilinishi;

- moddiy qiymatliklarni naqd pulga sotilishi bo'yicha tushumlarni kiritim qilinishi;

- bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'langan naqd pullarning kiritimi;

- uy-joy va kommunal xizmat uchun to'langan xajmlarning kiritimi.

Chiqim bo'yicha:

- ishchi va xizmatchilarga to'langan maosh;

- deponentga o'tkazilgan ish haqi bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar;

- mukofotlar, moddiy yordam va nafaqa to'lanishi bo'yicha naqd pulni hisobdan chiqarilishi;

- naqd pulga moddiy qiymatliklar sotib olinishi;

- naqd pulni boshqa korxonalariga berilishi;

- maosh o'rniga tovar mahsulotlari berilishi.

Ana shu yuqorida ko'rsatilgan kiritim va chiqim operatsiyalari quyidagi tartibda tekshiruvdan o'tkaziladi.

Bankdan olingan naqd pullarning kirim qilinishini tekshirish tartibi
Bu tekshiruvni o'tkazishda 3 turdagi hujjatlarning ma'lumotlari solishtiriladi:

1. Bank ma'lumotlari (выписка);
2. Kassa kitobidagi yozuvlar;
3. Chek kitobchasiga asosan olingan naqd pul bo'yicha kassiring hisoboti.

Chek kitobchasining koreshogidagi bankdan berilgan naqd pullar summolari kassa kitobida qayd etilgan kassa kirim orderi ma'lumotlari va bank vypiskasidagi summalar bilan solishtiriladi. Tekshirilgan har bir summa yoniga qizil qalam bilan shartli belgi qo'yib boriladi.

Kassa kitobida qayd etilmagan summalarning sababi aniqlanadi.

SHunday tarzda olingan va kirim qilingan naqd pullar tekshirilib balansi chiqariladi.

Bankdan naqd pul olishda buzilgan va bekor qilingan cheklar chek kitobchasidagi tegishli koreshoklarga yelimlanib qo'yilgan bo'lishi lozim.

Bankka qaytarilgan naqd pullar kassa kitobida qayd etiladi. Bu summalar bank tomonidan qabul qilib olinganligini tasdiqlovchi bank chiptasida (выписке) qayd etilgan bo'lishi kerak. Bu tekshiruvda bankka topshirilgan naqd pul summasi bilan hisobdan chiqarilgan summa o'rtasida tafovut yo'qligiga alohida e'tibor berilishi lozim.

Ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lanishini tekshirish

Ish haqini to'lanishini tekshirishda soliq inspektori vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotganligi uchun nafaqa to'lovlarini, mehnat ta'tillari uchun to'lovlarni va davlat pensiyasini to'lash bilan bog'liq hamma buxgalteriya hujjatlaridagi arifmetik xisob-kitoblar ko'rib chiqiladi. Hujjatlarni rasmiylashtirishda o'chirib yozilgan, tuzatilgan yozuvlarning mavjudligiga, ayrim shaxslarga pullarni haqiqiy to'langanligiga, boshqa shaxslarga ishonch qog'ozi bilan to'langan xaq'larga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Nazorat-taftish o'tkazish tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, korxonalarda ish haqi to'lash bilan bog'liq naqd pulni noqonuniy o'zlashtirish ikki xil usulda amalga oshirilishi mumkin:

- kassadan ish haqi to'lanishidan xisoblangan summadan ortiq miqdorda pulni hisobdan chiqarish;

- ish haqi hisoblanmasdan kassadan ish haqi sifatida naqd pulni chiqim qilish.

Bunday qonunbuzarliklarni aniqlash uchun har oydagi to'langan ish haqi bo'yicha sintetik va analitik hisob yuritish hujjatlari tekshirilib ko'riladi va balansi chiqariladi. Agar hisob-kitob natijalarida tafovut chiqsa bu xolat kassadan noqonuniy ravishda naqd pul hisobdan chiqarilganini anglatadi.

Noqonuniy ish haqi to'lanishini va kassadan ortiqcha pul o'zlashtirilishini ish haqi to'lash vedomostlarini kassa chiqim orderlari bilan ushlab qolingan summalarni inobatga olgan holda solishtirib ko'rish yo'li bilan ham aniqlash mumkin. To'lov vedomostlari va kassa chiqim orderlari bo'yicha oylik to'langan summalar lavozim okladlari, ishga chiqish tabellari va ishchi va xizmatchilarning shaxsiy varaqlaridagi ma'lumotlar bilan solishtirilib ko'riladi.

Noqonuniy pul to'lanishi quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin;

- ta'tilda bo'lgan xodimlarga ish haqi to'lash;
- vaqtinchalik ish qobiliyatini yo'qotgan xodimlarga pul to'lash;
- ishdan bo'shatilgan xodimlarga xaq to'lash;
- korxonada ishlamaydigan yoki umuman o'ylab topilgan taxminiy shaxslarga xaq to'lash.

Ish haqi to'lashda sodir etiladigan g'ayriqonuniy ishlarni aniqlashda har hil to'lov hujjatlardagi va korxonaning kadrlar bo'limidagi imzolarni solishtirib ko'rish ham yaxshi natija beradi. Lozim bo'lgan hollarda haqiqiy to'langan ish haqini tekshirib ko'rish uchun pul olgan xodimlarni chaqirtirib so'rov o'tkazishi ham mumkin.

Ish haqi to'lash ko'rinishida kassadan naqd pulni hisobdan chiqarilishining aniq sabablarini topish uchun ish haqi to'lash va uni tashkil qilish mexanizmini taftishdan o'tkazish kerak. Bir oy davomida ayrim shaxslarga bir necha to'lov hujjatlari bilan naqd pul berilishi ham bo'lishi mumkin bo'lgan suite'molchilikni ko'rsatuvchi alomatlarga kiradi va bu xolat albatta bu summalarni to'g'ri hisoblanganligini tekshirilib ko'rishni talab qiladi. Masalan, bir shaxsga

kasallik varaqasi bo'yicha pul to'langan va mehnat ta'til to'lovi va oylik maosh to'langan bo'lsa summalarini to'g'ri hisoblanganligi tekshirilib ko'rilishi kerak.

Ish haqi va shunga o'xshash to'lovlarni to'lashdagi suiqaatliliklarni aniqlash quyidagi hujjatlarni tekshirilishi natijasida aniqlanadi:

- to'lov hujjatlari bilan hisobdan chiqarilgan summalar;
- xisoblash vedomostlari;
- tabellar, naryadlar;
- ishga qabul qilish va ishdan ozod etish buyruqlari.

Deponetga o'tkazilgan pullar hisobidan ish haqi to'lanishini tekshirish

Ba'zi hollarda deponent kartochkalariga o'tkazilgan summalarini noto'g'ri xisobdan chiqarib kassadagi naqd pul o'zlashtirilishi mumkin. SHuning uchun deponent hisobidan pul to'langan vedomostlar, deponent kartochkalariga o'tkazilgan summalar va tegishli sintetik hamda subschyotlar (№3 deponent) solishtirilib tekshirilishi lozim. Soliq inspektori ishchi va xizmatchilar tomonidan ish haqini o'z vaqtida olmaganlik sababini, ish haqini deponent kartochkaga haqiqiy o'tkazilganligini va deponent summalarini aynan tegishli shaxslar tomonidan olinganligini hamda deponent summasini olinganda pasport ma'lumotlari qayd etilganligi tekshirilib ko'riladi.

Mukofatlar va boshqa to'lovlar bo'yicha kassa chiqimlarini tekshirish

Bunday to'lovlarni tekshirish korxonaning tegishli buyruqlari va qarorlari bilan bog'liq holda amalga oshiriladi. Tekshiruvchi soliq inspektori eng avvalo tekshirilayotgan davrdagi hamma to'lovlar bo'yicha summalarini yig'ma vedomostga ko'chirib olishi kerak. Bu usul ayrim xodimlarga bir necha marta pul berilganligini aniqlashda juda qo'l keladi. Keyin har bir to'lov tegishli buyruq va qarorlar bilan solishtiriladi.

Ish haqi, mukofatlar, kasallik varaqasi bo'yicha nafaqalar va pensiya to'lash hisobiga kassadagi naqd pullarni hisobdan chiqarilishini tekshirish jarayonida to'langan summalarini qaysi yil va oyga to'langanligiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Kassadan chiqim qilingan summa bo'yicha rasmiylashtirilgan hujjatda «olindi» yoki «to'landi» shtamplari qo'yilib kassirni imzosi va sana ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

4. Tegishli banklardagi xisob raqamidagi operatsiyalarni taftishdan o'tkazish.

Yuridik shaxslarning asosiy pul tushumlari va moliyaviy harajatlari tegishli banklarda ochilgan hisob raqamlari orqali pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. SHuning uchun soliq inspektori bank hisob raqamlaridagi tekshirilayotgan xo'jalik sub'ektiga tegishli bank operatsiyalarini tekshiradi.

Bunday tekshiruvni o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- bank tomonidan berilgan pullar (выписка) kassirning hisoboti bilan solishtiriladi;
- kassa hisobidan chiqarilgan naqd pulni tegishli bankka topshirilgani va bu summa bank выписkasida qayd etilganligi;
- bank выписkasini tekshirishda o'chirilgan, o'zgartirilgan va boshqa shubha uyg'otuvchi kamchiliklarga alohida e'tibor qaratiladi;
- agar bank выписkasiga o'zgartirish kiritilgan bo'lsa bunday xol albatta izox berilgan va bankning mas'ul xodimi tomonidan imzolangan va bank muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi lozim;
- bank выписkasidagi ayrim shubhali ma'lumotlar bankda muqobil tekshiruv o'tkazilib aniqlanishi mumkin;
- bank выписkasidagi har bir ma'lumotlar unga ilova qilingan hujjatlar bilan asoslangan bo'lishi kerak.
- bank выписkasining ayrimlarini qastdan olib qo'yilishini oldini olish maqsadida ularning raqamlangan bo'lishi va bir выписkaning qoldig'i ikkinchisiga o'tkazilganligi tekshiriladi;
- tekshiruv oyma – oy ma'lumotlar bo'yicha o'tkaziladi;

– hisob raqamidagi jami pul aylanmasi va qoldiq buxgalteriya bosh kitobi va balnasidagi ko'rsatkichlar bilan solishtiriladi;

– hujjatlar bo'yicha aniqlangan tafovutlar debet va kredit aylanmasini bir xil summada o'zgartirilganini, pulni to'liq kirim qilinmaganini, ortiqcha hisobdan chiqarilgani, qoldiqni noto'g'ri hisoblangani kabi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi.

Birlamchi hujjatlar asosida teatr, magazin, kafe, restoran, avtotransport tashkilotlari va shu kabi pullik xizmat bajaruvchi korxonalariga o'tkazilgan mablag'larni maqsadga muvofiqligi, haqiqiy xizmat ko'rsatilganligi tekshirilib ko'riladi.

Pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilgan harajatlarni tekshirish

Pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshirilgan harajatlarning haqiqiyligini va maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun to'liq yoki tanlov tartibida mablag' o'tkazilgan korxonalar va tashkilotlarga chiqib muqobil tekshiruv o'tkazilishi mumkin.

Sarflangan harajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarni tekshirishda soliq inspektorining asosiy e'tibori korxonaning hisob raqamidagi mavjud pul mablag'larining harajat qilinishiga qaratilishi lozim. Hamma chiqim operatsiyalari ularning iqtisodiy mohiyati bo'yicha guruhlangan hisobdan chiqarish alomatlari bo'yicha tekshiruv o'tkazilsa uning natijasi tahlil qilishga qulay bo'ladi.

Masalan chiqimlar quyidagi guruhlar bo'yicha jamlanishi mumkin:

– moddiy qiymatliklar sotib olish;
– sotilgan mahsulotni qaytarib berilishi natijasida buyurtmachiga pulni qaytarish;
– boshqa korxonalar tomonidan ko'rsatilgan xizmat yoki bajarilgan ish uchun to'langan pullar;

– to'langan jarimalar;
– korxonalar tomonidan boshqa xo'jalik sub'ektlariga keltirilgan zararni qoplash bo'yicha o'tkazilgan pullar;

– kreditor qarzlarni to'lash;

– har hil sabablar bilan korxonalar kassasiga tushgan naqd pullar va boshqalar.

Korxonalar hisob raqamidan moddiy qiymatliklar sotib olish uchun saraflangan pullarni tekshirishda to'langan mablag' bo'yicha korxonalariga keltirilgan moddiy qiymatliklar to'liq hisobga olish balansiga kiritilganligi tekshiriladi.

Buning uchun saraflangan mablag' bilan haqiqiy kirim qilingan tegishli moddiy qiymatliklarning qiymati solishtirilib balansi chiqariladi. Bu tekshiruv natijasida quyidagi savollarga javob topilishi kerak:

- hisob raqamdan qancha pul o'tkazilgan;
- qancha moddiy qiymatlik balans schyotiga kirim qilingan;
- qancha moddiy qiymatlik keltirilmagan;
- olingan moddiy qiymatliklarning sifatsiz qismi qancha;
- korxonalariga keltirilmagan tovarlar (mahsulotlar)ga to'langan pul qiymatliklari;
- avans tariqasida o'tkazilgan pullar.

Dalolatnoma korxonalar (tashkilot) kassasida bo'lgan pul mablag'lari (naqd pullar, pochta markalari va h.k.) haqiqatda mavjudligini inventarlash natijalarini aks ettirish uchun qo'llaniladi.

Komissiya pullar mavjudligini kassada bo'lgan barcha pullar, qimmatli qog'ozlar, limitlangan chek daftarchalari va hokazolarni to'liq qayta sanash yo'li bilan tekshiradi. Dalolatnoma ikki nusxada tuziladi va inventarlash komissiyasi hamda moddiy javobgar shaxs tomonidan imzolanadi. Dalolatnomaning bir nusxasi korxonalar (tashkilot) buxgalteriyasiga topshiriladi, ikkinchi nusxasi moddiy javobgar shaxsda qoladi.

Inventarlashni boshlashdan oldin har bir moddiy javobgar shaxsdan yoki pul mablag'lari saqlanishi uchun javob beradigan shaxslar guruhidan tilxat olinadi. Tilxat shaklining sarlavha qismiga kiritilgan.

Moddiy javobgar shaxslar almashganida dalolatnoma uch nusxada tuziladi (boyliklarni topshirgan moddiy javobgar shaxsga, boyliklarni qabul qilib olgan moddiy javobgar shaxsga,

buxgalteriyaga berish uchun).

Nazorat savollari

1. Yuridik shaxslar pul mablag'larini taftishdan o'tkazishning asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Kassani taftishdan o'tkazish tartiblari nimalardan iborat?
3. Kassa operatsiyalarini tekshirishda nimalar tekshiruv ob'ektlari hisoblanadi?
4. Bankdan olingan naqd pullarning kirim qilinishini tekshirish tartibi qanday?
5. Moddiy qiymatliklarning naqd pulga sotilishi bo'yicha tushumlarni tekshirish tartibi qanday?
6. Ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lanishini tekshirish tartiblari bo'yicha nimalarni bilasiz?
7. Mukofotlar va boshqa to'lovlar bo'yicha kassa chiqimlarini tekshirish tartibi qanday?
8. Yuridik shaxslar pul mablag'larini taftish qilishda qanday hujjatlar tanlanma tekshirilishi mumkin?

6.Mavzu: Naqd pul bilan muomala qiluvchi xo'jalik subektlari tomonidan savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish tartiblari.

Reja:

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tadbirkorlar faoliyatida savdo, xizmat ko'rsatish va naqd pul muomalasi qoidalariga rioya qilinishini tekshirishning umumiy qoidalari
2. Naqd pul bilan muomala qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlarining savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish tartib qoidalariga rioya qilinishini ta'minlovchi meyoriy-xuquqiy xujjatlar
3. Naqd pul bilan muomala qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlarining savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish, naqd pul tushumini topshirish qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish bilan bog'liq meyoriy xujjatlar
4. Qisqa muddatli tekshirishlar o'tkazishda davlat soliq xizmati organi xodimlarining vazifalari
5. Qisqa muddatli tekshirishlar o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish qoidasi
6. Bozorlar va savdo komplekslarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar quyiladigan talablar

Tayanch so'z va iboralar:

- | | |
|------------------------------|------------------------------------|
| 1. Chakana savdo | 11.Litsenziya |
| 2. Ulgurji savdo | 12. Terminal |
| 3. Savdo huquqi | 13. Plastik kartochka |
| 4. Turg'un savdo shaxobchasi | 14.Umumiy ovqatlanish korxonalari |
| 5. Nazorat kassa mashinasi | 15. Savdo zali |
| 6. Umumiy ovqatlanish | 16. Nazorat tarozilari |
| 7. Chek | 17. Savdo ob'ektlari |
| 8. Kvitansiya | 18. Qisqa muddatli tekshirish |
| 9. Ruxsatnoma | 19. Sotuvchi |
| 10. Bozor va savdo kompelsi | 20. Rejadan tashqari tekshirishlar |

1. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar va tadbirkorlar faoliyatida savdo, xizmat ko'rsatish va naqd pul muomalasi qoidalariga rioya qilinishini tekshirishning umumiy qoidalari

Naqd pul bilan muomala qiluvchi xo'jalik subektlari tomonidan savdo va xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish asosan soliq tekshiruvining qisqa muddatli tekshiruv shaklida amalga oshiriladi.

Qisqa muddatli tekshiruv soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish bilan bog'liq bo'lmagan, uning ayrim operatsiyalarining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligi tekshiruvdir.

Qisqa muddatli tekshirishlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Farmoyish va qarorlari ijrosi yuzasidan, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan qonunlar va boshqa qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar (xo'jalik sub'ektning nomi aniq ko'rsatilgan bo'lsa) kelib tushganda va tekshiruvlarni o'tkazish uchun boshqa zarur asoslar bo'lganda moliya xo'jalik faoliyatiga aralashmagan holda bir ish kuni davomida o'tkaziladi.

Qisqa muddatli tekshirishlar Davlat soliq xizmati organlari tomonidan mulkchilik shaklidan qat'iy nazar aholiga savdo va pulli xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi va uning hududiy komissiyalari bilan belgilangan tartibda kelishilgan holda o'tkaziladi.

Qisqa muddatli tekshirishlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tekshirishlarni o'tkazish huquqiga ega bo'lgan, ya'ni maxsus shahodat sinovidan o'tgan Davlat soliq xizmati organlarining mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladi.

Savdo va pulli xizmat ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda o'tkaziladigan qisqa muddatli tekshirishlarga zarur hollarda Davlat soliq xizmati organlari tomonidan belgilangan tartibda sog'liqni saqlash, maishiy xizmat, standartlashtirish, metrologiya va boshqa sohalarning mutaxassislari jalb qilinishi mumkin.

Qisqa muddatli tekshirish o'tkazishdan oldin xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyati yuzasidan quyidagi ma'lumotlar o'rganilib, tahlil qilinadi:

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar amaldagi tartib, qoidalarga rioya etilmayotganligi to'g'risida soliq organiga kelib tushgan murojaatlar;

- savdo, xizmat ko'rsatish va naqd pul muomalasi qoidalariga rioya qilmasdan faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar to'g'risidagi mahalliy xokimiyat va boshqa nazorat qiluvchi organlardan kelgan ma'lumotlar,

- naqd pul tushumini bank muassasalariga kam miqdorda topshirayotgan yoki topshirilmayotgan sub'ektlar to'g'risida inkassatsiya xizmati va tijorat banklaridan olingan ma'lumotlar;

- xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyati yuzasidan o'tkazilgan kuzatuv va monitoring natijasida aniqlangan holatlar yuzasidan soliq inspektorlarining yozma ma'lumotlari.

O'rganish va tahlil natijalari asosida O'zbekiston Respublikasi «Ho'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilish to'g'risida»gi Qonuni talablariga muvofiq Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash yoki uning hududiy komissiyalari tomonidan xo'jalik yurituvchi sub'ektda qisqa muddatli tekshirish o'tkazish uchun ruxsatnoma olinadi.

Qisqa muddatli tekshirishlar Davlat soliq xizmati organlarining buyrug'i asosida o'tkaziladi.

Buyruqda quyidagi ma'lumotlar ko'rsatib o'tiladi:

- tekshirish o'tkazuvchi xodimlarning familiyasi ismi, sharifi va lavozimi
- sub'ektning nomi va STIR
- manzili
- tekshirish muddati;
- tekshirish predmeti.

Ob'ektning faoliyat ko'rsatish vaqti va ish tartibidan kelib chiqib, tekshirish soliq organlarining ish vaqtidan tashqari yoki tungi vaqtda o'tkaziladigan bo'lsa, bu holda xodimlarni

ish vaqtdan tashqari yoki tungi vaqtda ishga jalb qilish to'g'risida mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda buyruq chiqariladi.

Tekshirishni tashkil etgan soliq organi raxbariyati tomonidan tasdiqlangan «Qisqa muddatli tekshirish o'tkazish» dasturi asosida tekshirishlar o'tkaziladi.

2. Naqd pul bilan muomala qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlarining savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish tartib qoidalariga rioya qilishini ta'minlovchi meyoriy-xuquqiy xujjatlar

Ulgurji va chakana savdodagi, umumiy ovqatlanish va pulli xizmatlar ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik sub'ektlari o'z faoliyatlarini amalga oshirishda savdo-sotiq bilan bog'liq bir qator tartib qoidalarga rioya qilgan holda faoliyatlarini amalga oshirishga majburdirlar. O'z navbatida ushbu tartib qoidalar O'zbekiston Respublikasining quyidagi me'yoriy-xuquqiy xujjatlarida belgilab qo'yilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 apreldagi "Naqd pul muomalasini takomillashtirish va bankdan tashqari aylanmani qisqartirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-57-son, 2007 yil 16 martdagi "Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-605-son, 2009 yil 6 apreldagi "Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo'jalik sub'ektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni yanada rag'batlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-1090-son, 2010 yil 19 apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1325-son qarorlari, 2002 yil 6 maydagi "Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlar olib kelinishini tartibga solish to'g'risida" 154-son, 2002 yil 5 avgustdagi "Pul mablag'larining bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 280-son, 2003 yil 13 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 75-sonli Qaror va boshqa savdo va pullik xizmat ko'rsatish sohasini tartibga solishga doir qonun hujjatlari.

Naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini yanada rivojlantirish va bankdan tashqari pul aylanmasini kamaytirish maqsadida amaga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar 2009 yilning shu davriga qaraganda 2,5 million donaga ko'paydi va 7,5 milliontaga yetdi, o'rnatilgan terminallar esa 23,4 mingtaga ko'payib, 65 mingtani tashkil qildi. Natijada plastik kartochkalar orqali naqd pulsiz to'lovlar hajmi 2009 yilning yanvar-sentabr oylaridagiga nisbatan 2,5 baravar oshgan¹³..

3. Naqd pul bilan muomala qiluvchi tadbirkorlik sub'ektlarining savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish, naqd pul tushumini topshirish qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish bilan bog'liq meyoriy xujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining quyidagi qarorlari:
 - 2.1. Banklardagi depozit hisob-varaqlardan naqd pul to'lovlarini uzluksiz ta'minlash kafolatlari to'g'risida. 05.08.2005. PQ №147
 - 2.2. Naqd pul muomalasini takomillashtirish va bankdan tashqari aylanmani qisqartirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 15.04.2005. PQ№57
 - 2.3. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun ruxsatnoma turlarini qisqartirish va ularni berish tartib-qoidalarini soddalashtirish to'g'risida. 21.09.2005. PQ№186
 - 2.4. Naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish va naqd pul mablag'lari muomalasi bo'yicha javobgarlikni oshirishga doir qabul qilingan xujjatlarning ijrosi yuzasidan nazoratni kuchaytirish to'g'risida. 22.11.2005. PQ№225

¹³ O'zbekiston Respublikasini 2010 yilning to'qqiz oyida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari to'g'risida axborot. T. Bank axborotnomasi 27 oktabr 2010 y.

2.5. Alkogolli maxsulotlarni ishlab chiqarish va sotish samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 07.11.2006. PQ№505

2.6. Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida. 16.03.2007 y. PQ№605

2.7. Tijorat banklari depozitlariga aholi va xo'jalik sub'ektlari bo'sh pul mablag'larini jalb etishni yanada rag'batlantirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida. 06.04.2009 y. PQ№-1090

2.8. Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 26.04.2010 y. PQ№ 1326

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari

3.1. Respublikada savdoni erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 14.12.1994. VMQ №604

3.2. Aholi bilan pul hisob-kitoblarini amalga oshirishda nazorat-kassa mashinalarini majburiy qo'llash tartibi to'g'risida. 26.12.1994. VMQ №621

3.3. O' merax po korennomu uluchsheniyu inkassatsii torgovoy viruchki i ispolzovaniyu kontrolno- kassovix mashin v respublike. 11.12.1997 PKM №548

3.4. Naqd pul muomalasini mustahkamlash va tijorat banklarining mas'uliyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 22.06.2001. VMQ №264

3.5. Yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yxatdan o'tkazishni hamda ular tomonidan savdo faoliyati amalga oshirilishini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida. 26.11.2002. VMQ №407

3.6. O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalarini hamda umumiy ovqatlanish mahsulotlarini (xizmatlarini) ishlab chiqarish va sotish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida. 13.02.2003. VMQ №75

3.7. Iste'mol tovarlari bilan ulgurji va chakana savdo qilishni tartibga solishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 19.03. 1999. VMQ №125

3.8. Pul mablag'larining bankdan tashqari muomalasini yanada qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida. 05.08.2002. VMQ №280

3.9. Nazorat-kassa mashinalaridan foydalanishda javobgarlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 23.05.2003. VMQ №230

3.10. Nooziq-ovqat iste'mol tovarlari bilan savdo qilishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. 28.07.2003. VMQ №330

3.11. Plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 24.09.2004. VMQ №445

4. Qisqa muddatli tekshirishlar o'tkazishda davlat soliq xizmati organi xodimlarining vazifalari

Savdo, pulli va boshqa xizmatlar ko'rsatuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda qisqa muddatli tekshirish o'tkazish jarayonidagi davlat soliq organlarining asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

1 Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan «Iste'molchilar huquqini himoya qilish» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini, savdo, pulli va boshqa xizmatlar ko'rsatishga taalluqli bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa qonun xujjatlarida belgilangan qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish;

2 Tekshirilayotgan xo'jalik yurituvchi sub'ektda ayrim turdagi tovarlar bilan savdo qilish va xizmatlar ko'rsatish uchun berilgan ruxsat guvohnoma (litsenziya)larining mavjudligini va ularning amal qilish muddatlarini nazorat qilish;

3 Xaridor (buyurtmachi) bilan naqd pulda o'zaro hisob-kitob qilishda belgilangan tartibda nazorat-kassa mashinalaridan foydalanilishini, kvitansiya, chipta va ularga tenglashtirilgan boshqa to'lov hujjatlarini berilishini, plastik kartochkalar orqali to'lovlarni qabul qilinishini hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektning bank hisob raqamidagi pul aylanmalari tahlilida aniqlangan holatlarni tekshirish.

- 4 Spirtli ichimliklar va tamaki mahsulotlarini aksiz markalari bilan markalanganligini tanlov asosida ko'zdan kechirish;
- 5 Sotilayotgan mahsulotlarni kirim va sifatini tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligini, tovarlarning iste'molga yaroqlilik muddatlarini tanlov asosida ko'zdan kechirish;
- 6 Savdo va xizmat ko'rsatish hamda kassa operatsiyalarini yuritish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish;
- 7 Ayrim turdagi tovarlarni belgilangan narxlardan qimmat bahoda sotish holatlari mavjudligini tekshirish;
- 8 Tosh, tarozi va boshqa o'lchash priborlaridan belgilangan tartibda foydalanilishini o'rganish;
- 9 Video va audio yozuvli mahsulotlarni belgilangan tartibda sotilishi, ijaraga berilishini tekshirish;
- 10 Yonilg'i-moylash materiallarini saqlash va sotish qoidalariga rioya qilinishini tekshirish;
- 11 Oziq-ovqat, nooziq ovqat tovarlarni, shu jumladan alkogolli ichimliklarni belgilangan tartibda sotilishini tekshirish;
- 12 Maishiy va tibbiy xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya etilishini tekshirish.

5. Qisqa muddatli tekshirishlar o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish qoidasi

Xo'jalik yurituvchi sub'ektda qisqa muddatli tekshiruv nazorat xarididan (buyurtmadan) boshlanadi. Nazorat xaridi (buyurtmani) soliq organlariga va tekshirilayotgan xo'jalik sub'ektiga aloqador bo'lmagan shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Xarid yoki buyurtma bo'yicha o'zaro hisob-kitob operatsiyasi to'liq amalga oshirilgandan so'ng, xaridor (buyurtmachi) tovarlarni olganidan keyin, qisqa muddatli tekshirish boshlanganligi haqida sub'ektga e'lon qilinadi. Bunda xaridor (buyurtmachi) xarid qilgan tovarlar savdo yoki tarqatilayotgan joyidan olib ketilmagan bo'lish lozim.

Tekshirish e'lon qilingandan so'ng, Nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi yoki uning hududiy kommissiyasining tekshirish o'tkazish uchun berilgan ruxsatnomasi, soliq organining buyrug'i, tekshirish dasturi va tekshiruvchilarning shaxsiy guvoxonmalari xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariga ko'rsatilib, tanishtirilganligi haqida udan yozma tilxat olinadi. Agarda xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbarini topish imkoniyati bo'lmasa, ob'ektdagi mas'ul xodimga tekshirish o'tkazishga asos bo'lgan hujjatlar nusxalari tilxat asosida topshiriladi. Tekshirish o'tkazishga ruxsat etilgan hujjatlar bilan tanishilgandan so'ng xo'jalik yurituvchi sub'ektdagi «Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi»ga tegishli ma'lumotlar qayd etiladi. Agarda xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbari yoki mas'ul xodimi tomonidan «Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi» tekshiruvchilarga taqdim etilmasa tekshirish dalolatnomasida bu holat qayd etiladi. Tekshirish jarayonida nazorat xaridi (buyurtmasi) to'liq amalga oshirilganligi, unda NKMni ishlatilishi, kvitansiya, chipta va unga tenglashtirilgan boshqa cheklar berilishi to'g'risida tekshiruvchilar tomonidan «O'zaro hisob-kitob dalolatnomasi» rasmiylashtiriladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektda NKMDan to'liq foydalanilishini tekshirishdan oldin mas'ul shaxsdan (kassir, sotuvchi, ofitsant va boshqalar) kassasidagi naqd pul mablag'laridan hech kimga qarz berilmaganligi va qarzi yo'qligi to'g'risida tilxat olinadi va kassadagi naqd pul tushumi tekshiruvchining kuzatuv ostida sanoqdan o'tkazilib, natijasi bo'yicha dalolatnoma tuziladi. Xaridor yoki buyurtmachi bilan o'zaro hisob-kitob qilishda nazorat-kassa mashinalarini qo'llanilishi, qat'iy hisobga olingan kvitansiya, chipta va ularga tenglashtirilgan boshqa cheklar berilganligi, kassadagi naqd pul tushumlarini NKM xotirasiga kirim qilinishi ko'yidagi tartibda amalga oshiriladi:

- kassadagi naqd pul miqdori sanoqdan o'tkaziladi;
- NKMDan «X» va «Z» hisobotlari olinadi;

- bank muassasasiga kunma-kun topshirilgan naqd pul tushumi miqdori to'g'risidagi o'sib boruvchi ma'lumot qayd etiladi (NKM ko'rsatkichlarini qayd etib boruvchi maxsus yuritiladigan kassa kitobi yoki xizmat ko'rsatuvchi tijorat banki ma'lumoti);

- tekshiruv vaqtidagi ma'lumotlar o'zaro solishtirilib, taqqoslanadi va taqqoslash natijalari bo'yicha dalolatnoma tuziladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan qo'llanilayotgan nazorat-kassa mashinasining turi O'zbekiston Respublikasi hududida ishlatilishiga ruxsat etilgan NKMLar reestriga kiritilganligi tekshiriladi. Zarurat bo'lganda NKMning texnik talablarga muvofiqligi to'g'risida mutaxassislardan xulosalar olinadi. Fiskal xotiraga xizmat ko'rsatish dasturi buzilgan holda yoki texnik talablarga muvofiq bo'lmagan nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish alomatlari mavjud bo'lgan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 23 maydagi 230-sonli «Nazorat-kassa mashinalaridan foydalanishda javobgarlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorini amalda qo'llash tartibi talablariga binoan NKM olib qo'yilib, texnik ekspertizadan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan Nazorat-kassa mashinalarining davlat reestri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tartibda shakllantiriladi.

Quyidagi jadvalda hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan nazorat-kassa mashinalarining Davlat reestri keltirib o'tilgan. (1-jadval)

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasi texnik jihatdan vaqtincha nosoz bo'lgan yoki elektr energiyasi bo'lmagan taqdirda naqd pul bilan hisob-kitob qilishni xaridorlarga kvitansiyalar, chiptalar, talonlar yoki chekka tenglashtirilgan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlanadigan shakldagi qat'iy hisobdagi boshqa hujjatlarni berish orqali amalga oshirishga yo'l qo'yiladi. (2-jadval)

Fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llashda quyidagilar majburiy hisoblanadi:

1) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini faoliyat amalga oshirilayotgan joydagi davlat soliq xizmati organlarida fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasining ro'yxatdan o'tkazish kartochkasi berilgan holda ro'yxatdan o'tkazish;

2) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalariga texnik xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

3) fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarining chekini iste'molchiga berish;

4) davlat soliq xizmati organlari mansabdor shaxslarining fiskal xotirali nazorat-kassa mashinasini tekshirishiga ruxsat etish.

**O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanishga ruxsat etilgan nazorat-kassa mashinalarining
DAVLAT REESTRI¹⁴**

/ r	Nazorat-kassa mashina rusumlari	Nazorat-kassa mashinalarini ishlab chiqaruvchilar	Davlat	Foydalanishga ruxsat etilgan NKMLarni Davlat Reestriga kiritilgan sana	Nazorat-kassa mashinalaridan foydalanish muddati
1.	UZBEKISTAN	«O'zEFF» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	30.08.95.y	Cheklanmagan
2.	SILEKX – 7004	M+S HOURDAKIS	Gretsiya	30.08.95.y	Cheklanmagan
3.	SILEKX – PARCTIKA	M+ HOURDAKIS	Gretsiya	12.12.97.y	Cheklanmagan
4.	CASIO FE-2000	CASIO	YAponiya	30.08.95.y	Cheklanmagan
5.	CASIO TK-2200		YAponiya	30.08.95.y	Cheklanmagan
6.	CASIO FE-700	CASIO	YAponiya	30.08.95.y	Cheklanmagan
7.	KAPAT –1500-D	TOO	Bolgariya	30.08.95.y	Cheklanmagan
8.	KARAT-KOLIBRI	TOO	Bolgariya	07.03.97.y	Cheklanmagan
9.	SAMSUNG ER-4615-RF	SAMSUNG	Janubiy Koreya	07.03.97.y	Cheklanmagan
10.	SAMSUNG ER-250-RF	SAMSUNG	Janubiy Koreya	30.08.95.y	Cheklanmagan
11.	SAMSUNG ER-4615-F	«O'z-SAMSUNG» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	01.04.98.y	Cheklanmagan
12.	SAMSUNG ER-250-F	«O'z-SAMSUNG» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	01.04.98.y	Cheklanmagan
13.	ELEKTRONIKA 92-06	«ELEKTRONIKA»	Bolgariya	01.04.98.y	Cheklanmagan
14.	MERKURIY-115F-Uz	«FOTON» XJ	O'zbekiston	02.10.98.y	Cheklanmagan
15.	ARKUS-KASBI-01F	«ARKUS-D» AOZT	Rossiya	02.10.98.y	Cheklanmagan
16.	RF KASBI 02-F	«ARKUS-D» AOZT	Rossiya	06.09.99.y	Cheklanmagan
17.	MERKURIY-112F-Uz	«FOTON» XJ	O'zbekiston	17.12.99.y	Cheklanmagan
18.	MERKURIY-112.1F-Uz	«FOTON» XJ	O'zbekiston	17.12.99.y	Cheklanmagan
19.	MERKURIY-111F	«INKOTEKS»	Rossiya	05.03.01.y	Cheklanmagan

0 ¹⁴ Ўзбекистон Республикаси Давлат солиқ қўмитаси материаллари асосида тайёрланган.

		firmasi			
20.	MERKURIY-112F	«INKOTEKS» firmasi	Rossiya	05.03.01.y	Cheklanmagan
21.	MERKURIY-115F	«INKOTEKS» firmasi	Rossiya	05.03.01.y	Cheklanmagan
22.	MERKURIY-152F	«INKOTEKS» firmasi	Rossiya	05.03.01.y	Cheklanmagan
23.	MERKURIY-153F	«INKOTEKS» firmasi	Rossiya	05.03.01.y	Cheklanmagan
24.	DATECS MP-5000	«KASHFI ASROR LTD» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	05.03.01.y	Cheklanmagan
25.	PCU POS – 560-B1	«FIRISH INTERPRAYZES Ko.LTD»	Tayvan	05.03.01.y	Cheklanmagan
26.	AMS-100Fuz	«TARAQQIYO T- ARKUS» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	15.04.02y	Cheklanmagan
27.	AMS-101Fuz	«TARAQQIYO T- ARKUS» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	15.04.02. y	Cheklanmagan
28.	ORION-100F-Uz	«FOTON» XJ	O'zbekiston	31.07.02 y.	Cheklanmagan
29.	Astra-100Uz	«YENGIL SANOAT TIJORAT MARKAZI» ma'suliyati cheklangan jamiyati	O'zbekiston	27.11.02 y.	Cheklanmagan
30.	Elves-Mikro-F	«NAMSHTRIX M» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	27.11.02 y.	Cheklanmagan
31.	«Elit-Mobil F UZ»,	«BULTEX» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	24.02.03 y.	Cheklanmagan
32.	«Elit Mikro F UZ»,	«BULTEX» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	24.02.03 y.	Cheklanmagan
33.	«Elit Taksi LG F UZ»	«BULTEX» qo'shma korxonasi	O'zbekiston	24.02.03 y.	Cheklanmagan
34.	«SHtrix-FR-F»	«SHtrix-M» YoAJ	Rossiya	06.09.06 y.	Cheklanmagan
35.	«INTER MROS 2001»	«Inter» firmasi	Turkiya	06.09.06 y.	Cheklanmagan

Savdodagi tovarlarning iste'molga yaroqliligi, ularda sifatini tasdiqlovchi sertifikatlarni mavjudligi, alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlariga aksiz markalarini yelimganligi, tovar moddiy boyliklarni to'liq kirim qilinganligi, tegishli idoralar tomonidan ayrim faoliyat turlari uchun ruhsatnoma(litsenziyalar)ni mavjudligi ko'rib chiqiladi. Iste'molga yaroqsiz, sifatini tasdiqlovchi sertifikatsiz, hamda aksiz markalari bo'lmagan yoki qalbaki markali alkogolli ichimliklar va tamaki mahsulotlari aniqlanganda savdodan chetlashtirilib, belgilangan tartibda dalolatnoma rasmiylashtirish orqali vaqtincha olib qo'yiladi. Dalolatnomada olingan tovarning nomi, o'lchov birligi soni, miqdori, ishlab chiqilgan davlat nomi va boshqa

ma'lumotlar to'liq ko'rsatilishi shart. Zaruriyat bo'lganda tekshirish o'tkazilayotgan sub'ektlarning sohasiga qarab belgilangan tartibda mutaxassislar jalb qilinib, ular tomonidan berilgan yozma xulosalar tekshirish materialiga ilova qilinadi. Tekshirish jarayonida aniqlangan holatlar bo'yicha tuzilgan oraliq dalolatnomalari asosida umumlashtirilgan dalolatnoma tuzilib, ishtirokchilar tomonidan imzolanadi va uning bir nusxasi tekshiruv o'tkazgan xodimda, ikkinchi nusxasi tekshirilayotgan sub'ektda qoldiriladi.

Agarda tekshirilayotgan sub'ekt tomonidan dalolatnomaga imzo qo'yishdan bosh tortsa, bu haqda xolislar ishtirokida «Tekshirish dalolatnomasiga imzo qo'yishdan bosh tortish haqida» dalolatnoma rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma tuzilib, imzo qo'yilganidan keyin undagi xatolarni tuzatish, o'chirish yoki mazmunini o'zgartirish man etiladi. Agarda noto'g'ri yozilgan, arifmetik xatolar va boshqa kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa, bunday holat qatnashuvchilar ishtirokida alohida o'zgartirib yozilib, dalolatnomaga imzo qo'ygan shaxslar tomonidan qo'shimcha imzolanadi. Tekshirish materiallariga aniqlangan qonunbuzarliklarni tasdiqlovchi hujjatlar yoki ularni nusxalari (NKM cheklari, xarid qilingan tovar (taom) narxnomasi, taomnoma, kalkulyatsiya preyskurant, kvitansiya, tovarning kirim xujjati, laboratoriya xulosasi, sotuvchi, xaridor va xolislarining tushuntirish xatlari va boshqalar) ilova qilinadi. Davlat soliq xizmati organi xodimi qonunbuzarlikka yo'l qo'ygan shaxsdan yozma tushuntirish xati olishga haqli. Tushuntirish xati yozib berishdan bosh tortilganda tekshiruvchilar tomonidan tekshirishda ishtirok etgan boshqa shaxslar bilan birgalikda dalolatnomada bu holat yozma ravishda ko'rsatib o'tiladi. Zaruriyat bo'lganida qisqa muddatli tekshirish xolis guvoxlar ishtirokida o'tkaziladi. Belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmasdan, hufiyona iqtisod yuritayotgan ishlab chiqarish joylarida tekshirish jarayonida noqonuniy faoliyatni tasdiqlovchi holatlar qayd etilib, huquqbuzarlik sodir etilayotgan joydan ashyoviy dalillar (ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo, tayyor mahsulot va boshqalar) belgilangan tartibda vaqtincha olib qo'yiladi.

6. Bozorlar va savdo komplekslarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar quyiladigan talablar

O'zbekiston Respublikasi bozorlarida savdo faoliyatini tashkil etish

Dehqon (oziq-ovqat) bozori - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilangan joylarda doimiy yoki vaqtinchalik asosda faoliyat ko'rsatadigan hamda savdo rastalari, savdo o'rinlari va turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari)dan foydalangan holda keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning chakana savdosi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishga mo'ljallangan mulkiy kompleks;

chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori - yuridik shaxsning alohida bo'linmasi hisoblanadigan, dehqon (oziq-ovqat) bozorining chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotiladigan filiali;

ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori - Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan ixtisoslashuvi majburiy tartibda ko'rsatilgan holda belgilanadigan muayyan kunlar va joylarda ilgari foydalanishda bo'lgan nooziq-ovqat tovarlari va mol-mulkning chakana savdosi amalga oshiriladigan bozor;

dam olish kuni yarmarkasi - mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining bevosita qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan sotish uchun muayyan vaqtga (odatda dam olish kunlariga) shart-sharoitlar yaratish uchun maxsus ajratilgan hudud.

Dehqon (oziq-ovqat) bozori, chorva mollari, parrandalar va hayvonlar sotish bozori, ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori (keyingi o'rinlarda bozor

deb ataladi) hududida joylashgan turg'un chakana savdo ob'ektlari faoliyati va umumiy ovqatlanish xizmatlari ko'rsatish O'zbekiston Respublikasida chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish (xizmatlar ko'rsatish) qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

BOZORLARNI TASHKIL ETISH TARTIBI

Bozorni tashkil etish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining bozor tashkil etish uchun yer uchastkasi ajratish to'g'risidagi qarori asosida amalga oshiriladi.

Dam olish kuni yarmarkalari tashkil etish mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari asosida amalga oshiriladi.

Qarorda bozorning joylashgan o'rni, ixtisoslashuvi, ish tartibi, undagi savdo o'rinlarining soni va joylashishi majburiy tartibda belgilanadi.

Bozor faoliyatini tashkil etish bozor tashkil etish uchun ajratilgan yer uchastkasini ijaraga oluvchi yuridik shaxs tomonidan ta'minlanadi. Ko'rsatib o'tilgan yuridik shaxs ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklida yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklida tashkil etiladi, uning muassislaridan bittasi majburiy tartibda ustav fondidagi ulushi kamida 51 foiz bo'lgan mahalliy davlat hokimiyati organi bo'lishi kerak.

Tashkil etilayotgan bozorlar ustav fondining eng kam miqdori yuridik shaxslarning tegishli tashkiliy-huquqiy shakllari uchun qonun hujjatlarida belgilangan miqdorga muvofiq bo'lishi kerak.

Bozorlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tadbirkorlik sub'ektlari uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bozorlarni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

BOZOR HUDUDINI OBODONLASH TIRISHGA, OB'EKTLARNI JOYLASH TIRISHGA VA BOZORNI JIHOZLASHGA QO'YILADIGAN UMUMIY TALABLAR

Bozorda quyidagilar bo'lishi kerak:

asfaltlangan (chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar sotish bozoridan tashqari), yaxshi yoritilgan, yondosh hududdan to'siq bilan ajratilgan savdo maydoni;

bozorda ish vaqti tugagandan keyin yopiladigan kirish va chiqish joylari;

bozorning nomi, ixtisoslashuvi va ish tartibi ko'rsatilgan holda davlat tilida rasmiylashtirilgan peshlavha;

jihozlangan va tartib raqamlari qo'yilgan turg'un hamda mavsumiy savdo rastalari va savdo qilish uchun joylar, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan pavilonlar). Bunda bozor ma'muriyati tasdiqlagan va bozor ob'ektlarining joylashish sxemasi ko'rinarli joyga osilgan va ob'ektlarning amalda joylashgan o'rni, shuningdek bozor rastalari va savdo o'rinlarining joylashishi xaridorlarning bozorda erkin yurishini hamda savdo rastalari va joylariga bimalol borishini ta'minlashi kerak;

davlat soliq xizmati organlari, hududiy ichki ishlar organlari, sanitariya-epidemiologiya nazorati, tibbiyot punkti, davlat veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasi yoki davlat veterinariya xizmati organlarining tayanch punktlarini joylashtirish uchun xonalar (mol go'shti va o'simliklardan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarini sotishda);

buyumlarni saqlash joylari, dezinfeksiyalovchi moddalarni saqlash, go'sht mahsulotlarini maydalash (go'sht sotishda) uchun alohida xonalar;

sotuvchilar va xaridorlar uchun aravachalarni prokatga berish punkti;

o'lchov-tortish vositalarini prokatga berish punkti (ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozorlaridan tashqari);

avariya hamda favqulodda vaziyatlar holatlarida yong'inni o'chirish va aholini xabardor qilish vositalari;

bozorlar hududida va unga tutash hududlarda joylashgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, jamoat hojatxonalari, suv quvurlari, yuz-qo'l yuvgichlar, axlat to'plagichlar, radiouzel va boshqa zarur infratuzilma ob'ektlari.

Bozor hududi dehqon (oziq-ovqat) bozori, chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozori, ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori bir-biri bilan yondosh bo'lmasligi sharti bilan aniq ajratib qo'yilgan bo'lishi kerak.

Bozor hududi savdo kompleksi bilan yondosh bo'lishi mumkin.

Bozor hududida quyidagilar taqiqlanadi:

ob'ektlarni joylashtirishning tasdiqlangan sxemasidan tashqari qo'shimcha savdo o'rinlarini tashkil etish;

yuklarni tashish uchun mo'ljallangan vositalar (konteynerlar)dan oziq-ovqat tovarlarini sotish;

nooziq-ovqat tovarlarini sotish, turg'un savdo shoxobchalari orqali sotish bundan mustasno;

oziq-ovqat tovarlarini avtomashinalardan sotish, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ixtisoslashgan avtotransport va asbob-uskunalaridan (avtolavkalar, avtodo'konlar, izotermik sig'imlar, tirik baliq sotish uchun avtoakvariumlar va shu kabilardan) sotish bundan mustasno;

alkogolli mahsulotlarni sotish (qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno);

audiovizual asarlar, fonogrammalar, EHM uchun dasturlar va ularning moddiy jismlari, kompyuter va maishiy texnikani sotish (bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno);

qimmatbaho metallar va toshlarni, shuningdek ulardan yasalgan buyumlarni sotish (bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno);

hayvonlar terisini sotish;

xorijiy valyutani sotish (vakolatli banklarning belgilangan tartibda jihozlangan va faoliyat ko'rsatuvchi almashtirish punktlari bundan mustasno);

dori-darmon vositalarini sotish (dorixonalaridan tashqari);

veterinariya preparatlari va biologik preparatlarni sotish (ixtisoslashtirilgan dorixonalar va zoologiya do'konlaridan tashqari);

bolalar oziq-ovqat mahsulotlarini sotish (davlat sanitariya nazorati talablariga muvofiq maxsus jihozlangan hamda ushbu mahsulotlarni saqlash va sotish shart-sharoitlari ta'minlangan turg'un savdo shoxobchalaridan tashqari);

bulka nonlar sotish (bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchasi bundan mustasno);

uyda tayyorlangan oziq-ovqat tovarlarini sotish (ularni qonun hujjatlarida belgilangan normalar va qoidalarga rioya etgan holda sotish bundan mustasno);

qonun hujjatlarida taqiqlangan boshqa tovarlar va buyumlarni sotish.

Tanishish uchun qulay joylarda quyidagilar o'rnatiladi:

a) tovar turlarining asosiy guruhlari bo'yicha savdo zonalari ko'rsatkichlari;

b) savdo zonalari, umumiy ovqatlanish va servis xizmati ko'rsatish ob'ektlari, ma'muriy binolar, davlat soliq xizmati organi, davlat veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasi yoki bozordagi davlat veterinariya xizmati organining binosi (chorva

mollari va o'simlik mahsulotlarini sotishda), nazorat o'lchovi tarozilari, prokat punktlari, bozorlar hududida va ularga tutash hududlarda joylashgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, jamoat hojatxonalari va boshqa ob'ektlarning joylashish sxemasi ko'rsatilgan stendlar;

v) favqulodda vaziyatlar ro'y berganda bozorni evakuatsiya qilish sxemasi;

g) bozordagi kirish joylarida axborot stendi, unda sotuvchilar va bozorga keluvchilar uchun quyidagilar bo'ladi:

"Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va ushbu Qoidalarning matnlari;

savdo faoliyatini va tovarlarning ayrim turlarini sotishni tartibga soluvchi qoidalar;

bir martalik yig'im, ijara to'lovi, ko'rsatiladigan majburiy va boshqa xizmatlar ro'yxati va qiymati, shuningdek bozorda savdo o'rinlarini berish hamda xizmatlar ko'rsatish tartibi va shartlari to'g'risidagi axborotlar;

bozor ma'muriyatining, tuman (shahar) hokimligining, davlat veterinariya xizmati sanitariya-epidemiologiya nazorati, davlat soliq xizmati, ichki ishlar hududiy organlarining telefon raqamlari.

Savdo operatsiyalari o'lchash-tortish vositalaridan (tarozilar, tarozi toshlari, o'lchovli sig'imlar, metrlar va boshqalardan) foydalangan holda amalga oshiriladigan bozorlarda metrologik qoidalar va normalar talablariga muvofiq bo'lgan o'lchov anjomlari mavjud bo'lishi shart.

Tarozilar va boshqa o'lchov anjomlari sotuvchining ish joyida tartib ko'rish, qiymatini aniqlash va tovarni berish bo'yicha barcha jarayonlarning ko'rinib turishi ta'minlangan holda o'rnatilishi kerak.

Bozor hududidagi maxsus ajratilgan joylarda umumiy ovqatlanish, servis xizmati ko'rsatish va tijorat banklari ob'ektlari (filiallar, mini-banklar, bank kassalari, inkassatsiya punktlari) joylashtiriladi.

Bozorlarda sanitariya kunlari mahalliy davlat hokimiyati organi tomonidan tasdiqlangan jadvalga muvofiq belgilanadi.

Bozor hududida tovarlarni tashishni va bozorda savdo jarayonini tashkil etish tovarlarni tashib keltirish (qabul qilib olish), saqlash va sotish uchun zarur sharoitlarni to'liq ta'minlashi kerak.

Mijozlarning bozor hududiga kirishi - bepul.

Bozor hududida savdoni amalga oshirishda fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va bank plastik kartochkalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini qo'llash qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Bir martalik yig'imlar, ijara to'lovlari va avtomatlashtirilgan hisobga olishning bank tizimi orqali ko'rsatiladigan xizmatlar uchun beriladigan cheklar nazorat-kassa mashinalari yoki bank plastik kartochkalaridan to'lovlarni qabul qilib olish bo'yicha to'lov terminallarining cheklariga tenglashtiriladi.

Aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan qo'llaniladigan nazorat-kassa mashinalari yagona texnik talablarga muvofiq bo'lishi kerak va belgilangan tartibda majburiy sertifikatsiyalanishi zarur.

Sertifikatga ega bo'lmagan yoki belgilangan yagona texnik talablarga javob bermaydigan nazorat-kassa mashinalaridan foydalangan holda chek berish aybdor shaxslarni qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortish uchun asos hisoblanadi.

**BOZORNI BOSHQARISH, SOTUVCHILARNING
VA BOZOR MA'MURIYATINING HUQUQ
VA MAJBURIYATLARI**

Bozorni boshqarish bozor ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladi, unga ushbu Qoidalar va boshqa qonun hujjatlari talablariga rioya qilish uchun javobgarlik yuklanadi.

Bozorda sotuvchilar quyidagi huquqlarga ega:

ushbu Qoidalar talablariga muvofiq savdo faoliyatini amalga oshirish;

bozor ma'muriyatidan ushbu Qoidalarga muvofiq ishlash uchun shart-sharoitlar bilan ta'minlashni talab qilish;

bozor ma'muriyatidan bozorning ish tartibi va rejimi bo'yicha zarur tushuntirishlar olish;

bozor ma'muriyati tomonidan ko'rsatiladigan pulli xizmatlardan foydalanish;

o'zlarining faoliyati nazorat organlari tomonidan tekshirilayotganda bozor ma'muriyati xodimlarini taklif etish;

bozor ma'muriyatiga bozor faoliyatini yaxshilash bo'yicha takliflar kiritish.

Sotuvchilar bozorda quyidagilarga majbur:

bozorda savdo faoliyatini amalga oshirishda shaxsini tasdiqlovchi hujjatga, bir martalik yig'im to'langanligi to'g'risidagi chekga, xususiy tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaga (o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo'lgan tovarlarni sotish holatlaridan tashqari) va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarga ega bo'lish;

faqat bozor ma'muriyati tomonidan belgilangan joylardagina savdo qilish;

faqat bozor ma'muriyati tomonidan taqdim etilgan tarozilar va boshqa o'lchov asboblariidan foydalanish (turg'un savdo shoxobchalaridan tashqari);

savdo o'rinlarini toza va tartibli saqlash;

bozor ma'muriyati va nazorat qiluvchi organlarning qonuniy talablarini bajarish;

ushbu Qoidalarga va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga rioya etish.

Bozor ma'muriyati quyidagi huquqlarga ega:

yuridik shaxslarga va yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarga bozorda savdo faoliyatini amalga oshirish hamda xizmatlar ko'rsatish uchun shartnoma asosida turg'un savdo shoxobchalari berish;

bozorlarda jismoniy shaxslarga faqat ularda yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma mavjud bo'lganda, ular bir martalik to'lovni to'lashgan taqdirda yozma shartnomalar tuzmasdan savdo o'rinlari berish (o'zlari yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo'lgan tovarlarni sotish bundan mustasno);

shartnoma asosida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish;

nazorat organlari vakillari bozorlarda o'z funksiyalarini amalga oshirayotganda ularga hamrohlik qilish;

ijarachilar tomonidan ijara to'lovi to'lanmaganda, shuningdek bozorda savdo faoliyatini amalga oshirishga qonunda belgilangan talablar bir necha marta buzilganligi holatlari hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda savdo o'rinlari taqdim etish, turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berish yuzasidan ular bilan tuzilgan shartnomalarni muddatidan oldin bekor qilish.

Bozor hududida tarozilar va boshqa o'lchov anjomlarini prokatga berish, yuk saqlash joylarini tashkil etish, yuklarni tashish uchun aravachalarni ijaraga berish bo'yicha xizmatlar faqat belgilangan tariflarga muvofiq bozor ma'muriyati tomonidan ko'rsatilishi mumkin.

Bozor ma'muriyati quyidagilarga majbur:

sotuvchilar va o'z xodimlari tomonidan ushbu Qoidalarga va belgilangan savdo qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish;

dehqon bozorlarida sotuvchilarni qat'iy ajratilgan savdo o'rinlari bo'yicha joylashtirish;

savdo o'rinlari berishda bir martalik yig'im undirilishini ta'minlash;

qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriyat bilan ijaraga oluvchi o'rtasida tuziladigan ijara shartnomasi asosida har oylik ijara to'lovining o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilish;

ko'rsatilayotgan va boshqa xizmatlar uchun bir martalik yig'im, ijara to'lovlari va boshqa tushumlarning bank tizimi orqali avtomatlashtirilgan hisobga olish yo'li bilan bank kassalari orqali qabul qilinishini ta'minlash;

mahalliy byudjetlarga, shuningdek byudjetdan tashqari maqsadli jamg'armalarga to'lovlarning o'z vaqtida ajratilishini ta'minlash;

bozor ishlarini va bozor faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni savdo faoliyatini amalga oshirish tartibini belgilovchi va atrof muhitni muhofaza qilishni, bozor joylashgan hududdagi epidemiologik, epizootik va ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi veterinariya-sanitariya qoidalarini va normalariga qat'iy muvofiq holda tashkil etish;

bozorga olib kiriladigan oziq-ovqat mahsulotlari sifatining ekspress analiz laboratoriyasini tashkil etib tegishli sertifikat berish va tegishli sertifikatga ega bo'lmagan mahsulotlarni sotishni taqiqlash;

jamoat tartibini saqlash, qo'riqlashni tashkil etish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish, bozorning normal faoliyat ko'rsatishi uchun, shu jumladan uning energiya, issiqlik va suv ta'minoti bo'yicha zarur sharoitlarni ta'minlash;

sotuvchilar va xaridorlar uchun aravachalar prokati punktlari ishi, o'lchash vositalari va saqlash kameralari uchun mas'ullarni tegishli buyruq bilan tayinlash;

300 ta va undan ortiq turg'un savdo shoxobchalari va savdo o'rinlari mavjud bo'lgan bozor hududlarida va bozorga tutash hududlardagi avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarini fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallari bilan jihozlashni ta'minlash, avtotransport vositalarining kirishi va chiqishi vaqtini qayd etish funksiyasiga ega bo'lgan elektron hisoblagichlarni majburiy tartibda o'rnatish;

bozor maydonini, ma'muriy-xo'jalik binolarini, umumiy ravishda foydalaniladigan joylarni zarur sanitariya-texnik holatda saqlash;

yondosh hududlarning o'z vaqtida yig'ishtirilishi va obodonlashtirilishini ta'minlash;

qattiq maishiy chiqindilar, yirik hajmli axlatlar, turli xil idishlar va shu kabilarning tashib ketilishini ta'minlash.

Bozor ma'muriyati:

sotuvchilarning tegishli texnik talablarga, sanitariya normalari va qoidalariga muvofiq bo'lgan anjomlarga ehtiyojini;

xaridorlarga xizmat ko'rsatish chog'ida paydo bo'ladigan nizoli vaziyatlarning sabablarini bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilishini;

sotuvchilarning minimal kasbiy tayyorgarligi bo'yicha tadbirlar amalga oshirilishini;

tuman (shahar) hokimligida ro'yxatdan o'tkazilgan mulohazalar va takliflar daftarlarining mavjud bo'lishini va ular xaridorlarning birinchi talabiga binoan taqdim etilishini;

banklarning inkassatsiya punktlari va kassalari ishi uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratilishini, bir martalik yig'im, ijara to'lovlari va ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun tushumlarning banklar kassalariga topshirilishini ta'minlashga ko'maklashishni, bozorlar va ularning filiallari hududida o'z faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar naqd tushumining har kuni inkassatsiya qilinishi (topshirilishi)ni ta'minlaydi.

Bozor ma'muriyati nazorat qiluvchi organlar vakillariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshirishlarni amalga oshirishda ko'maklashadi, aniqlangan qoida buzilishlarini bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ko'radi. Zarurat bo'lganda, bozor ma'muriyati nazorat organlari xodimlariga tekshirishlarni o'tkazish davri uchun xonalar ajratadi.

Bozor ma'muriyati iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablarining bajarilishi, bozorlarning faoliyati, belgilangan savdo qoidalarining bajarilishi yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Bozor hududida yer uchastkalari ajratishga, shuningdek bozorga tegishli ko'chmas mulk ob'ektlarining jismoniy va yuridik shaxslarga mulk qilib berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bozor ma'muriyati rahbariyati ushbu Qoidalarga rioya qilinmaganligi yoki bozor ma'muriyati xodimlari va sotuvchilar tomonidan ularga rioya etilishi yuzasidan zarur nazoratning yo'qligi uchun javob beradi.

Bozor ma'muriyati rahbarlari bir martalik yig'imlarning, ijara to'lovlarining va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishi ta'minlanmaganligi, shuningdek savdo o'rinlarining jismoniy shaxslarga ularning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasiz berilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishi mumkin, o'zi yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini, chorva mollarini, parrandalar va boshqa hayvonlarni, shuningdek ilgari foydalanishda bo'lgan tovarlarni sotish holatlari bundan mustasno.

BOZORLAR DAROMADLARINING MANBALARI

Quyidagilar bozorlar daromadlarining manbalari hisoblanadi:

bir martalik yig'imdan tushumlar;

ijara to'lovidan olingan daromadlar;

sotuvchilar va xaridorlarga xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar;

bozor ma'muriyati tomonidan amalga oshiriladigan qishloq xo'jaligi tovarlarini tayyorlash, xarid qilish va sotishdan (dehqon bozorlari uchun) olingan daromadlar;

qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa tushumlar.

Bozorga soliq solish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

BIR MARTALIK YIG'IMNI, IJARA TO'LOVLARINI,

KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR UCHUN TO'LOVNI

UNDIRISHNI TASHKIL ETISH

Bozor ma'muriyati bir martalik yig'im to'lovini, ijara to'lovlarini, ko'rsatiladigan majburiy va boshqa xizmatlar uchun to'lovni undirishning barcha sotuvchilar uchun qulay shart-sharoitlari yaratilishi uchun javob beradi.

Bozor ma'muriyati quyidagilarni tashkil etishi shart:

bozor hududida savdoni amalga oshirish shart-sharoitlariga oid davlat tilida yozilgan plakatlar, tushuntirish jadvallarini bir martalik yig'im, ijara to'lovi stavkalarini, shuningdek ko'rsatiladigan majburiy va boshqa xizmatlar ro'yxati va qiymatini qayd etgan holda, ko'rinarli joyga joylashtirish;

tegishli tarzda, shu jumladan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallari bilan jihozlangan, bir martalik yig'imni, ijara to'lovlari va ko'rsatiladigan xizmatlar haqini undirishning xodimlar (kassirlar) doimiy ravishda ish joyida bo'lishlari kerak bo'lgan turg'un punktlarini tashkil etish.

Bir martalik yig'im, ijara to'lovlari, ko'rsatiladigan xizmatlar haqi undiriladigan turg'un punktlar soni 100 sotuvchiga (savdo o'rinlariga) 1 ta punkt hisobidan kelib chiqqan holda belgilanishi kerak;

bozorda savdo qilganlik uchun bir martalik yig'imni undirishning asosiy shartlarini, sotuvchi va xaridorlarga ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati va qiymatini radiouzel orqali muntazam ravishda ma'lum qilib borish;

bir martalik yig'imni to'lashdan bosh tortgan sotuvchilarni aniqlash maqsadida savdo rastalari va umuman bozor hududini nazoratchilar tomonidan muntazam ravishda aylanib chiqish;

savdoni amalga oshirish, bir martalik yig'imni to'lash tartibini buzuvchi shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan jarimalar qo'llanilishi zarur bo'ladigan holatlarda davlat soliq xizmati organlari va huquqni muhofaza qilish organlari bilan tezkor aloqa o'rnatish ishlarini tashkil etish.

Bozor ma'muriyati tomonidan bir martalik yig'imni, ko'rsatilgan xizmatlar uchun va ijara to'lovlari qabul qilish fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari va bank plastik kartochkalaridan to'lovlarni qabul qilish bo'yicha to'lov terminallari majburiy qo'llangan holda amalga oshiriladi.

100 ta va undan ko'p turg'un savdo shoxobchalariga ega bo'lgan bozorlarda va ularning filiallarida hamda ijara to'lovlari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar faqat bank tizimi orqali avtomatlashtirilgan hisobga olish yo'li bilan, yig'imning to'liqligini davlat soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan har kuni tekshirgan holda undiriladi.

Bunda bir martalik yig'imni to'lash savdo o'рни berishda, savdo boshlangunga qadar amalga oshiriladi. Chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlarni sotish bozorlarida bir martalik yig'im bozor hududiga kirishda undiriladi.

Bir martalik yig'im to'langanligi to'g'risida sotuvchiga beriladigan chekda bozorning nomi, bozorni soliq to'lovchi identifikatsiya raqami (STIR), chek berilgan vaqt va sana, to'lovning nomi (bir martalik yig'im to'lovi), to'lov summasi, o'rin raqami, sotiladigan tovarning nomi, nazorat-kassa mashinasi yoki to'lov terminalining raqami to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni undirish bozorlarda hisobga olish xodimlari (kassirlar) tomonidan sotuvchilarga fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallari cheki berilgan holda amalga oshiriladi.

Bir martalik yig'imni, ijara to'lovlari, bozorlarda ko'rsatilgan xizmatlar haqini undirish va undan tushgan tushumlar hisobini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

Bir martalik yig'im to'lovi bozorlarda chakana savdo qiluvchi jismoniy shaxslardan qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

Bozor ma'muriyati tomonidan undiriladigan bir martalik yig'im to'lovi, ijara to'lovi va ko'rsatiladigan xizmatlar haqi miqdorlari har yili hududiy moliya organlari va davlat soliq xizmati hududiy organlari bilan kelishgan holda, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan,

biroq har yili O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilanadigan eng kam miqdorlardan past bo'lmagan miqdorda tasdiqlanadi.

Bozor hududida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tushirish maqsadida avtomashinalarning kirishi uchun to'lov undirilmaydi.

BOZORLARDA TOVARLARNI SOTISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

Quyidagilar dehqon bozorlarida sotiladigan tovarlarning asosiy turlari hisoblanadi: qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari, ularni qayta ishlashdan olingan mahsulotlar, yordamchi xo'jaliklar va hunarmandchilik korxonalari mahsulotlari;

ko'chatlar, urug'liklar, gullar va gul ko'chatlari.

Dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish:

jismoniy shaxslar - dehqon va fermer xo'jaliklari vakillari, bog'bonlar va polizchilar, yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan - jihozlangan savdo o'rinlarida, bir martalik yig'imni majburiy to'lagan holda;

yuridik shaxslar - qishloq xo'jaligi korxonalari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va savdo korxonalari tomonidan - ijara shartnomasi shartlarida turg'un savdo shoxobchalari orqali, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini majburiy qo'llagan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul tushumini topshirgan holda amalga oshiriladi.

Bozorlarda yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash natijasida olingan tovarlarni turg'un savdo shoxobchalari orqali, bozor ma'muriyati bilan ijara shartnomasi shartlarida, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini majburiy qo'llagan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda naqd pul tushumini topshirgan holda sotishga ruxsat etiladi.

Dehqon bozorlarida savdo-xarid qilish korxonalari tomonidan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish, tayyorlash va sotish ham amalga oshirilishi mumkin.

Go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, baliq, go'sht va baliqdan tayyorlangan pazandalik mahsulotlarini, qandolatchilik mahsulotlarini sotish sanitariya-epidemiologiya nazorati, veterinariya xizmati talablariga muvofiq maxsus jihozlangan hamda ushbu mahsulotni saqlash va sotishning zarur shart-sharoitlarini ta'minlovchi, umumiy ravishda foydalaniladigan oziq-ovqat mahsulotlarini sotish bo'yicha ixtisoslashtirilgan pavilonlarda amalga oshiriladi.

Bozorda import qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini sotishga faqat ushbu bandning ikkinchi xatboshida ko'rsatilgan hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda ruxsat etiladi.

Import tovarlarni chakana savdoda sotuvchi yakka tartibdagi tadbirkor yuridik shaxs bo'lmasdan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida, eksport-import operatsiyalarini va chakana savdoni amalga oshirish huquqi bilan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lishi kerak hamda uning tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni chetdan keltiruvchi yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorning ro'yxatdan o'tkazish (ruxsat berish) tartibotlaridan o'tishining belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan kartochkasiga, shuningdek respublika hududiga tovarlar keltirganligini va ularning bojxonada rasmiylashtirilganligini tasdiqlovchi hujjatlarga, muvofiqlik sertifikatlariga, bojxona to'lovlari va qat'iy soliq to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lishi kerak.

Bozorda nooziq-ovqat iste'mol tovarlari (ilgari foydalanishda bo'lgan tovarlardan tashqari) bilan chakana savdo qilish faqat fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallari majburiy qo'llangan holda turg'un savdo ob'ektlari orqali amalga oshiriladi.

Nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini savdo rastalarida sotishga yo'l qo'yilmaydi.

Bozorlarda xaridorlarga qulaylik yaratish uchun savdo o'rinlari va rastalarda o'rash materiallari (qog'oz va polietilen paketlar, savatlar, jo'natish qutilari) sotishga ruxsat etiladi.

Bozor hududida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishda sotuvchilarda quyidagilar bo'lishi lozim:

sotilayotgan mahsulotning veterinariya qoida va normalari talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi bozorlardagi veterinariya-sanitariya ekspertizasi laboratoriyasining yoki davlat veterinariya xizmati organining xulosasi;

bir martalik yig'im va ko'rsatilgan xizmatlar to'lovi to'langanligini tasdiqlovchi chek.

Ushbu hujjatlar sotuvchida butun ish vaqti davomida saqlanadi hamda bozor va davlat soliq xizmati organlari mas'ul xodimlarining birinchi talabiga ko'ra ko'rsatiladi.

ILGARI FOYDALANISHDA BO'LGAN MOL-MULKNI SOTISH BOZORLARI FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI

Ilgari foydalanishda bo'lgan xo'jalik tovarlari va maishiy texnika, mebel, kiyim-bosh, qurilish materiallari, transport vositalari, shu jumladan ularga ehtiyot qismlar va ilgari foydalanishda bo'lgan boshqa tovarlar ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozorida sotiladigan tovarlarning asosiy turlari hisoblanadi.

Ilgari foydalanishda bo'lgan mol-mulkni sotish bozori hududida:

ob'ektlarni joylashtirishning tasdiqlangan sxemasidan tashqari qo'shimcha savdo o'rinlari tashkil etish;

qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini va ularni qayta ishlash mahsulotlarini sotish (ularni bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchalari orqali sotish bundan mustasno);

yangi import va mahalliy iste'mol tovarlarini hamda boshqa yangi mol-mulkni sotish (ularni bozor hududida joylashgan turg'un savdo shoxobchalari orqali sotish bundan mustasno);

tovarlarni avtomashinalar yoki konteynerlardan sotish;

tayyor armiya anjomlarini va belgilangan namunadagi formal kiyim-boshni, harbiy turdagi boshqa tovarlarni, muassasalar, tashkilotlar va korxonalar shtampi bosilgan choyshablar, ichki ishlar organlarida qo'llaniladigan maxsus vositalar va maxsus aslaha-anjomlarni sotish;

sotilishi qonun hujjatlarida taqiqlangan boshqa tovarlar va buyumlarni sotish taqiqlanadi.

BOZORLAR FAOLIYATINI NAZORAT QILISH

Bozorlar, unga tutashib ketgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, shuningdek ular hududida faoliyatni amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini, ular tomonidan ushbu Qoidalarga, soliq to'g'risidagi qonunlarga, savdo faoliyatini tartibga soluvchi normalar va qoidalarga rioya qilinishini nazorat qilish qonun

hujjatlarida belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Soliq organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshirishlarga iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoat tashkilotlari, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy bo'linmalari vakillari jalb etilishi mumkin.

Bozorda sanitariya va veterinariya normalari va qoidalariga, shuningdek standartlarga, yong'in xavfsizligi normalari va qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish tegishli ravishda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya-epidemiologiya nazorati organlari, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining davlat veterinariya xizmati organlari va O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Davlat yong'in xavfsizligi xizmati tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida savdo komplekslari faoliyatini tashkil etish qoidalari

Savdo kompleksi - chakana savdo va xizmatlar ko'rsatish sohasining turg'un ob'ektlari joylashgan yagona yer uchastkasida qurilgan bino va (yoki) inshootga yoxud binolar va (yoki) inshootlar kompleksiga mulk huquqi bilan yoki boshqa qonuniy asosda egalik qiluvchi yuridik shaxsdir.

Savdo kompleksi hududida joylashgan chakana savdo va umumiy ovqatlanish xizmatlari ko'rsatishning turg'un ob'ektlari faoliyati O'zbekiston Respublikasida chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish (xizmatlar ko'rsatish) qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Savdo kompleksi faoliyatini tashkil etish yuridik shaxs tomonidan unga foydalanish uchun yoxud ijaraga berilgan yer uchastkasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ta'minlanadi. Savdo kompleksi faoliyat ko'rsatishi uchun foydalanishga berilgan yer uchastkasidan boshqa maqsadlarda foydalanilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rsatib o'tilgan yuridik shaxs har qanday tashkiliy-huquqiy shaklda tashkil etiladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan bozor negizida qayta tashkil etilgan savdo kompleksining muassislaridan bittasi majburiy tartibda ustav fondidagi ulushi kamida 51 foiz bo'lgan mahalliy davlat hokimiyati organi bo'lishi kerak.

Savdo kompleksida quyidagilar bo'lishi kerak:

uning ish vaqti tugagandan keyin yopiladigan kirish va chiqish joylari;

savdo kompleksining nomi, ixtisoslashuvi va ish tartibi ko'rsatilgan, davlat tilida rasmiylashtirilgan peshlavha;

tartib raqamlari qo'yilgan turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan pavilonlar), shuningdek savdo kompleksi ma'muriyati tasdiqlagan va ko'rinarli joyga osilgan savdo kompleksi ob'ektlarining joylashish sxemasi. Bunda savdo o'rinlarining joylashishi xaridorlarning savdo kompleksida erkin yurishini ta'minlashi kerak;

buyumlarni saqlash joylari;

tovarni turg'un savdo shoxobchalariga yetkazish uchun aravachalarni prokatga berish punkti;

xarid qilingan tovarlarni avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylarigacha yoki savdo kompleksi hududidagi yoxud unga yondosh ko'chalargacha olib borish uchun, aravachalarning qaytarilishi uchun zarur choralarni nazarda tutgan holda, aravachalarni olish va topshirish uchun barcha qulayliklarni yaratib, xaridorlarga bepul aravachalar berish punkti;

avariya hamda favqulodda vaziyatlar holatlarida yong'inni o'chirish va aholini xabardor qilish vositalari;

ijarachilar va xaridorlar uchun savdo kompleksi hududida va unga tutash hududlarda avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari, jamoat hojatxonalari, suv quvurlari, yuz-qo'l yuvgichlar, axlat to'plagichlar, kiyimni kiyib ko'rish kabinalari va boshqa zarur infratuzilma ob'ektlari.

Savdo kompleksi hududida quyidagilar taqiqlanadi:

turg'un savdo shoxobchalaridan tashqarida nooziq-ovqat va oziq-ovqat tovarlarini sotish;

avtomashinalardan va yuklarni tashish uchun mo'ljallangan vositalar (konteynerlar)dan oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini sotish;

vakolatli banklarning belgilangan tartibda jihozlangan va faoliyat ko'rsatuvchi valyuta almashtirish shoxobchalaridan tashqari, xorijiy valyuta sotish;

qonun hujjatlarida taqiqlangan tovarlar va boshqa buyumlarni sotish.

Savdo sub'ektlari quyidagilarga majbur:

tegishli peshlavha shaklida o'z tashkilotining firma nomini (nomi, ramzi yoki tovar belgisini), yakka tartibdagi tadbirkorning nomini, joylashgan joyini (pochta manzilini) va ish rejimini (ishning boshlanish va tugash vaqtini, tushlik paytini, dam olish kunlarini) iste'molchiga ma'lum qilish;

savdo faoliyatini amalga oshirishda turg'un savdo shoxobchasi ijara to'g'risidagi shartnomaga va ijara to'lovi to'langanligi to'g'risidagi hujjatga, yuridik shaxs yoxud yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaga, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlarga ega bo'lishi kerak. Ushbu hujjatlar davlat soliq xizmati organlari mas'ul xodimlarining birinchi talabiga ko'ra ko'rsatiladi;

naqd tushumni ushbu savdo kompleksi hududida tashkil etilgan inkassatsiya punktlariga (banklar kassalariga) har kuni inkassatsiya qilish (topshirish)ni belgilangan tartibda amalga oshirish;

ijara to'lovini o'z vaqtida to'lash;

faqat savdo kompleksi ma'muriyati tomonidan belgilangan joylarda savdo qilish;

savdo shoxobchalarini toza va tartibli saqlash;

yong'in xavfsizligi talablariga rioya qilish, texnik va yong'in signalizatsiyasi vositalari (priborlari) mavjud bo'lishini ta'minlash;

savdo kompleksi ma'muriyati va nazorat organlarining qonuniy talablarini bajarish;

Belgilangan qoidalar normalariga va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga rioya etish.

Turg'un savdo shoxobchasining ijara huquqlarini uchinchi shaxsga berish taqiqlanadi.

Savdo kompleksi ma'muriyati quyidagi huquqlarga ega:

savdo kompleksida savdo faoliyatini amalga oshirish va xizmatlar ko'rsatish uchun yuridik shaxslarga va yuridik shaxs tashkil qilmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarga shartnoma asosida turg'un savdo shoxobchalari berish. Turg'un savdo shoxobchalarining ijara huquqi yuridik shaxslarga va yuridik shaxs tashkil qilmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarga ochiq tanlov savdolari o'tkazish natijalari bo'yicha beriladi;

shartnoma asosida qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish;

nazorat organlari vakillariga ular savdo komplekslarida o'z funksiyalarini amalga oshirayotganda hamrohlik qilish;

ijaraga oluvchilar bilan tuzilgan turg'un savdo shoxobchalarining ijara shartnomasini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilish va unga o'zgartirishlar kiritish.

Tarozilar va boshqa o'lchov priborlarini ijaraga berish, yuk saqlash joylarini tashkil etish, sotuvchilar va xaridorlar uchun aravachalarni ijaraga berish bo'yicha xizmatlar faqat savdo kompleksi ma'muriyati tomonidan ko'rsatilishi mumkin.

Savdo kompleksi ma'muriyati quyidagilarga majbur:

savdo sub'ektlari va o'z xodimlari tomonidan belgilangan qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish;

savdo kompleksi ishlarini va uning faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni savdo faoliyatini amalga oshirishni belgilovchi va savdo kompleksi joylashgan hududda atrof muhitni muhofaza qilishni, epidemik va ekologik xavfsizlikni ta'minlovchi qoidalar va normalarga qat'iy muvofiq ravishda tashkil etish;

savdo kompleksining normal faoliyat ko'rsatishi uchun jamoat tartibini saqlash, qo'riqlashni tashkil etish, shu jumladan uning energiya, issiqlik va suv ta'minoti yuzasidan zarur sharoitlarni ta'minlash bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rish;

buyumlarni saqlash joylari hamda sotuvchilar va xaridorlarga aravachalarni prokatga berish punktlari ishlari uchun mas'ullarni buyruq bilan tayinlash;

buyumlarni saqlash joylari, aravachalar berilganligi uchun to'lovlarni fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallarini majburiy qo'llagan holda qabul qilish;

savdo kompleksi va unga tutash hududni, ma'muriy-xo'jalik binolarini, umumiy ravishda foydalaniladigan joylarni zarur sanitariya-texnik holatda saqlash;

yondosh hududlarning o'z vaqtida yig'ishtirilishi va obodonlashtirilishini ta'minlash;

qattiq maishiy chiqindilar, yirik hajmli axlatlar, turli xil idishlar va shu kabilarning tashib ketilishini ta'minlash.

Savdo kompleksi ma'muriyati quyidagilarni ta'minlaydi:

xaridorlarga xizmat ko'rsatishda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarning sabablarini bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan mulohazalar va takliflar daftari mavjud bo'lishini ta'minlash hamda uni xaridorlarning birinchi talabiga ko'ra taqdim etish;

banklar kassalari va inkassatsiya punktlari ishlari uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, o'z faoliyatini savdo kompleksida joylashgan turg'un savdo shoxobchalari orqali amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning naqd tushumi har kuni inkassatsiya punktlariga (banklar kassalariga) inkassatsiya qilinishiga (topshirilishiga) ko'maklashish.

Savdo kompleksi ma'muriyati nazorat organlari vakillariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladigan tekshirishlarni amalga oshirishda ko'maklashadi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ko'radi. Zarurat bo'lganda, nazorat organlari xodimlariga tekshirishlarni o'tkazish davri uchun xonalar ajratadi.

Savdo kompleksi ma'muriyati iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablari, belgilangan savdo qoidalari bajarilishi yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi.

Savdo kompleksi ma'muriyati rahbariyati belgilangan qoidalar normalariga rioya qilinmaganligi va ularga rioya etilishi bo'yicha savdo kompleksi ma'muriyati xodimlari tomonidan zarur nazoratning yo'qligi yuzasidan javob beradi.

Savdo kompleksi ma'muriyati rahbarlari ijara to'lovlari hamda ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovlarning o'z vaqtida va to'liq undirilishi ta'minlanganligi, shuningdek turg'un savdo shoxobchalarining jismoniy shaxslarga ular yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomasiz berilganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

Savdo kompleksining ish rejimi savdo kompleksi ma'muriyati tomonidan belgilanadi. Savdo kompleksi hududida alohida savdo ob'ektlarining ish vaqti savdo kompleksining umumiy ish rejimi bilan tartibga solinadi.

Rejali sanitariya-texnik ishlarni bajarish uchun savdo kompleksi yopilganda savdo kompleksi ma'muriyati oldindan, mazkur ishlarni bajarishdan oldin yetti ish kunidan kechikmay savdo sub'ektlarini, aholini va mahalliy davlat hokimiyati organini savdo kompleksining yopilishi sabablari va davri to'g'risida xabardor qiladi.

Savdo kompleksi ishlagan vaqtda alohida savdo ob'ektini yopish zarur bo'lgan taqdirda savdo sub'ekti xaridorlar uchun ob'ektning yopilishi davri to'g'risidagi e'lonni osib qo'yishi, ob'ekt ish vaqtining 1 soatidan ko'proq vaqtga yopilgan taqdirda esa, xaridorlar uchun e'londan tashqari - bu haqda savdo kompleksi ma'muriyatini yozma shaklda xabardor qilishi shart.

Avariya va favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tadbirlarni bajarish uchun savdo kompleksi yopilgan taqdirda bu haqdagi axborot sotuvchilar, xaridorlar va mahalliy davlat hokimiyati organlariga darhol yetkaziladi.

Savdo komplekslari daromadlarining manbalari quyidagilar hisoblanadi:

ijara to'lovidan olingan daromadlar;

sotuvchilar va xaridorlarga xizmatlar ko'rsatishdan olingan daromadlar;

qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa tushumlar.

Savdo kompleksi daromadlarini taqsimlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Savdo va xizmatlar sohasi ob'ektlari, binolar va inshootlar faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga shartnoma asosida ijaraga beriladi.

Ijara to'lovini to'lash savdo kompleksi ma'muriyati bilan ijaraga oluvchi o'rtasida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuziladigan ijara shartnomasi asosida amalga oshiriladi.

Ijara to'lovi ijaraga oluvchi tomonidan har oyda hisobot oyining 25-kunigacha savdo kompleksining bankdagi hisob-kitob raqamiga to'lanadi.

Savdo kompleksi ma'muriyati ijara to'lovini hamda ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovni undirishning barcha sotuvchilar uchun qulay shart-sharoitlari yaratilishi uchun javob beradi.

Savdo kompleksi ma'muriyati quyidagilarni tashkil etishga majbur:

savdo kompleksi hududida savdoni amalga oshirish shart-sharoitlari bo'yicha davlat tilida ijara to'lovi miqdorlari va ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati ko'rsatilgan plakatlarini, tushuntirish jadvallarini ko'rinarli joyga joylashtirish;

tegishli tarzda, shu jumladan fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalari va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallari bilan jihozlangan ko'rsatiladigan xizmatlar uchun to'lovni undirishning turg'un punktlari;

ijara to'lovini undirishning asosiy shartlarini, sotuvchi va xaridorlarga ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati va qiymatini radiouzel orqali muntazam ravishda ma'lum qilib borish;

savdoni amalga oshirish, ijara to'lovini to'lash tartibini buzuvchi shaxslarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik choralari qo'llash zarur bo'lganda davlat soliq xizmati organlari va huquq-tartibotni muhofaza qilish organlari bilan tezkor aloqa o'rnatish.

Soliqqa tortish soliqqa oid qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bunda ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi kamida 51 foizni tashkil qiladigan savdo komplekslariga bozorlar uchun belgilangan soliq solish tartibi tatbiq etiladi.

Savdo kompleksi, unga tutashgan avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash joylari faoliyatini, shuningdek savdo kompleksi hududida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini, ular tomonidan belgilangan qoidalar normalariga, soliq to'g'risidagi qonunlarga, savdo faoliyatini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya etilinishini nazorat qilish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan o'tkaziladigan tekshirishlarga iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoat tashkilotlari, Savdo-sanoat palatasi va uning hududiy bo'linmalari vakillari, shuningdek boshqa nazorat organlari mutaxassislari jalb etilishi mumkin.

Mazkur Qoidalarning buzilishiga yo'l qo'ygan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

Quyidagilar savdo komplekslarida sotiladigan tovarlarning asosiy turlari hisoblanadi:

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar;

xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi korxonalar tovarlari;

mahalliy korxonalarda ishlab chiqarilgan tovarlar;

belgilangan tartibda yakka tartibdagi tadbirkorlar yoki yuridik shaxslar tomonidan olib kelingan import tovarlar.

Savdo komplekslarida tovarlarni chakana sotish yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalaridan va to'lovlarni bank plastik kartochkalaridan qabul qilish bo'yicha to'lov terminallaridan majburiy foydalangan holda, turg'un savdo shoxobchalari orqali amalga oshiriladi.

Tovarlarni sotish bo'yicha faoliyatning litsenziyalanishi talab etiladigan tovarlar savdosi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

bevosita o'zlari olib kelgan import tovarlar;

o'zlari tayyorlagan (sotish taqiqlanmagan) tovarlar;

ushbu tovarlarni ishlab chiqargan boshqa yakka tartibdagi tadbirkorlardan sotib olingan tovarlar;

yuridik shaxslar - mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarning tovarlari bilan - ular sotib olinganligining qonuniyligini tasdiqlaydigan barcha hujjatlar mavjud bo'lganda amalga oshirish huquqiga ega.

Xususiy tadbirkor tomonidan o'zi import qilgan tovarni sotish yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma hamda tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni keltiruvchi, yuridik shaxs tashkil etmagan yakka tartibdagi tadbirkorning ro'yxatdan o'tish (ruxsat berish) tartibotlaridan o'tishning belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan kartochkasi mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

O'zi tayyorlagan tovarlarni chakana sotuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan berilgan va davlat soliq xizmati organlari tomonidan tasdiqlangan ishlab chiqarish sharoitlari mavjudligini tasdiqlovchi hujjatlarga ega bo'lishi shart.

Boshqa yakka tartibdagi tadbirkorlardan - ushbu tovarlarni ishlab chiqaruvchilardan sotib olingan tovarlarni chakana sotuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar olingan tovarlar uchun haq to'langanligini tasdiqlaydigan hujjatga, yakka tartibdagi tadbirkorlar - ishlab chiqaruvchilar bilan tuzilgan sotiladigan tovarlarning oldi-sotdi shartnomasiga ega bo'lishlari shart. Shartnomada majburiy tartibda quyidagi rekvizitlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak:

yakka tartibdagi tadbirkorlarning - sotuvchi va xaridorning familiyalari, ismlari va otasining ismlari;

yakka tartibdagi tadbirkorlarning - sotuvchi va xaridor pasportlarining seriyalari, tartib raqamlari va berilgan sanalari;

yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risidagi guvohnomalarning tartib raqamlari va berilgan sanalari hamda guvohnomani bergan davlat hokimiyati organining nomi;

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR) va ro'yxatdan o'tkazish joyi bo'yicha davlat soliq inspeksiyasi;

bank rekvizitlari.

Savdo kompleksida qonun hujjatlariga muvofiq talab qilinadigan hujjatlarni rasmiylashtirmasdan yoxud ularning amal qilishi to'xtatib turilgan yoki chaqirib olingan davrda savdo faoliyatini oshirish faoliyatni litsenziyasiz amalga oshirish deb qaraladi va bu holda qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlik choralari ko'riladi.

Savdo kompleksi (chakana savdo va xizmatlar ko'rsatishning turg'un ob'ekti) faoliyati qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatib turilishi yoki to'xtatilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Chakana va ulgurji savdoning qanday farqli jihatlari mavjud?
2. Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari qanday tartibda soliqqa tortiladi?
3. Savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish tartib qoidalariga nimalar kiradi?
4. Savdo-sotiq va xizmat ko'rsatish tartib qoidalariga rioya qilmaslik yoki ularni buzishga nisbatan qanday javobgarlik choralari mavjud?
5. Yuridik shaxs bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar buyum bozorida qanday tovarlar bilan savdo faoliyatini amalga oshirishi mumkin?
6. Savdo faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslar qanday tartibda soliqqa tortiladi?
7. Chakana va ulgurji savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchilar qanaqa tartibda davlat ruyxatidan o'tkaziladi?
8. Alkagolli maxsulotlar bilan savdo qilish huquqi kimlarga beriladi?
9. Qanday tovarlar bozorda sotilishi taqiqlangan?
10. Turg'un savdo shaxobchasi deganda nima tushuniladi?
11. Savdo zali nima?
12. Nazorat tarozilarini o'rnatish qachon talab etiladi?

7.Mavzu: Xo'jalik sub'ektlari faoliyatini hujjatli tekshirilishi natijasida tayyorlanadigan tekshiruv materiallarini rasmiylashtirish tartiblari.

Reja:

1. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasini rasmiylashtirishda qo'yiladigan talablar
2. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasini rasmiylashtirish tartibi
3. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining tavsif qismini tuzishda qo'yiladigan talablar
4. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasini imzolash va taqdim qilish

Tayanch so'z va iboralar:

- | | |
|---------------------------|------------------------------------|
| 1. Tekshiruv materiallari | 8. Tushuntirish xati |
| 2. Dalolatnoma | 9. Tekshirishlarni tartibga solish |
| 3. Ko'rsatma | 10. Majburiyat |
| 4. Taftish | 11. Huquq |
| 5. Ekspertiza | 12. Tekshirish |
| 6. Ekspert xulosasi | 13. Javobgarlik |
| 7. Bayonnoma | 14. Tilxat |

1. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasini rasmiylashtirishda qo'yiladigan talablar.

Tasdiqlangan dastur asosida, o'tkazilgan hujjatli tekshirish (taftish) natijalari bo'yicha tuzilgan tekshirish dalolatnomasi soliq organlarining vakolatli mansabdor xodimlari tomonidan, mazkur tartib asosida, uch nusxada tuziladi va uchinchi nusxasi tekshirilgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariga beriladi. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining har bir nusxasi tekshiruvchi va tekshirilayotgan sub'ektning mas'ul xodimlari, ya'ni rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolanadi. Dalolatnoma qog'ozda, o'zbek yoki rus tilida tuzilib, varaqlari ketma-ketlikda raqamlanadi. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasida yozuvlarni o'chirish, tuzatish hollariga yo'l qo'yilmaydi, agarda shu hollar ro'y bersa bu o'zgartirishlar imzo qo'yuvchilar tomonidan izohlanib, imzolari bilan tasdiqlanishi zarur. Dalolatnomada qisqartirishlar yoki umumiy qabul qilingan abbreviaturalar ishlatilishi, dastlab qisqartiriladigan so'z birikmasi to'liq yozilib, bir vaqtning o'zida keyinchalik qisqartiriladigan so'z birikmasi namunasi qavs ichida keltirilgan tartibda ifodalanadi.

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasida, tekshirish jarayonida hujjatlar asosida tasdiqlangan soliq va boshqa qonunbuzarliklar faktlari yoki qonunbuzarlik mavjud bo'lmagan hollar ifodalanishi lozim.

2. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasini rasmiylashtirish tartibi

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasi: kirish, asosiy va yakuniy qismlardan iborat bo'ladi. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining kirish qismida o'tkazilayotgan tekshirish va tekshirilayotgan sub'ekt (soliq to'lovchi) haqida umumiy ma'lumotlar, ya'ni :

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining reja-jadvali va ruxsatnomasi;
- soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan hujjatli tekshirishni o'tkazish to'g'risidagi buyruqning raqami, sanasi;
- tekshirilayotgan tadbirkorlik sub'ektining ta'sis hujjatlariga ko'ra to'liq va qisqacha nomi;
- soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR) va OKONX kodi;
- tekshirish o'tkazilgan joyning nomi (tekshirish o'tkazilgan hudud, aholi maskani);
- tekshiruv dalolatnomasi rasmiylashtirilgan sana tekshiruv o'tkazgan shaxslarning dalolatnomaga imzo qo'ygan sanasi.

Hujjatli tekshirishga (taftishga) soliq xizmatining boshqa organlari mutaxasislari jalb etilgan taqdirda, tekshirish dalolatnomasida ularning ham familiyasi, ismi, mansabi va ular xizmat qilayotgan soliq organlari nomi ko'rsatilib o'tiladi.

Tadbirkorlik sub'ekting tekshiruv o'tkazilayotgan faoliyat davri, tekshirish boshlangan va tugallanish sanasi.

Bunda, tekshirishning boshlanish sanasi bo'lib, tekshirilayotgan sub'ekt rahbariga (vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi shaxsga), hujjatli tekshirishni o'tkazish to'g'risida soliq organi boshlig'ining (o'rinbosarlari) buyrug'ini taqdim qilingandagi sanasi, tekshirishni tugatilish sanasi esa - tekshiruvni amalga oshirgan tekshiruvchilarning dalolatnomaga imzo qo'ygan sanasi hisoblanadi. Ammo, tekshirishga taqdim etilishi lozim bo'lgan hujjatlar bo'lmagan yoki ularni tekshiruvga taqdim etilmagan holatlarda, tekshirishni boshlanish sanasi bo'lib, tekshiruvga hujjatlar taqdim etilgan sana hisoblanadi.

- tekshirilayotgan davrda, tekshirilayotgan sub'ekt mansabdor shaxslarining (rahbari, bosh hisobchisi yoki ularning vazifasini bajaruvchilar) familiyasi, ismi, sharifi;

Agarda tekshirilayotgan davr maboynida yuqorida qayd etilgan shaxslar tarkibida o'zgarish yuz bergan bo'lsa, mazkur shaxslarning, qaysi vaqtdan boshlab (buyruq, farmoyish, ta'sischi yig'ilish qarori yoki ishga tayinlash va bo'shatish to'g'risidagi boshqa hujjatlar) tegishli mansabga, ishga tayinlangani yoki bo'shatilgani ko'rsatib o'tiladi;

- tekshirilayotgan sub'ekt joylashgan manzili (xususiy tadbirkorning yashash manzili), shuningdek, ular tomonidan xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotgan manzil (davlat ro'yxatidan o'tgan manzil bilan solishtirish);

- maxsus ruxsatnoma (litsenziya) asosida amalga oshirilayotgan faoliyat to'g'risidagi malumotlar (sanasi, raqami, bergan tashkilotning nomi, ruxsatnoma amal qilishining boshlanish va tugash sanasi);

- sub'ektning haqiqatda amalga oshirayotgan moliya-xo'jalik faoliyati turi, shu jumladan qonun bilan taqiqlangan faoliyat turi yoki maxsus ruxsatnoma olmasdan faoliyat ko'rsatayotganligi to'g'risidagi malumot;

- tekshirish o'tkazish uslubi, uning birlamchi hujjatlarni (to'liq yoki tanlash yo'li bilan) tekshirilishi tartibi;

- soliq bo'yicha qarama-qarshi tekshiruv o'tkazilganligi, tekshirish bilan bog'liq bo'lgan hujjatlar va buyumlarni olib qo'yilganligi, ekspertiza, soliq to'lovchining mulklari sanoqdan o'tkazilganligi, korxonada hududi va binolari ko'zdan kechirilganligi va tekshiruv davrida amalga oshirilgan boshqa tadbirlar to'g'risida malumot;

- bank muassasalaridagi hisob raqami (shu jumladan Respublikadan tashqarisida mavjud bo'lganlari) va boshqa malumotlar to'g'risida;

- ilgari o'tkazilgan tekshirishlar (Moliya vazirligi, soliq idoralari, huquqni muxofaza qilish idoralari va auditorlik tashkilotlari tomonidan), ular natijalari bo'yicha qabul qilingan choralar (soliq idorasiga qayta topshirilgan hisobotlar, keltirilgan zararning qoplanishi, ko'zg'atilgan jinoyat ishlari) haqida qisqacha malumot;

- tashkil etilgan sho'ba korxonalari, vakolatxonalar, filiallar va boshqa tarkibiy tuzilmalari haqida ma'lumot;

- ta'sischi va ta'sis hujjatlariga asosan nizom fondining miqdori va tekshiruv kuniga qadar nizom fondining haqiqatda shakllantirilganligi haqida ma'lumot (pul mablag'lari hisobida - so'm yoki valyuta, asosiy vositalar, intellektual mulk, nomoddiy aktivlar va h.k.);

- aksionerlik jamiyatlarida aksiyalarning chiqarilishi va ularning joylashtirilishi (foiz hisobida, pul mablag'lari va miqdor ko'rinishida) hamda aksionerlar va xususiylashtirish haqida boshqa zarur bo'lgan ma'lumotlar.

Hujjatli tekshiruv (taftish) natijasi bo'yicha tuzilgan dalolatnomaning tavsif qismida, tekshirish natijasida aniqlangan hujjatli tasdiqlangan soliq va boshqa qonunbuzarlik faktlari yoki qonunbuzarliklarni aniqlanmaganligi holatlari, shuningdek tekshirish natijalari bo'yicha qaror qabul qilishga ta'sir etadigan holatlar tizimli ifodalaniladi.

Tekshiruv davomida soliq qonunchiligiga taalluqli bo'lmagan lekin nazorati soliq idoralariga yuklatilgan qonunbuzarliklar aniqlanganda bunday faktlar ham hujjatli tekshiruvlar natijasi bo'yicha tuziladigan dalolatnomada aks ettirilishi lozim.

3. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining tavsif qismini tuzishda qo'yiladigan talablar

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining tavsif qismi DSQ (DSB, DSI) tomonidan tasdiqlangan tekshiruv dasturiga binoan va quyidagi talablarga muvofiq rasmiylashtirilishi zarur:

a) Ob'ektivlik, asoslilik va xolislik.

Dalolatnomada aks ettiriladigan faktlar - to'liq tekshirish natijasida aniqlangan, noaniqliklarni inkor qiluvchi, shuningdek soliq to'lovchi tomonidan (harakat va harakatsizlik oqibatida) yo'l qo'yilgan soliq qonunchiligi va boshqa qonunbuzarliklar haqida to'liq xulosa berilishini ta'minlashi zarur.

Dalolatnomada aks ettirilgan har bir soliq qonunbuzarlik faktlari bo'yicha quyidagilar aniq izohlab berilishi lozim:

- soliq va boshqa qonunbuzarliklarni turlari, qonunbuzarlikni sodir etish usuli va uni keltirib chiqargan sharoitlar, mazkur qonunbuzarlikka yo'l qo'yilgan soliq davri;

- soliq to'lovchi tomonidan DSIGA topshirilgan soliq hisob-kitoblari va haqiqatda tekshiruv natijalari asosida tuzilgan soliq hisob-kitoblari o'rtasidagi aniqlangan tafovutga baho berish;
- soliq hisobotlari hujjatli tekshiruv dalolatnomasida yozma ravishda bayon etilib, dalolatnomaga taqqoslangan jadvallar hamda tegishli hujjatlar ilova qilinadi;
- qonunbuzarlik faktlarini tasdiqlovchi birlamchi buxgalteriya hujjatlari va boshqa asoslarga tayanish (zarur bo'lganda, buxgalteriya yozuvlari to'g'ri berilganligi, kerakli xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya registrilarida to'g'ri qayd etilganligi ko'rsatiladi);

- sodir etilgan qonunbuzarliklarni, amaldagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to'g'risida»gi nizomi buzilgan bandlariga bog'liq holda tasniflash;

- ekspert xulosasi (agarda ekspertiza amalga oshirilgan bo'lsa), mansabdor shaxslarning tushuntirish xati shuningdek hujjatli tekshirishni amalga oshirish vaqtida bajarilgan tadbirlar bo'yicha tuzilgan bayonnomalarga asoslanish;
- dalolatnomada tekshiruvchining yetarli darajada isbotlanmagan, asossiz, sub'ektiv taxmin va xulosalari bo'lmasligi lozim.

b) Soliq va boshqa qonunbuzarliklarga aloqasi bo'lgan barcha holatlar to'liq va atroflicha yoritilishi zarur.

Soliq to'lovchi tomonidan yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarning dalolatnomadagi bayoni, izohlanayotgan dalilga aloqasi bo'lgan barcha hujjatlarni tekshirish, shuningdek soliq nazoratini ta'minlash uchun o'tkazilgan tadbirlar natijalariga, (agarda zarur bo'lgan hollarda boshqa nazorat organlari mutaxassislarini tekshiruvga jalb etgan holda), asoslanishi zarur.

Dalolatnomada, aniqlangan qonunbuzarliklarga taalluqli bo'lgan barcha muhim holatlar, shu jumladan quyidagi ma'lumotlar to'liq yoritilishi zarur:

- soliq idoralariga topshirilmagan soliq hisob-kitoblari;
- buxgalteriya hisobida moliya-xo'jalik operatsiyalarini to'liq va to'g'ri qayd etilishi holati;
- ishlab chiqarish harajatlarini to'lash tartibi buzilishi holatlari tahlili va manbalari (naqd pulga, tovar ayirboshlash (barter), uchinchi shaxs orqali o'zaro hisob-kitob) haqida;

v) Dalolatnomada bayon etiladigan iboralar aniq, qisqa va ravon mumkin darajada buxgalteriya hisobi bo'yicha maxsus tayyorgarligi bo'lmaganlar uchun ham tushunarli bo'lishi zarur. Dalolatnomada keltirilgan iboralarning ikkiyoqlama talqin etilish holatiga yo'l qo'yilmasligi zarur.

g) Tekshirish natijalarini ifodalash tizimi.

Tekshirish jarayonida aniqlangan xato va kamchiliklar, ular ta'sir etgan soliq turlari va qonunbuzarliklar xususiyatiga qarab tekshirilayotgan davr bo'yicha bo'limlar va bandlar ko'rinishida tartib bilan jamlangan holda dalolatnomada izohlanadi.

Bir xil ko'rinishdagi va ko'plab uchraydigan xato va kamchiliklar ro'yxat va jadvallar ko'rinishida jamlanib dalolatnomaga ilova qilinishi mumkin. Bunday holatda dalolatnoma matnida, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarning mohiyati, soliq to'lovchi tomonidan amaldagi qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarning buzilgan bandlari, shuningdek mazkur xato va kamchiliklarning miqdoriy hamda pul ko'rinishidagi oqibatlar bilan bayon etiladi va dalolatnomada ilova raqami keltiriladi.

Mazkur ilovalarda quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- hisobot (soliq) davri ko'rsatilgan holda, bir turdagi soliq qonunbuzarliklarning to'liq ro'yxati;
- sodir etilgan operatsiyalarga tegishli hujjatlarning nomi, sanasi va raqami;
- mazkur operatsiyaning mohiyati;
- huquqbuzarlik me'yori;

Har bir yuqorida ko'rsatilgan ilova, tekshiruvchi, tekshirilayotgan korxonalar rahbari va bosh hisobchisi (vaqtinchalik vazifasini bajaruvchi shaxslar yoki tadbirkorlar) tomonidan imzolanishi zarur.

Soliq qonunchiligi buzilganlik to'g'risidagi dalillar bayon etilganda, dalolatnomaning tavsif qismida qonun buzulganligini tasdiqlovchi hujjatlarning asli yoki nusxasi olib qo'yilganligi aks ettiriladi;

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasining yakuniy (tugallanuvchi) qismida quyidagilar aks ettirilishi lozim:

- tekshiruv davomida yashirilgan yalpi tushum, foyda (daromad) va boshqa soliq to'lash obektini yashirganligi yoki soliqlarni noto'g'ri hisoblanishi natijasida, to'lanmagan (to'liq to'lanmagan) soliqlarning umumiy miqdori yoki ortiqcha hisoblab qo'yilgan soliqlar, soliq turlariga va soliq davrlariga bo'lib ko'rsatilgan ma'lumot;

- tekshiruv vaqtida tasdiqlangan tekshiruv dasturiga asosan aniqlangan boshqa kamchiliklarni umumlashtirilgan ma'lumoti (Prezident Farmonlari va Hukumat qarorlarini bajarilishi, muddati o'tgan debitor qarzlari, 15 foizlik to'lov oldindan undirilmasdan mahsulot (ish, xizmat) jo'natish holatlari, tovar ayrboshlash (barter) operatsiyalari, kamomad, ortiqchalik, g'azna operatsiyalari, pul mablag'laridan maqsadsiz foydalanish, eksport-import hamda valyuta operatsiyalari va boshqalar);

Soliq to'lovchining soliq qonunchiligini buzganligi uchun javobgarligini yengillashtiradigan yoki og'irlashtiradigan holatlari (boqimanda yoki ortiqcha to'lovlar va boshqalar) dalolatnomaning yakuniy qismida aks ettiriladi.

Hujjatli tekshiruvlar (taftish) dalolatnomasiga ilovalar.

Hujjatli tekshiruvlar (taftish) dalolatnomasida quyidagi ilovalar bo'lishi zarur:

- nazorat qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashi reja-jadvalidan yoki rejadani tashqari tekshirish o'tkazish ruxsatnomasidan ko'chirma, huquqni muxofaza qiluvchi organlarning jinoyat ishi yuzasidan qabul qilgan «Hujjatli tekshirish (taftish) tayinlash to'g'risida»gi qarori;

- hujjatli tekshiruvni (taftishni) o'tkazish uchun soliq organi rahbari (rahbar o'rinbosari) tomonidan imzolangan buyruqdan ko'chirma;

- tekshiruvchilar tomonidan aniqlangan qonunbuzarliklar ko'rsatilgan holda tuzilgan va tekshiruv o'tkazilayotgan korxonalar rahbari va bosh hisobchisi (ular vazifasini vaqtinchalik bajaruvchilar) yoki xususiy tadbirkor tomonidan imzolangan soliq turlari bo'yicha hisob-kitoblar;

- tekshiruv o'tkazilayotgan tashkilotning asosiy vositalari, tovar moddiy boyliklari, hazinadagi naqd pullar va boshqalar bo'yicha o'tkazilgan sanoq dalolatnomalari (mazkur ilova agarda sanoqdan o'tkazilgan bo'lsa keltiriladi);

- qarama-qarshi tekshiruv materiallari (agarda o'tkazilgan bo'lsa);

- ekspert xulosasi (agarda ekspertiza o'tkazilgan bo'lsa);
- soliq to'lovchi tomonidan daromad olish manbai sifatida foydalanayotgan, ishlab-chiqarish, savdo, omborxonada binolarini ko'zdan kechirishda ishtirok etgan shaxslarning izoh (tushuntirish) xati, shuningdek soliq nazoratini amalga oshirishda bajarilgan tadbirlar natijasida tuzilgan tushuntirishlar (shunday tadbirlar amalga oshirilgan taqdirda);
- soliq imtiyozlaridan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi;
- soliq to'lovchi tomonidan, soliq qonunchiligi buzilganligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi yoki soliq to'lovchidan yuqoridagi hujjatlar olib qo'yilganda ularning asl nusxasi.
- bank (boshqa kredit tashkilotlar) ma'lumotnomasi;
- yakuniy tekshirish va zaruriyat tug'ilgan hollarda tekshirilayotgan sub'ektning banklardagi mavjud hisob raqamlaridagi pul mablag'larining harakati to'g'risidagi olingan ma'lumotlar (to'liq hujjatli tekshirish o'tkazilganda, butun tekshirilayotgan davr uchun olinadi);
- tadbirkorlik sub'ekti nizom jamg'armasining shakllanishi to'g'risida ma'lumot;
- ta'sischilar tarkibi va har bir ta'sischining ulushlari miqdori to'g'risida ma'lumot;
- tekshirilayotgan sub'ekt rahbarlari tomonidan imzolangan, mavjud sho'ba korxonalari va mustaqil bo'linmalari, vakolatxonalari (ularning manzili, STIRlari) korxonaning asosiy hududidan tashqarida joylashgan ishlab-chiqarish binosi, omborxonasi va savdo shoxobchalari manzili, soliq to'lovchi qaramog'idagi yer uchastkasi to'g'risida malumot;
- hujjatli tekshiruv (taftish) dalolatnomasida aks ettirilgan soliq va boshqa qonun buzilish holatlarini tasdiqlovchi, shuningdek tekshirish natijalari bo'yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar.

4 Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasini imzolash va taqdim qilish

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasi, tekshirishda ishtirok etgan soliq idoralarning vakolatli mansabdor xodimlari, tekshirilayotgan sub'ektning rahbari va bosh hisobchisi tomonidan imzolandi.

Tekshirilayotgan sub'ekt rahbarlari, tuzilgan hujjatli tekshirish dalolatnomasi bilan tanishish huquqiga egadirlar. SHu maqsadda hujjatli tekshirish dalolatnomasining nusxasi, soliq organining vakolatli mansabdor xodimi tomonidan, tekshirilgan xo'jalik sub'ekti rahbariga tanishish va imzo qo'yish uchun tekshiruv tugagan kundan kechiktirmasdan bir sutka muhlatga taqdim etiladi. Soliq organining vakolatli mansabdor xodimlari tomonidan imzolangan hujjatli tekshirish dalolatnomaning nusxasi, tekshirilgan sub'ekt rahbariga topshiriladi va soliq idorasida qoladigan dalolatnoma nusxasining ohirgi varag'ida tekshirilgan korxonaga rahbari tomonidan «Dalolatnomaning nusxasini ilovalari bilan__varaqda (ilova varaqlar soni) oldim» degan jumla yozilib ismi sharifi, dalolatnomani olgan kuni sanasi ko'rsatilib imzolandi.

Tekshirilgan sub'ekt rahbarlari hujjatli tekshirish dalolatnomasini qabul qilishdan bosh tortgan hollarda, soliq organining mansabdor xodimlari tomonidan bu holat bo'yicha xolis guvohlar jalb etiladi va tekshirilayotgan sub'ekt rahbarlari tomonidan dalolatnomani qabul qilishdan bosh tortish holati yuzasidan bayonnoma tuziladi. Bayonnomaning guvohlar tomonidan imzolangan sanasi hujjatli tekshirish dalolatnomasini taqdim etilgan kun deb hisoblanadi.

Agar tekshirilayotgan sub'ekt rahbarlari dalolatnomani imzolash vaqtiga kelib, hech bir sababsiz yakunlash jarayonida ishtirok etmasa, xolis guvohlar jalb etiladi hamda yuzaga kelgan holat bo'yicha bayonnoma tuziladi va pochta orqali tekshirilgan sub'ekt manziliga yuboriladi. Pochta orqali yuborilgan dalolatnoma sanasi hujjatli tekshirish dalolatnomasini taqdim etilgan kun deb hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Dalolatnomalarni rasmiylashtirish yagona tartibida qanday umumiy qoidalar amalga kiritildi?
2. Tekshiruv materiallari qanday hujjatlardan tarkib topadi?
3. Dalolatnomani kirish qismida qanday ma'lumotlar qayd etilishi shart?
4. Soliqlar bo'yicha tekshiruv natijalari qanday tartibda qayd etiladi?

5. Dalolatnomaga ilova qilinishi lozim bo'lgan hujjatlar nimalardan iborat?
6. Dalolatnomani imzolash tartibini ta'riflang?
7. Tekshiruv dalolatnomasiga xo'jalik yurituvchi sub'ekt mansabdor shaxslari qo'l qo'yishdan bosh tortgan hollarda qanday chora-tadbirlar amalga oshiriladi?
8. Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobida qanday ma'lumotlar rasmiylashtirilishi zarur?
9. Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobi nima maqsadda yuritiladi?
10. Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirilishini qaysi idoralar nazorat qiladi?
11. Tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobining yuritilishi tadbirkorlik sub'ektlari uchun erkinlikmi yoki majburiyat?
12. Nazorat organlari mansabdor shaxslari tekshirishlarni ro'yxatga olish kitobini to'ldirishdan bosh tortgan holda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda qanday huquq mavjud?

8. Mavzu: Tekshiruv materiallarini shakllantirish va ro'yxatdan o'tkazish tartiblari

Reja:

1. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasini ro'yxatdan o'tkazish va soliq organining rahbari (muovini) tomonidan ko'rib chiqish tartibi
2. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasi bo'yicha taqdimnoma kiritish va qaror qabul qilish tartibi
3. Jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish tartibi

Tayanch so'z va iboralar:

- | | |
|---------------------------|-------------------------|
| 1. Tekshiruv materiallari | 8. 1- shakldagi daftar |
| 2. Dalolatnoma | 9. 2- shakldagi daftar |
| 3. Ko'rsatma | 10. 4- shakldagi daftar |
| 4. Taftish | 11. Huquq |
| 5. Ekspertiza | 12. Tekshirish |
| 6. Ekspert xulosasi | 13. Javobgarlik |
| 7. Bayonnoma | 14. Tilxat |

1. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasini ro'yxatdan o'tkazish va soliq organining rahbari (muovini) tomonidan ko'rib chiqish tartibi

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasi imzolanganidan keyin tekshirilgan sub'ekt ro'yxatdan o'tgan soliq idorasi tomonidan belgilangan tartibda bir sutkadan kechiktirmay ro'yxatdan o'tkaziladi.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlar qarorlari asosida xo'jalik sub'ektlarida o'tkazilgan tekshirish dalolatnomalari ham belgilangan tartibda davlat soliq xizmati organlaridan ro'yxatdan o'tkaziladi. Tekshirish davomida soliq va valyutaga oid jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda, belgilangan tartibda oraliq dalolatnoma tuzilib, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga hamda jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti yoki uning hududiy bo'linmalariga yuboriladi. Tekshirish natijalaridan norozi bo'lgan tadbirkorlik sub'ekti rahbarlari tekshirish dalolatnomasini o'z e'tirozlari bilan imzolaydilar va O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq imzolangan dalolatnomani olganlaridan so'ng, 10 kundan kechiktirilmagan muddatda asoslovchi hujjatlarni (ularni tasdiqlangan nusxasi) ilova qilgan holda o'z e'tirozlarini soliq organiga yozma ravishda taqdim etadilar.

E'tiroz bildirilgan dalolatnoma, soliq organi boshlig'i va ishchi guruh tomonidan, e'tiroz kelib tushgan sanadan boshlab 5 kun ichida, tadbirkorlik sub'ekti tomonidan asoslovchi hujjatlar taqdim etmasa ham soliq to'lovchi ishtirokida ko'rib chiqish natijalari bo'yicha bayonnoma tuzilib hamma ishtirokchilar tomonidan imzolanadi.

E'tiroz bildirilgan tekshiruv materiallarini ko'rib chiqish vaqti va manzili haqida, soliq organi tomonidan tekshirilgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt vakillari yozma ravishda oldindan ogohlantirilishi shart. Soliq to'lovchi, tekshirish materiallari va e'tirozlarni ko'rib chiqish yuzasidan soliq organining taklifini rad etsa yoki sababsiz qatnashmasa, tekshirish materiallari soliq to'lovchining ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

Ishchi guruh tomonidan hujjatli tekshirish natijasi yuzasidan soliq to'lovchi tomonidan bildirilgan e'tirozlar, to'liq yoki qisman asoslab berilgan taqdirda dalolatnomaga o'zgartirishlar kiritiladi va soliq organi boshlig'ining (o'rinbosari) taklifiga ko'ra tekshiruvni o'tkazgan xodimining harakati tufayli tekshirilgan sub'ektga moddiy zarar yetkazilgan taqdirda, zararning darajasiga qarab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 5 maydagi 180-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmatni o'tash to'g'risida Nizom»ga muvofiq uning xizmat vazifasiga loyiqligi va ma'muriy javobgarligi masalasi hal etiladi. Barcha holatlarda (soliq to'lovchining ishtirokida yoki ishtirokisiz) tekshirish materiallarini ko'rib chiqish natijalari, soliq organi tomonidan soliq to'lovchiga yozma ravishda kerakli asoslar bilan taqdim etilishi lozim.

Hujjatli tekshirish (taftish) materiallari yuqorida keltirilgan tartib asosida ko'rib chiqilmasa, soliq organining bunga aloqador mansabdor xodimlari belgilangan tartibda intizomiy javobgarlikka tortiladilar.

2. Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasi bo'yicha taqdimnoma kiritish va qaror qabul qilish tartibi

Hujjatli tekshirish natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlar, yig'imlar va majburiy ajratmalar bo'yicha soliq organi tomonidan tadbirkorlik sub'ektiga tekshiruv dalolatnomasi ro'yxatga olingan sanadan boshlab 5 kundan kechiktirilmasdan qaror taqdim qilinadi. Qarorda soliqlar, yig'imlar va majburiy ajratmalar bo'yicha qo'shimcha hisoblangan summalar hamda penyalalar bilan birgalikda 10 kunlik muddatda to'lanishi belgilanadi.

Qo'shimcha hisoblangan soliqlar, yig'imlar va majburiy ajratmalar bo'yicha xo'jalik sub'ekti tomonidan e'tiroz bildirilgan bo'lsa, e'tiroz kelib tushgan sanadan boshlab 5 kun davomida ishchi guruh tomonidan ko'rib chiqiladi va lozim topilsa, davlat soliq xizmati organi rahbari yoki uning o'rinbosari tomonidan imzolangan qaror taqdim qilinadi.

Qarorning kirish qismida quyidagilar aks ettiriladi:

qarorning raqami va sanasi;

aholi punktining nomi;

soliq organining nomi, qaror qabul qilayotgan rahbar yoki uning o'rinbosarining ismi sharifi;

qaror qabul qilinayotgan hujjatli tekshirish dalolatnomasining raqami va sanasi;

qaror qabul qilinayotgan sub'ektning to'liq nomi, manzili va identifikatsion raqami, rahbarining va bosh hisobchining (xususiy tadbirkorning) ismi sharifi.

Qarorning bayon qismida quyidagilar izohlanadi:

tekshirish davomida aniqlangan holat (yashirilgan tushum, buxgalteriya hujjatlari bilan kirim qilinmagan tovar va boshqalar) soliq va boshqa to'lovlarni noto'g'ri hisoblash natijasida to'lanmagan (to'liq to'lanmagan) yoki ortiqcha hisoblangan soliqlarning umumiy summalari haqida, soliq turlari va to'lov davrlariga ajratilgan holda ko'rsatilgan ma'lumot;

boshqa aniqlangan qonun buzilish holatlari;

Qarorning xulosa qismida quyidagilar aks ettirilishi zarur:

yo'l qo'yilgan soliq qonunbuzarliklari uchun soliq to'lovchini javobgarlikka tortish huquqi O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi plenumining 2006 yil 22 dekabrda «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish va ularning moliyaviy javobgarligini erkinlashtirishni takomillashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarini qo'llash bilan bog'liq masalalar to'g'risida»gi 12/149-sonli qaroriga asosan soliq organiga berilganligi e'tirof etiladi;

byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summalari;
o'z vaqtida to'lanmagan soliq summalariga hisoblangan ustama summalar;
ortiqcha hisoblangan soliq summalari;

yo'l qo'yilgan har bir soliq qonunbuzarligi uchun qo'llaniladigan javobgarlikni belgilovchi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tegishli moddalari va boshqa normativ hujjatlar ko'rsatib o'tiladi va aniqlangan soliq va boshqa qonunbuzarlik holatlarini bartaraf qilish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Hujjatli tekshirish natijasida tadbirkorlik sub'ektiga nisbatan moliyaviy jarima qo'llash hollari mavjud bo'lsa, tekshiruv dalolatnomasi ro'yxatga olingan sanadan boshlab 5 kundan kechiktirilmagan faqat moliyaviy jarima qo'llash qismi bo'yicha taqdimnoma kiritiladi.

Taqdimnomada moliyaviy jarimani qo'llash asoslari va hisobi ko'rsatilgan bo'lishi, shuningdek jarima summalari 10 kunlik muddatda ixtiyoriy to'lanishi va jarimaning to'langanligi haqida soliq organini xabardor qilishi (asoslovchi hujjat ilova qilingan holda), aks holda materiallar bo'yicha qaror qabul qilish yuzasidan Xo'jalik sudiga murojaat qilinishi to'g'risida ogohlantiriladi.

Taqdimnomaning kirish kismida quyidagilar aks ettiriladi:

taqdimnomaning raqami va sanasi;
aholi punktining nomi;

soliq organining nomi, taqdimnoma kiritayotgan rahbar yoki uning o'rinbosarining ismi sharifi;

taqdimnoma kiritilayotgan hujjatli tekshirish dalolatnomasining raqami va sanasi;

taqdimnoma kiritilayotgan sub'ektning to'liq nomi, manzili va identifikatsion raqami, rahbarining va bosh hisobchining (xususiy tadbirkorning) ismi sharifi.

Taqdimnomaning bayon qismida quyidagilar izohlanadi:

tekshirish dalolatnomasida aniqlangan moliyaviy jarima qo'llash lozim bo'lgan holatlar aks ettirilishi lozim;

Taqdimnomaning xulosa qismida quyidagilar aks ettirilishi zarur:

yo'l qo'yilgan soliq qonunbuzarliklari uchun soliq to'lovchini javobgarlikka tortish huquqi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyundagi PF-3619-sonli farmoniga asosan sud organlariga va O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuniga asosan soliq organi rahbari yoki uning o'rinbosariga berilganligi e'tirof etiladi;

byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan soliq summalari;
o'z vaqtida to'lanmagan soliq summalariga hisoblangan ustama summalar;
ortiqcha hisoblangan soliq summalari;

yo'l qo'yilgan har bir soliq qonunbuzarligi uchun qo'llaniladigan javobgarlikni belgilovchi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tegishli moddalari va boshqa normativ hujjatlar ko'rsatib o'tiladi va aniqlangan soliq va boshqa qonunbuzarlik holatlarini bartaraf qilish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi.

Tadbirkorlik sub'ekti tomonidan taqdimnoma qabul qilinganidan keyin 10 kun mobaynida moliyaviy jarima summasi ixtiyoriy ravishda to'lab berilmagan (qisman to'lab berilgan) taqdirda, soliq organi tomonidan moliyaviy jarima qo'llash bo'yicha Xo'jalik sudiga da'vo arizasi kiritiladi.

Tadbirkorlik sub'ekti tomonidan taqdimnoma qabul qilinganidan keyin 10 kun mobaynida moliyaviy jarima ixtiyoriy ravishda to'lab berilgan va jarimaning to'langanligi haqida (asoslovchi hujjat ilova qilingan holda) soliq organi xabardor qilingan taqdirda, soliq

organi rahbari yoki uning o'rinbosarining qaroriga asosan, moliyaviy jarima summasi tadbirkorlik sub'ekti shaxsiy varaqasiga kiritilishi lozim.

Moliyaviy jarima qo'llash to'g'risidagi da'vo arizasiga tadbirkorlik sub'ektining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijasida tuzilgan dalolatnoma yoki boshqa hujjatning asli (tegishli tartibda rasmiylashtirilgan nusxasi) yoxud moliyaviy jarima qo'llashga asos qilib olingan boshqa hujjatlar ilova qilinishi shart.

Da'vo arizasi sud organi tomonidan ko'rib chiqilib, qaror qabul qilingandan so'ng, soliq organi tomonidan moliyaviy jarima belgilangan tartibda undirishga qaratiladi.

Tekshiruv natijasida soliq va to'lovlar bo'yicha zararlar aniqlanmagan, ammo boshqa huquqbuzarlik holatlari qayd qilingan tekshirish hujjatlari bo'yicha belgilangan tartibda mansabdor shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari ko'riladi.

3. Jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga taqdim etish tartibi

Jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan materiallar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

Tekshirish natijasida jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan qo'shimcha hisoblangan soliq va to'lovlar, qonun hujjatlarini buzganlik natijasida keltirilgan zarar to'liq, ixtiyoriy ravishda qoplangan (to'lab berilgan) bo'lsa, tekshirish hujjatlari tadbirkorlik sub'ektining mansabdor shaxslariga nisbatan chora ko'rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuboriladi.

Hujjatli tekshirish (taftish) materiallari soliq to'lovchini javobgarlikka tortish uchun to'g'ri va asosli taqdimnoma kiritish yoki qaror qabul qilish imkonini bermasa, davlat soliq xizmati organining rahbari yoki uning o'rinbosari soliq nazorati bo'yicha qo'shimcha tadbirlar o'tkazish to'g'risida taqdimnoma kiritadi.

Hujjatli tekshirish (taftish) dalolatnomasida ko'rsatilgan natijalar, jumladan, yashirilgan tushum miqdori, qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa byudjet to'lovlari, qo'llanilgan moliyaviy jarimalar, hisoblangan ustamalar, qo'llanilgan ma'muriy jarimalar, davlat byudjetiga va hissadorlarga keltirilgan zararlar va h.k.lar haqida soliq xizmati organi tomonidan ta'sischi'larga (muassislarga, aksiyadorlarga, kuzatuv kengashiga) xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rahbarlarining faoliyatiga baho berish va xulosa chiqarish uchun yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Nazorat savollari

1. Tekshiruv materiallarida qanday xujjatlar bo'lishi lozim?
2. Tekshiruv materiallari soliq organlarining qaysi bo'limlarida ruyxatga olinadi?
3. Tekshiruv materiallarini ro'yxatga olish tartiblari nimalardan iborat?
4. Tekshiruv materiallari to'plami qanday shakllantiriladi?
5. Tekshiruv materiallari to'plamini 1 shakldagi daftarda ro'yxatdan o'tkazilganda qanday ma'lumotlar qayd etiladi?
6. Tekshiruv materiallari to'plamini 2 shakldagi daftarda ro'yxatdan o'tkazilganda qanday ma'lumotlar qayd etiladi?
7. Tekshiruv materiallari to'plamini 3 shakldagi daftarda ro'yxatdan o'tkazilganda qanday ma'lumotlar qayd etiladi?
8. Tekshiruv materiallari to'plamini 4 shakldagi daftarda ro'yxatdan o'tkazilganda qanday ma'lumotlar qayd etiladi?
9. Ro'yxatdan o'tkazilgan tekshiruv materiallariga quyiladigan muhr (shtamp) ning shakli qanday va mazmuni nimadan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy

1. Karimov I.A. “Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir”. T.: O‘zbekiston, 2010.
2. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. T.: O‘zbekiston, 2009. - 56 b.
3. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro‘ziyev G‘., Xotamov K. Soliq nazorati. T.: O‘quv qo‘llanma, “YAngi asr avlodi”, 2010.
4. Tangirqulov A, Xomma A, Toshmatov SH, Norkuziyev I, Rozikov N. “Soliq qarzi va uni undirish”. T.: O‘quv qo‘llanma, “YAngi asr avlodi”, 2010.
5. Ortiqov A.A va boshqalar. Xufyona iqtisodiyot. T. 2002 y
6. Ro‘ziyev G‘. Soliq nazorati. O‘quv qo‘llanma. T. 2007 y
7. Mironova O.A. Nalogoverye administrirovaniye Uchebnoye posobiye M.: 2005 glava 5

Qo‘shimcha

8. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr –O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: “Adolat”, 2010 y.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-1326-sonli. 26 aprel 2010 y.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning Farmoni. «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida». PF-4058-sonli. 25 noyabr 2008 y.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida». PQ-1257-sonli. 8 yanvar 2010 y.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. “Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”. PQ-98 sonli. 21 may 2010 y.
13. Karimov I.A. “Mamlakatimizni moderonizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir”. Xalq so‘zi. 28 yanvar 2010 y.
o‘rganish bo‘yicha O‘quv-uslubiy majmua.” – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.

9. Soliq huquqbuzarlilari bo'yicha ma'muriy amaliyot yuritish tartiblari

Reja:

1. Ma'muriy amaliyot xizmatining maqsadi va asosiy vazifalari.
2. Ma'muriy amaliyotning tashkiliy asoslari.
3. Ma'muriy amaliyotning funksiyalari.
4. Ma'muriy amaliyot bilan shug'ullanuvchi bo'limlarning huquqlari.
5. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ishlarni yuritish tartibi
6. Soliq sohasida qonunbuzarlikka qarshi kurashda soliq organlarining huquqni muxofaza etuvchi organlar bilan hamkorlik faoliyati

Tayanch so'z va iboralar:

- | | |
|--|---------------------------|
| 1. Soliq huquqbuzarligi | 8. Boqimanda |
| 2. Ma'muriy huquqbuzarlik | 9. Soliq qarzi |
| 3. Ma'muriy jazo | 10. Daromalarni yashirish |
| 4. Moliyaviy jazo | 11. Qasdan yashirish |
| 5. Penya | 12. Jinoiy javobgarlik |
| 6. Takroriy soliq huquqbuzarlik | 13. Faoliyatni tugatish |
| 7. Yengillashtiruvchi va ogirlashtiruvchi holatlar | 14. Faoliyatni to'xtatish |

1. Ma'muriy amaliyot xizmatining maqsadi va asosiy vazifalari.

Ma'muriy amaliyot xizmatining faoliyati O'zbekiston Respublikasi DSQ va tegishli bo'limning joriy hamda istiqbol rejalari asosida tashkil etilib quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

-Davlat soliq xizmati organlarida qonun doirasida ma'muriy ishlarni yuritish, ularni hisobga olish va hisobotlarni yuritishni tashkil qilish;

-soliq sohasidagi xuquqbuzarlikni oldini olish, bartaraf etish xamda sodir etilayotgan qonunbuzilish hollari bilan kurashish ishlarni davlat soliq idoralarida tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish;

-aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi talablariga qat'iy rioya etilgan holda ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini yuritishda qonun ustivorligi prinsipiga amal qilishni ta'minlash;

-O'zbekiston Respublikasi Bosh prokraturasi huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti va uning joylardagi tuzilmalari bilan o'zaro hamkorlik qilish va ularga jinoyat alomatlarini mavjud bo'lgan materiallarni tegishliligi bo'yicha belgilangan tartibda jo'natilishini ta'minlash;

-quyi soliq idoralarida soliq sohasida huquqbuzarlikni aniqlash va oldini olish, ularni keltirib chiqaruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha qonunda belgilangan chora-tadbirlarni qo'llashni tashkil etish va ularning faoliyati ustidan nazorat olib borish.

2. Ma'muriy amaliyotning tashkiliy asoslari.

Ma'muriy amaliyot tartib qoidalari O'zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuniga, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida». PQ-1257-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 21 maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini

huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida". PQ-98 sonli Qarorlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasi DSQ Raisi tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan amalga kiritilgan.

Mazkur Nizom «Ma'muriy amaliyotni tashkil etish va nazorat qilish bo'limi»ning vazifalari, funksiyalari va faoliyatining tashkiliy asoslarini belgilab beradi.

Bu bo'lim bevosita Davlat soliq qo'mitasi raisining o'rinbosariga bo'ysotadi hamda u tomonidan tasdiqlangan rejalar, berilgan topshiriq va ko'rsatmalar asosida faoliyat ko'rsatadi.

Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, Oliy majlis qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, boshqa qonun hujjatlariga, Davlat soliq qo'mitasining xay'at qarorlariga, qo'mita raisining buyrug'i va ko'rsatmalariga hamda nizomga amal qilgan xolda faoliyat ko'rsatadi.

3. Ma'muriy amaliyot xizmatining funksiyalari

Davlat soliq qo'mitasida va quyi davlat soliq organlarida tashkil etilgan ma'muriy amaliyot bo'limi va uning shu'balari zimmasiga yuklatilgan asosiy vazifalar doirasida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- huquqbuzarlik xolatlari yuzasidan tekshiruv xujjatlarini qonun doirasida ko'rib chiqishni tashkil etish;

- aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan tegishli xujjatlarga asoslangan xulosalar berilishini ta'minlash;

- soliq qonunchiligiga doir aniqlangan ma'muriy huquqbuzarliklar haqidagi ishlarni yuritish tartibiga, jinoyat alomatlari mavjud bo'lgan materiallarni taaluqliligi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti yoki uning joylardagi tuzilmalariga yuborilishini ta'minlash;

- soliq idoralarining vakolat doirasiga kirmaydigan ma'muriy xuquqbuzarliklarga oid tekshiruv hujjatlarini taaluqliligi bo'yicha sud, ichki ishlar va boshqa idoralarga belgilangan tartibda yuborilishini ta'minlash;

- huquqbuzarlik bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlarining taxlili asosida o'z tasarrufidagi xududda soliq to'lovchilar tomonidan soliq qonunchiligiga rioya etilishini taxlil qilish, xal qilingan ma'muriy ishlarning turlari bo'yicha va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamentiga yuborilgan materiallar haqidagi choraklik, yarim yillik va yillik statistik hisobotlar, axborotlar va ma'lumotlarni umumlashtirish va tegishli yuqori tashkilotlarga va boshqa organlarga taqdim etish;

- olib borilayotgan ma'muriy amaliyotda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlash xamda bartaraf etish borasida takliflar kiritish, uslubiy, me'yoriy – huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda faol ishtirok etish;

- soliq sohasidagi qonunlarini takomillashtirish ishlarida faol ishtirok etish, qonunlar ijrosi va qo'llanilish amaliyotini taxlil qilib, umumlashtirish hamda qonunlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida takliflar ishlab chiqish;

- ma'muriy amaliyot faoliyatiga taaluqli bo'lgan ariza va shikoyatlarni qonunda belgilangan tartibda ko'rib chiqish.

4. Ma'muriy amaliyot bilan shug'ullanuvchi bo'limlarning huquqlari

Ma'muriy amaliyot xizmati O'zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi Qonuni, Soliq kodeksi, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi, soliq tizimi

faoliyatni belgilovchi va ma'muriy amaliyotni yuritishga oid boshqa normativ hujjatlarida aks ettirilgan huquqlariga ega.

Davlat soliq qo'mitasi xuzurida tashkil etilgan «Ma'muriy amaliyotni tashkil etish va nazorat qilish bo'limi» quyidagi huquqlarga ega:

- belgilangan tartibda soliq idoralarida yuritilayotgan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni o'rganish, qonunchilikka rioya etishni va tayinlangan jarimalarini undirishi ahvolini tekshirish, tuzilgan xulosalarga baxo berish;
- soliq idoralarining faoliyatida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeks talablariga rioya etmagan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda bekor qilish choralarini ko'rish;
- ma'muriy ishlarni yurtishida soliq sohasida aniqlangan qonunbuzarliklarni kelib chiqish sabablarini va shart – sharoitlarini bartaraf etish va oldini olishga qaratilgan choralarning samaradorligini tekshirish;
- quyi idoralardan soliq sohasidagi huquqbuzarlik yuzasidan ma'muriy ishlar buyicha hisobotlarni va boshqa ma'lumotlarni talab qilib olish va ularni taxlil qilish;
- soliq idoralarida tekshiruv hujjatlarini belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazish, hisobga olish, hisobot tuzish, ijro intizomi tekshirish, tekshiruv materiallarini navbatchi qismarda ro'yxatdan o'tkazishda belgilangan tartibga rioya kilinishi ustidan nazoratni olib borshi;
- soliq idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshiruv hujjatlarini rasmiylashtirishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni aniqlab, ularni bartaraf etish borasida tegishli tavsiyalarni ishlab chiqish;
- davlat manfaatlarini himoya qilish, soliq qonunchiligi va siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;
- bo'lim xodimlariga O'zbekiston Respublikasi «Davlat soliq xizmati to'g'risida» gi Qonunida va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan huquqlar ham beriladi.

5. Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risida ishlarni yuritish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek tumanlar, shaharlar va shahardagi tumanlar davlat soliq inspeksiyalari (keyingi o'rinlarda davlat soliq xizmati organlari) tomonidan o'tkazilgan soliq tekshiruvlari, kameral nazorat, reydlar natijasida aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlik holatlari bo'yicha tuzilgan materiallar, shuningdek boshqa nazorat qiluvchi organlardan chora ko'rish uchun kelib tushgan hujjatlar yig'ma jildga tikilgan va ro'yxati tuzilgan holda, ro'yxatga olingan paytdan boshlab besh ish kundan kechiktirmasdan (tekshirish yoki reydlar yakuniga ko'ra ekspertiza tayinlash lozim bo'lgan hollarda, ekspert(lar) xulosasi olingandan so'ng bir ish kundan kechiktirmasdan) funksional boshqarma (bo'lim, sho'ba) rahbari tomonidan imzolangan aloqa xati bilan yuridik shaxslarning mansabdor shaxslarini hamda jismoniy shaxslarni ma'muriy yoki jinoiy javobgarlik masalasini hal etish uchun Ma'muriy amaliyotni tashkil etish va nazorat qilish bo'limi (sho'basini yoki mas'ul xodimi)ga (keyingi o'rinlarda ma'muriy amaliyot bo'limi (sho'basini) deb yuritiladi) taqdim etiladi.

Hujjatlar to'plami ma'muriy amaliyot bo'limi (sho'basini) tomonidan o'rganib chiqiladi va uch ish kundan oshmagan muddatda, soliq tekshiruv materiallari bo'yicha tekshiruv tugagan kundan e'tiboran o'n ish kuni o'tgach, bir ish kundan kechiktirmasdan qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs(lar)ning harakati (harakatsizligi)ga huquqiy baho berilib, xulosa tuziladi. Xulosa kamida ikki nusxada tuzilib, tekshiruv materiallariga qo'shib qo'yiladi. Prokuratura organlari tomonidan qo'zg'atilgan ma'muriy huquqbuzarlikka doir ishlar bundan mustasno.

Agarda soliq to'lovchi soliq tekshiruv dalolatnomasi bo'yicha o'zining yozma e'tirozlarini soliq tekshiruv tugagan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida taqdim etgan bo'lsa, soliq tekshiruv materiallari e'tirozlar bilan birga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 102-moddasi tartibida soliq to'lovchining mansabdor shaxslari ishtirokida ko'rib chiqiladi va buning natijasiga ko'ra ishni ko'rib chiqish uchun belgilangan muddat ichida qonunbuzarlikni sodir etgan shaxs(lar)ning harakati (harakatsizligi)ga huquqiy baho beriladi.

Soliq to'lovchining moliyaviy javobgarlik masalasi soliq tekshiruvi natijasi bo'yicha tuzilgan dalolatnomaning tegishli tartibda rasmiylashtirilgan nusxasi yoki moliyaviy sanksiya qo'llashga asos qilib olingan boshqa hujjatlar asosida, Oliy Xo'jalik sudi va Davlat soliq qo'mitasining soliq tekshiruvi materiallarini ko'rib chiqish, moliyaviy sanksiyalarni qo'llashga oid hujjatlarni rasmiylashtirish, ularni xo'jalik sudlariga taqdim etish hamda hisobini yuritish to'g'risidagi tartibga muvofiq hal etiladi.

Soliq, valyuta va iqtisodiyot sohasida boshqa jinoyat alomatlari aniqlangan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi va Davlat soliq qo'mitasining soliq, valyuta va iqtisodiyot sohasida aniqlangan boshqa qonunbuzilishlar yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtirish va prokuratura hamda Bosh prokuratura huzuridagi Departament organlariga yuborish to'g'risidagi tartibi asosida hal etiladi.

Davlat soliq qo'mitasi va hududiy davlat soliq boshqarmalarining soliq tekshiruvi materiallari tegishlilikicha qo'mita va boshqarmalarning ma'muriy amaliyot bo'lim (sho''ba)lari tomonidan o'rganib chiqiladi. Materiallarda ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari aniqlanganda, tuzilgan xulosa bilan birga hududiy davlat soliq organlariga yuboriladi.

Materiallarni o'rganish va xulosa tuzish jarayonida quyidagi masalalarga e'tiborni qaratish lozim:

- soliq tekshiruvi Soliq kodeksining 88-93-moddalari talablari asosida o'tkazilganligiga, tekshiruv o'tkazish tartibi va muddatlariga rioya etilganligiga;

- tekshiruvni o'tkazgan mansabdor shaxs(lar)ning xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini tekshirish (taftish qilish) huquqi borligiga;

- soliq tekshiruvi dalolatnomasi Soliq kodeksining 101-moddasi talablari asosida sifatli va to'g'ri rasmiylashtirilganligiga;

- soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligidan dalolat beruvchi hujjatlar yoki huquqbuzarlik predmetlari olib qo'yilgan bo'lsa, Soliq kodeksining 100-moddasi talablari asosida bayonnoma tuzilganligiga;

- soliq tekshiruvi dalolatnomasining bir nusxasi soliq to'lovchiga topshirilgan(yuborilgan)ligiga;

- tekshiruv davrida aniqlangan huquqbuzarlik holatlari bo'yicha soliq to'lovchining (jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsning mansabdor shaxslari) tushuntirishlari, shaxsiga oid hujjatlar nusxalari mavjudligiga;

- huquqbuzarlik takroran sodir etilgan-etilmaganligiga va bu masalaning harakat yoki harakatsizlikni malakalashga ta'siri bor-yo'qligiga;

- sodir etilgan huquqbuzarlik harakat (harakatsizlik)larda O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (keyingi matnlarda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks)ning qaysi moddasida nazarda tutilgan huquqbuzarlik tarkibi mavjudligiga va bu huquqbuzarlik sub'ekti bo'lmish shaxs to'g'ri tanlanganligiga;

- ma'muriy jazo qo'llanish muddatlari o'tib ketmaganligiga;

- huquqbuzarliklar yuzasidan ishlarni ko'rib chiqish vakolati kimga berilganligiga.

Agarda hujjatlar belgilangan tartibga rioya etilmagan holda rasmiylashtirilgan hamda to'liq hajmda taqdim etilmagan bo'lsa, bu holda ma'muriy amaliyot bo'limi (sho''basi) mas'ul xodimining bildirgisiga ko'ra, uch ish kunidan oshmagan muddatda hujjatlardagi kamchiliklar bartaraf etilishi lozim. Zarur hollarda (sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarliklar bo'yicha talablari buzilgan qonun hujjatlari ko'rsatilmagan bo'lsa va hokazo) davlat soliq xizmati organi ishchi guruhining fikri olinishi lozim.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi holatlarida ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 279-281-moddalari talablariga ko'ra, ma'muriy amaliyot bo'limi (sho''basi yoki mas'ul xodimi)ning xulosasi asosida tekshiruv yoki nazoratni amalga oshirgan xodim tomonidan ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilganligi to'g'risida bayonnoma tuziladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma buzilishi ma'muriy javobgarlikni keltirib chiqaradigan qoidalarga rioya etilishini tekshirish va nazorat qilish qonun hujjati bilan

zimmasiga yuklatilgan soliq xizmati organining vakolatli boshqa mansabdor shaxs(lar)i tomonidan ham tuzilishi mumkin.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma tuzilgan kundan e'tiboran huquqbuzarlik aniqlangan va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni yuritish boshlangan hisoblanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnomada quyidagilar ko'rsatilishi shart:

- bayonnoma tuzilgan sana va joyi;
- bayonnoma tuzgan davlat soliq xizmati organi xodimining lavozimi (to'liq), familiyasi, ismi, otasining ismi;
- huquqbuzarning shaxsiga oid ma'lumotlar (familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili va joyi, ish joyi va lavozimi, yashash joyi, oilaviy ahvoli, fuqaroligi. Agarda bayonnoma tuzilganda huquqbuzarda tegishli hujjatlar bo'lmasa, qayd etilgan ma'lumotlar uning so'zidan yoziladi va bu haqida bayonnomada ko'rsatiladi. Keyinchalik esa ichki ishlar idoralari orqali tekshiriladi.);
- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan joyi va vaqti;
- sodir etilgan soliqqa oid huquqbuzarlikning mohiyati, kelib chiqish sabablari, (bir necha huquqbuzarliklar sodir etilgan bo'lsa, ularning mohiyati alohida ko'rsatiladi), talablari buzilgan qonun hujjatlari (Farmon, qaror, yo'riqnoma va boshqa qoidalar);
- shunday huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat (ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi, moddasi, qismi va bandi har bir huquqbuzarlik uchun alohida ko'rsatiladi);
- bayonnoma tuzish jarayonida guvohlar taklif etilgan bo'lsa, ularning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash manzillari;
- huquqbuzarning tushuntirishi;
- ishni hal qilish uchun boshqa zarur bo'lgan ma'lumotlar.

Bayonnoma uni tuzgan shaxs va ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxs tomonidan imzolanadi; guvohlar bo'lgan taqdirda esa – bayonnoma mazkur shaxslar tomonidan ham imzolanadi.

Huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs bayonnomani imzolashdan bosh tortgan taqdirda, bayonnomaga bu haqda yozib qo'yiladi. Huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs bayonnomaning mazmuni yuzasidan bayonnomaga ilova qilinadigan tushuntirish va mulohazalarini berishga, shuningdek mazkur bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortish sabablarini bayon etishga haqlidir.

Bayonnomani tuzish vaqtida huquqbuzarga Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 294-moddasida nazarda tutilgan uning huquq va burchlari tushuntiriladi va bu haqda bayonnomaga yozib qo'yiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma soliq tekshiruvi yoki kameral nazorat yoxud reyid jarayonida tuzilgan hujjatlar bilan birga bir sutkadan kechiktirilmay Davlat soliq xizmati organi rahbari yoki uning o'rinbosariga takdim etiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish boshqa vakolatli organlarga taalluqli bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi bayonnoma soliq tekshiruvi yoki kameral nazorat yoxud reyid jarayonida tuzilgan hujjatlar bilan birga, tekshiruvni amalga oshirgan yoki huquqbuzarlarga oid hujjatlarni rasmiylashtirgan xodim tomonidan bir sutkadan kechiktirilmay vakolatli organ (sud, ichki ishlar, bojxona xizmati va h.k.)ga yuboriladi.

SHaxs bir necha ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etgan bo'lib, shulardan birortasining sudga taalluqliligi aniqlangan taqdirda, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar sudga yuboriladi.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishni Davlat soliq xizmati organi rahbari yoki uning o'rinbosari o'n besh kunlik muddat ichida ko'rib chiqadi va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 310-moddasiga muvofiq ma'muriy jazo chorasini qo'llash yoki ishni yuritishni tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Huquqbuzar ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish sanasi, vaqti va joiy haqida habardor qilinishi shart.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytida davlat soliq xizmati organi rahbari yoki uning o'rinbosari huquqbuzarlik holatida jinoyat alomatlari bor degan xulosaga kelsa, materiallarni prokurorga yuboradi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish paytida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 308-moddasiga muvofiq bayonnoma yuritiladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish bayonnomasida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- 1) ishni ko'rib chiqish sanasi va joyi;
- 2) ishni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxsning lavozimi, familiyasi va ismi-sharifi;
- 3) ko'rilayotgan ishning mazmuni;
- 4) ishda qatnashuvchi shaxslarning hozir bo'lgan-bo'lmaganligi haqidagi ma'lumotlar;
- 5) ishni ko'rishda qatnashuvchi shaxslarning tushuntirishlari, ularning iltimoslari va bu iltimoslarni ko'rib chiqish natijalari;
- 6) ishni ko'rib chiqish paytida o'rganilgan hujjatlar va ashyoviy dalillar;
- 7) qabul qilingan qarorni o'qib eshittirish to'g'risidagi ma'lumotlar va qaror ustidan shikoyat berish tartibi va muddatlari tushuntirilganligi ko'rsatilgan bo'ladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqish bayonnomasi ishni ko'rib chiqqan mansabdor shaxs tomonidan imzolanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qarorda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 309-moddasi talablariga muvofiq qo'yidagilar ko'rsatilgan bo'lishi lozim:

- qaror chiqargan organ (mansabdor shaxs)ning nomi;
- ish ko'rib chiqilgan sana;
- ish ko'rib chiqilayotgan shaxs xususidagi ma'lumotlar;
- ishni ko'rib chiqish paytida aniqlangan holatlarning bayoni;
- mazkur ma'muriy huquqbuzarlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normativ hujjat;
- ish yuzasidan qabul qilingan qaror.

Basharti ish yuzasidan ashyolar va hujjatlar olib qo'yilgan bo'lsa, ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qarorda ularning masalasi ham hal etilgan bo'lishi lozim.

Agarda bir shaxs ikki yoki undan ortiq huquqbuzarlik sodir etgan bo'lsa, ma'muriy jazo Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 34-moddasiga muvofiq har bir huquqbuzarlik uchun alohida-alohida (har bir huquqbuzarlik uchun ushbu kodeksning belgilangan moddasi, kismi, jarima miqdori alohida ko'rsatilgan holda) qo'llaniladi, qo'llaniladigan uzil-kesil jazo og'irroq ma'muriy jazoni nazarda tutuvchi sanksiya doirasida belgilanadi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqariladigan qaror loyihasi ma'muriy amaliyot hodimi tomonidan tayyorlanadi. Turli xil qaror blankalaridan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish yuzasidan chiqarilgan qaror ishni ko'rib chiqish tugashi bilanoq darhol e'lon qilinadi va uning nusxasi uch kun ichida ustidan shu qaror chiqarilgan shaxsга tilxat bilan beriladi, basharti qarorning nusxasi jo'natilsa, jo'natilganligini tasdiqlovchi hujjat ma'muriy ishga ko'shib qo'yiladi.

Jarima huquqbuzar tomonidan unga jarima solish to'g'risidagi qaror topshirilgan kundan boshlab o'n besh kundan kechiktirmay to'lanishi lozim.

Huquqbuzar jarimani belgilangan o'n besh kunlik muddat ichida to'lamagan taqdirda, jarima solish to'g'risidagi qaror fuqarolik-protsessual qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan qoidalarga muvofiq jarimani majburiy tartibda undirib olish uchun sud ijrochilariga yuboriladi.

Basharti ma'muriy jazo qo'llash to'g'risidagi qaror qabul qilingan kundan boshlab uch oy davomida ijro etishga qaratilmagan bo'lsa, u holda bunday qaror ijro etilmaydi. Ma'muriy

javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 318, 328-moddalariga muvofiq qaror ijrosi to'xtatib turilgan yoki kechiktirilgan muddat hisobga olinmaydi.

Ishni ko'rib chiqish jarayonida ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlar aniqlanganda, ularni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risida tegishli korxonalar, muassasa, tashkilot rahbariga taqdimnoma kiritiladi.

Ma'muriy jarima undirilgandan va taqdimnomaga javob olingandan (agarda taqdimnoma kiritilgan bo'lsa) so'ng ma'muriy ish yurituvchi yakunlangan hisoblanadi.

Ma'muriy xuquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni saqlash Ma'muriy amaliyot bo'limi (sho'nbasi) zimmasiga yuklatiladi.

Davlat soliq xizmati organlarida saqlanadigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar, shuningdek huquqni muhofaza qiluvchi organlarga hamda sudga qonuniy chora ko'rish uchun yuborilgan materiallarning kuzatuv yig'ma jildida bo'lishi lozim bo'lgan hujjatlar ro'yhati ilova qilinadi.

6 Soliq sohasidagi qonunbuzarlikka qarshi kurashda soliq organlarining huquqni muxofaza etuvchi organlar bilan hamkorlik faoliyati

Ma'muriy amaliyot bilan shug'ullanuvchi mas'ul xodimlar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti, ichki ishlar, sud, moliya organlari, banklar va davlatning boshqa boshqaruv organlari bilan o'zaro hamkorlikda soliq sohasida qonunbuzarlikka qarshi kurashga yo'naltirilgan chora tadbirlarni muvofiqlashtirilgan tarzda belgilaydi va amalga oshiradi.

Davriy hisobotlar O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi soliq va valyutaga oid jinoyatlar va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish Departamenti organlariga taaluqliligi buyicha yuborilgan tekshiruv xujjatlarining natijalari haqida o'zaro taqqoslov dalolatnomalarini tuzish, ma'lumotlar va axborotlar almashish asosida olib boriladi.

Nazorat savollari

1. Soliq huquqbuzarligi deb qanday huquqbuzarlikka aytiladi?
2. Ma'muriy huquqbuzarlik deb nimaga aytiladi?
3. Ma'muriy jazoning maqsadi va qanday turlari mavjud?
4. Litsenziya talab qilinadigan faoliyat bilan litsenziyasiz shug'ullanganlarga qanday javobgarliklar mavjud?
5. Qanday soliq huquqbuzarliklari takroriy hisoblanadi?
6. Qanday hollarda moliyaviy jarima qo'llanilmaydi?
7. Boqimanda korxonalar uchun penya hisoblash qachondan to'xtatiladi?
8. Soliq qarzi nima?
9. Boqimanda nima?
10. Daromadlarni yashirish deganda nimani tushunasiz?
11. Qanday soliq huquqbuzarliklari natijasida jinoiy javobgarlik yuzaga keladi?

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati Asosiy

1. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. T.: O'zbekiston, 2011 y.
2. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T.: O'zbekiston, 2010 y.
3. Tagayev A., Xoshimoto F., Ro'ziyev G., Xotamov K. Soliq nazorati. T.: O'quv qo'llanma, "Yangi asr avlodi", 2010 y.
4. Toshmatov Sh., Ro'ziyev G., Xoshimoto F., Bobojonov D., Xotamov K. "Soliq tekshiruvi usullari". T.: O'quv qo'llanma, "Yangi asr avlodi", 2011 y.
5. Ro'ziyev G. Soliq nazorati. O'quv qo'llanma. T. 2007 y
6. Bratuxina O.A. Kontrol i organizatsiya proverok nalogovimi organami. Uchebnoye posobiye. Rostov n/D.: 2007.-400 s.
7. Dobroxotova V. B., Lobanov A.V. Nalogovie proverki: kniga dlya nalogoplatelshika i nalogovika. 2-ye izdaniye. M.: MSFER, 2007-414 s
8. Korneva Ye.A., Tkachev V.N. Zashita prav xozyaystvuyushix sub'ektov-nalogoplatelshikov v sporax s nalogovimi organami: Uchebnoye posobiye. M.: «Izdatelskiy Dom «Gorodets»». 2006.- 224 s
9. Kameralnaya nalogovaya proverka: sodержaniye, poryadok provedeniya, posledstviya/ Pod redaksiyey G.Yu. Kasyanovoy. M.: ID «Argument», 2006.-56s.
10. Lermontov Yu. M. Nalogovie proverki po-novomu. M.: Izdatelstvo Indeks Media. 2007.-256 s.z
11. Nalogovie proverki: prakticheskoye rukovodstvo/ Pod obshey red. V.V. Semenixina. M.: EKSMO, 2006.-144 s.
12. Poponova A.N., Nesterov A.V., Terzidi A.V. Organizatsiya nalogovogo ucheta i nalogovogo kontrolya. Uchebnoye posobiye. M.: Eksmo, 2006-620 s.
13. Suvorov M.A. Protsessualizatsiya nalogovix proverok (Problemi i puti sovershenstvovaniya)M: Nauka, 2007-270 s.
14. Spirina L.V., Timoshenko V.A. Nalogovie proverki. Uchebno-prakticheskoye posobiye. M.: Ekzamen. 2006.-412 s.

Qo'shimcha

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi: Rasmiy nashr –O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: "Adolat", 2010 y.
2. O'zbekiston Respublikasining «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonuni. 29 avgust 1997 y.
3. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini davlat nazorati to'g'risida»gi qonuni. 24 dekabr 1998 y.
4. Xodiyev B.Yu., Bekmorodov A.Sh., G'ofurov U.V., Tuxliyev B.K. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jaxon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarini o'rganish bo'yicha o'quv ko'llanma. T.: Iqtisodiyot, 2009. 120 b.
5. Xodiyev B.Yu, Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha O'quv-uslubiy majmua." – Toshkent: Iqtisodiyot. - 2010. – 340 bet.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 8 yanvardagi «Respublika soliq organlari tizimini yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1257-sonli qarori
7. 2010 yil 21 maydagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini huquqiy tartibga solishni yanada takomillashtirish to'g'risida»gi 98-sonli qarori
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 24 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida" PQ-1449-son qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 2 maydagi «Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilarga axborot xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 125-sonli qarori/
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 yanvardagi «Xususiy tadbirkorlar yuridik shaxs tashkil etmasdan shuo'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'o'risida»gi 6 sonli Qarori
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevraldagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi to'o'risidagi ni PQ-1474-sonli Qarori
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 11 martdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga kredit berishni ko'paytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1501-sonli Qarori.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 23 martdagi «Iste'mol tovarlari importini tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1507-sonli Qarori
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 28 martdagi «Tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatiga olish va hisobga qo'yishning xabardor qilish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi PQ-1513-sonli Qarori.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 4 apreldagi «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishlarni yanada qisqartirish va ular faoliyatini nazorat qilishni tashkil etish tizimini takomillashtirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'o'risida» gi PF-4296-sonli Farmoni.
16. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 5 apreldagi «Tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining quvvati 50 kvtgacha bo'lgan elektr qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulashning soddalashtirilgan tartibini joriy etish to'g'risida»gi 103-sonli Qarori.
17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 12 maydagi «Tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish va davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1529- sonli Qarori.
18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 31 maydagi «Sug'urtachilarning moliyaviy barqarorligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1544-sonli Qarori
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2011 yil 24 avgustdagi «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4354-sonli Farmoni.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 25 avgustdagi «Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'grisida»gi PQ-1604-sonli Qarori

Internet saytlari

1. <http://www.soliq.uz/>
2. <http://www.stat.uz/>
3. <http://www.norma.uz/>
4. <http://www.pravo.uz/>